

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo`lyozma huquqida  
UDK

**Jabborov Ro`zmat**

**O`zbek tili so`z birikmalarining XX asrdagi taraqqiyoti masalalari**

Mutaxassislik: 5A141101 - O`zbek tili

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

**D I S S E R T A T S I Y A**

Ilmiy rahbar:  
filologiya fanlari nomzodi  
E.XO`JANIYAZOV

**NUKUS – 2014**

# **O`zbek tili so`z birikmalarining XX asrdagi taraqqiyoti masalalari.**

**Kirish.**

**I. Bob. XX asrda boshqaruv asosida tuzilgan so`z birikmalar taraqqiyoti  
masalalari. Kelishikli boshqaruvli so`z birikmalari.**

**1.1 Tushim kelishikli birikmalar.**

**1.2. Jo`nalish kelishikli birikmalar.**

**1.3. Chiqish kelishikli birikmalar.**

**1.4. O`rin kelishikli birikmalar.**

**II. Bob. Ko`makchili boshqaruvli so`z birikmalari.**

**2.1 Bosh kelishikni boshqaruvchi ko`makchilar vositasida hosil  
bo`ladigan birikmalar.**

**2.2. Jo`nalish kelishigini boshqaruvchi ko`makchilar bilan hosil  
bo`ladigan birikmalar.**

**2.3. Chiqish kelishikgini boshqaruvchi ko`makchilar vositasida hosil  
bo`ladigan birikmalar**

**III Bob. Ko`makchi otlar vositasida hosil bo`ladigan birikmalar  
taraqqiyoti masalalari.**

**3.1. O`rin ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan boshqaruvli  
birikmalar**

**3.2. Ob`ekt ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan birikmalar  
taraqqiyoti.**

**3.3. Holat ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan birikmalar  
taraqqiyoti masalalari.**

**Umumiy xulosalar.**

**Foydalangan adabiyotlar ro`yxati.**

## Dissertatsiyaning umumiy tavsifi

**Mavzuning dolzarbligi.** Til doimiy ravishda xalq tarixi. Uning bosib oʻtgan tarixiy bosqichlari, jamiyatning tuzilishi, har bir ijtimoiy tuzimning etakchi mafkurasi, gʻoyalari bilan bogʻlangan boʻladi. Tilda xalq bosib oʻtgan tarixiy bosqichlar oʻzining oʻchmas izlarini qoldiradiki, bu til yaruslarining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Uning oʻzgarishi jarayonlarini aniq tasavvur qilish uchun uni diaxronik aspektda oʻrganish, uning tarixining muayyan davrlarini hozirgi holatga solishtirish, bu evolyutsion taraqqiyotning nimalar, qanday omillar taʼsirida yuzaga kelganligini ochib berish, undagi eng kichik struktural oʻzgarishlardan tortib, kattaroq hajmdagi yangilanish va tub oʻzgarishlarni aniqlash, ularning qonuniyatlarini belgilash tilshunoslik oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ularni lisoniy metodlar asosida oʻrganish tilga dialektik nuqtai nazardan yondashishning bir koʻrinishidir. Dunyoda qotib qolgan narsa yoʻq, har qanday hodisaga yangilanish, jamiyat talablari asosida oʻzgarish hodisasi xosdir. Shu maʼnoda oʻzbek tili tuzilishining shu kundagi holatini yaqin oʻtmishimiz, yaʼni XX asrning boshlaridagi boʻlgan holatiga solishtirish muhim ahamiyatga ega. Faqat shu orqaligina biz oʻzbek tilining evolyutsion taraqqiyotini toʻgʻri anglashimiz, tilga ongli va madaniy munosabatda boʻlishimiz mumkin. Tilga eʼtiborsiz holda unga yot boʻlgan konstruktsiyalarni qoʻllash, hozirgi jamiyatimiz taraqqiyotiga, tushunchalariga umuman zid boʻlgan soʻz va iboralarni ishlatish tilimiz taraqqiyotiga subitsiz munosabatda boʻlishga tenglashtiriladi. Shu maʼnoda muhtaram prezidentimizning “biz ajdodlardan avlodlarga oʻtib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni avaylab-asrashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur”<sup>1</sup>, degan gaplari doim esimizda turishi va til tarixida sodir boʻlgan, hayotimiz uchun zarur boʻlgan har bir unurni saqlab qolishimiz, uni milliy oʻziga xosligimiz negizida rivojlantirishimiz ham farz, ham qarzdır.

---

<sup>1</sup> I. Karimov. Yuksak maʼnaviyat – engilmas kuch. T., 2008, 87-b.

Ma`lumki, o`zbek tili tarixiy taraqqiyotida boshqa davrlarga nisbatan XX asr boshlaridagi tarixiy vaziyat, ijtimoiy qarama-qarshiliklarga boy jamiyat tuzilishi, har xil qatlamga, dunyoqarashi har xil bo`lgan turli xalq vakillarining hayotimizda aralash-quralash kirib kelishi, jamiyat mafkurasiga xos ibora va tushunchalarning zo`rlik bilan bostirib kirishi, hali adabiy tilning shakllanmagan bir davrida matbuot, kitob, o`qish-o`rganish ishlarida turli millat vakillariga xos odamlarning ishtiroki tilga katta ta`sir quvvatini olib kirdi. Bu jarayon tilga katta ta`sir o`tkazib, ko`pgina yot unsuralning tilga kirib o`zlashishiga, asrlar osha qo`llanilib kelayotgan til me`yorlarining buzilishiga, asl milliy-o`zbekcha til me`yorlarining kelgindi qatlam elementlari bilan raqobatlashishiga olib keldiki, natijada bu jarayon katta til o`zgarishlariga olib keldi. Shu sababli ham XX asr boshidagi til holati bilan hozirgi davr til qo`llanish jarayonini o`rganish o`zbek tili taraqqiyotidagi sodir bo`lgan tub yangilanishlarni kuzatishga, uning mohiyatini aniqlashga katta yordam beradi. Bu esa o`zbek tilshunosligi oldiga yangi ufqlar ochib, til tarixining noaniq tomonlarini ochib berishimizga yordam beradi.

Til taraqqiyoti barcha sohalarda bir xil o`zgarishlarga uchrashi mumkin emas. Ayniqsa bu jarayon leksika sohasida nihoyatda faol bo`lsa, morfologik va sintaktik bosqichda ancha sust bo`lishi mumkin. Chunki grammatik bosqich o`zining konservativligi, davr va zamon ta`sirotlari unga unchalik ta`sir qilmasligi, bu sohalardagi o`zgarishlar asrlar osha sodir bo`lishi, makondan va zamondan bee`tiborligi, turg`unligi bilan ajralib turadi. Shunga qarab bu sohalardagi o`zgarishlar e`tiborsiz bo`lib tuyulishi, katta til hodisalarini o`zida voqealantirmasligi mumkindek taassurot qoldiradi. Ammo til hodisalarini kuzatish bunday hadiksirashning asossizligini, grammatika sohasida ham katta struktural o`zgarishlar yashirinib yotganligini ko`rsatmoqdaki, bu hodisalarni o`rganish va ularga lisoniy baho berish til evolyutsiyasini aniqlashga katta yordam berishi mumkinki, buni tadqiq qilish doim dolzarbdir.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** So`z birikmalari sintaktik hodisa sifatida shakliy-qurilish jihatdan an`anaviy tilshunoslikda V.V. Vinogradov, N.N. Prokopovich, O.S. Axmanova, F.P. Filin, N.Yu. Shvedova kabi rus tilshunoslari

asarlarida, turkiyshunoslikda N.K. Dmitriev, S.e. Malov, e.D. Polivanov, A.N. Konov, N.A. Basakakov, A.M. Sherbak, M. Balaqayev, M.Z. Zakiyev, N.G. Gadjiyeva kabi olimlar ishlarida, o`zbek tilshunoslaridan G`.A. Abdurahmonov, F. Abdullayev, Sh. Shukurov, Q. Karimov, X. Nazarova, A.N. Nurmonov, V.V. Reshetov, T. Rustamov, A. Safayev, A. G`ulomov, M.A. Asqarova kabi olimlar ishlarida o`rganilgan. So`z birikmalari taraqqiyoti masalalari F.A. Abdullayeva, F.I. Ibrohimova, G`. Karimov, A. Ahmedov, S. G`oyibov maqola va kitoblarida umumiy tarzda o`rganilgan. So`z birikmalarining sobiq sovet davridagi tadqiqoti rus tili materiallariga qiyoslagan holda A. Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining Hozirgi zamon o`zbek tilshunosligi bo`limida o`rganilib, "Sovet davridagi o`zbek adabiy tili taraqqiyoti" kitobining ikkinchi jildida bayon qilingan. Bundan tashqari bu muammo ba`zi mualliflarning maqolalarida bilvosita umumiy tarzda, ba`zi holatlarga aniqlik kiritilayotgan vaziyatlarda bayon qilingan.

#### **Dissertatsiya mavzusining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog`liqligi.**

Dissertatsiya mavzusi eng avvalo kafedrada muhokama qilinib, kafedra jamoasi tomanidan ma`qullandi. U institutning magistratura bo`limida ko`rib chiqilib, institut ilmiy kengashiga havola qilindi va u institut ilmiy kengashida magistrlik dissertatsiyasi mavzusi sifatida tasdiqlangan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Ishning asosiy maqsadi o`zbek adabiy tili sintaksisi sohasidagi evalyutsion tadqiqotini o`rganish va kuzatishlar orqali o`zbek tili so`z birikmasi sintaksisi sohasidagi tadqiqotni ochib berish. So`z birikmasi sintaksisi unsurlarining sinxron va diaxron holatini o`rganish orqali ba`zi til birliklaridagi valentlik imkoniyatlarini va ularning so`z semantikasiga bog`liq holda o`zgarishi silsilasini tekshirishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ydik. So`z birikmalari komponentlarining leksik to`lg`azilishi bevosita ushbu sohadagi evolyutsion tadqiqotini ochib beradi.

#### **Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat.**

- so`z birikmalari so`hasiga bag`ishlangan ilmiy adabiyotlarni tanqidiy nuqtai nazardan o`rganib chiqish va ilmiy-nazariy tayyorgarlik qilish;

- soʻz birliklari sohasidagi rus olimlarining, turkiyshunos va oʻzbek tilshunoslarining ilmiy ishlarini oʻrganish;

- til taraqqiyotidagi evolyutsion oʻzgarishlarni bilish uchun 20-30-yillardagi matnlarni, jurnal, gazeta sahifalaridagi lisoniy materiallarni koʻrib chiqish;

- bu lisoniy materiallar til va adabiyot instituti hozirgi zamon oʻzbek tilshunosligi boʻlimining nashr qilgan manbalarida oʻz ifodasini topgan va ularning qoʻlyozma, kitoblarida aniq koʻzga tashlanishini eʼtiborga olib, ularni oʻrganib chiqish;

- oʻzbek tilida analitizm tendentsiyasining rivoji va uning sintetizm bilan raqobatlashishi jarayonlarini faktlar vositasida ochib berish;

- soʻz birikmasi komponentlarining leksik toʻlgʻazilishi bevosita hokim soʻzning feʼlning semantikasiga bogʻliq ekanligini ochib berish;

- soʻz birikmasi hosil boʻlishi analitik shakllarining sintetik shakllarga sinonim boʻla olishi holatlarini kuzatish:

- ot koʻmakchilarning soʻz birikmasi komponentlari talashishiga taʼsiri masalalarini oʻrganish;

- soʻz birikmalari sohasidagi taraqqiyot mevalari adabiy tilning silliqlashishi, aniqlik kasb etishi, ifodalilikning oshishiga yordam berganini faktlar bilan ochib berish.

**Tadqiqot obʼekti va predmeti.** Tadqiqot obʼekti sifatida soʻz birikmalari tarkibidagi rivojlanishning tendentsiyalarini oʻrganish masalalari tanlangan. Asosiy muammo sifatida soʻz birikmasi tarkibining 20-30-yillardagi holati va hozirgi davrdagi koʻrinishini qiyoslab undagi oʻzgarishlarni ochib berish masalasi qoʻyilgan.

Tadqiqot predmetini esa 20-30-yillardagi gazeta, jurnal. Kitoblardan toʻplangan materiallar va ularning hozirgi davrdagi qoʻllanilishiga oid til faktlarini tahlil qilish tashkil etadi. Bunda asosiy misollar birlamchi manbalardan va tadqiqotlar natijalari eʼlon qilingan kitoblardan olingan. Bularni tahlil qilish ishning predmetini tashkil etadi.

**Tadqiqotning ilmiy farazi:** 1) Soʻz birikmasi sohasidagi oʻzgarishlar lingvistik va nolingvistik omillar taʼsirida maydonga kelgan; 2) Lingvistik omillar sifatida soʻz semantikasidagi oʻzgarishlar, ularning valentlik imkoniyatlarining kengayishi, uslubiy taqsimlanish kabilarni koʻrsatish mumkin; 3) Nolingvistik omillar sifatida ijtimoiy jamiyatning oʻzgarishi, xalq turmush tarzidagi yangilanishlar, rus tilining va u orqali evropa tillarining taʼsirini koʻrsatish mumkin; 4) Soʻz birikmalari sohasidagi oʻzgarishlar ularning uslubiy differentsitsiyasiga katta taʼsir oʻtkazgan.

**Tadqiqot manbalari.** Tadqiqotning nazariy asosini V.V. Vinogradov, O.S. Axmanova, N.N. Prakopovich, e.S. Skoblikova kabi rus olimlarining ishlaridagi soʻz birikmalariga oid nazariy asoslar, turkiyshunos olimlardan S.e. Malov, e.D. Polivanov, A.N. Kononov, N.K. Dmitriyev, N.A. Baskakov, A.M. sherbak asarlaridagi, oʻzbek tilshunoslaridan A. Hojaye, A.Gʻ. Gʻulomov, A. Safayev, K. Sharipov, U. Tursunov, Sh. Rahmatullayev, kabilarning, qozoq tilshunoslaridan M. Balaqayev, A.N. Nurmaxanova, K. Axanov kabilarning, qoraqalpoq tilshunoslaridan e. Davenov, M. Davletov, A. Bekbergenov, O. Dospanov, Sh. Abdinazimov, O. Bekbaulov kabilar asarlaridagi nazariy maʼlumotlar tashkil qildi.

Shuningdek, ishda 20-30-yillarda chiqqan kundalik matbuot materiallari, jurnallar, A. Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani matnlari, Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti tilshunos olimlarining “Oʻzbek adabiy tilining sovet davridagi taraqqiyoti” boʻyicha amalga oshirgan tadqiqot ishlarda keltirilgan misollar, matnlar asosiy tahlil manbalari sifatida xizmat qildi. Hozirgi davrga xos materiallar esa 80-90-yillarda nashr qilingan gazeta va jurnallardan olindi.

#### **Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.**

- 20-30-yillardagi kundalik matbuot va jurnallardan soʻz birikmalari tanlandi;  
- A. Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romanining oldingi nashrlaridan misollar toʻplanib, soʻz birikmalarining har xil shakllantirilishiga xos lisoniy materiallar olindi.

- boshqaruv yoʻli bilan tuzilgan soʻz birikmalari qoliplarining leksik toʻlgʻazilishiga misollar toʻplanib ularning tahlili berildi;

- Jo`nalish kelishigi shakli bilan hosil qilingan boshqaruvli birikmalarning 20-yillardagi leksik to`lg`azilishi hozirgi davrdagi shakllari bilan qiyoslandi;

- Jo`nalish kelishigi bilan tuzilgan boshqaruvli birikmalarning boshqa kelishik shakllariga sinonim holatlari tavsiflab berildi;

- Tushim kelishikli boshqaruvli birikmalarning boshqa kelishiklar bilan funktsional almashinib qo`llanilishiga misollar ko`rsatildi;

- O`rin-payt kelishikli boshqaruv yo`li bilan tuzilgan so`z birikmalari shakllarining 20-30-yillardagi holati hozirgi davri bilan qiyoslandi va uning taraqqiyoti masalalari tavsiflandi;

- Chiqish kelishikli boshqaruv yo`li bilan tuzilgan birikmalar sinonimiyasi tavsiflandi va ularning funktsional almashinib qo`llanilishi ko`rsatib berildi. va. h.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ishda ilk bor o`zbek tilining XX asrdagi taraqqiyoti masalasi so`z birikmalari sathida ochib berildi. XX asr boshlarida yuz bergan tarixiy o`zgarishlar, ijtimoiy hayotda yuz bergan alg`ov-dalg`ovli hayot tarzi, har bir jabhadagi ijtimoiy to`qnashuvlar birinchi navbatda tilda o`z ifodasini topadi. So`z birikmasi komponentlarining leksik to`lg`azilishi, ularning tanlanishi, so`zlar semantikasida sodir bo`lgan semantik o`zgarishlar bevosita so`z birikmalari doirasida o`z ifodasini topadi. Dissertatsiyada shunga o`xshash til hodisalari sinchiklab o`rganilgan va bular bo`yicha xulosalar chiqarilgan. Ayniqsa boshqaruvli birikmalar doirasida so`z valentligining ilgari ko`rilmagan darajadagi o`zgarishga uchrashi holatlari ishda yetarli tahlil qilingan va yangilik sifatida taqdim qilingan.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotda o`zbek tili taraqqiyotining 20-asrdagi holati yaxlit holda olib qaralgan sabab uning nazariy jihatlari til tarixini aniq tasavvur qilishga yordam beradi va til tarixining no`malum qirralarini ochib berishga yordamlashadi. Uning xulosalari so`zlar valentligining vaqtlar o`tishi bilan o`zgarib, yangilik kasb etishi masalalarini oydinlashtirishga yordam beradi. Bu esa so`zlarning birikuchanligini, so`z birikmasi komponentlarining leksik to`lg`azilishining davrga bog`liq ekanligini aniqlashga imkon beradi. Pirovardida bu kabi nazariy jihatlari o`zbek tili taraqqiyotining XX

asrdagi holatini tasvirlab beruvchi qo'llanmalar, monografiyalar yaratishda manba vazifasini o'tashi mumkin.

Uning amaliy ahamiyati shundaki, uni ko'zdan kechirgan o'quvchilar, talabalar o'zbek tili so'z birikmalari taraqqiyotini aniq bilib olishga erishadilar va so'z birikmalari sathidagi yangilanishlardan xabardor bo'ladilar. Bu esa ularda sintaksis bo'yicha etarli ma'lumotlarga ega bo'lish ko'nikmasini hosil qiladi. Demak uning materiallari maktab, kollej, litseylar o'quvchilariga ushbu soha bo'yicha yetarli bilim olishlariga yordamlashadi. Talabalar esa undan seminar mashg'ulotlarida foydalanish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

**Natijalarning joriy qilinishi.** Tadqiqot natijalari Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti magistratura bo'limi talabalari orasida tilshunoslik fanlari bo'yicha olib boriladigan seminar darslarda muhokama qilindi. "O'zbek tili nazariy grammatikasi" fanida olib boriladigan seminar mashg'ulotlarida axborot sifatida taqdim qilindi. Magistratura bo'limi magistrantlari bilan o'tkazilgan ta'lim amaliyotida, dars jarayonida foydalanildi.

Ishning natijalari 3 ta ilmiy maqolada bayon qilingan. Ularning 1 tasi institutning ilmiy uslubiy jurnali "Fan va jamiyat" jurnalida (2014 yil №1) e'lon qilingan, ikkita maqola esa O'zbek tilshunosligi kafedrasida tayyorlangan ilmiy to'plamda nashr qilingan.

**Ishning tuzilishi.** Dissertatsion ish kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi 112 betdan iborat

## Kirish

Soʻz birikmasi sintaksisi masalasi ilgari olimlar diqqatini oʻziga tortib kelmokda. XVIII asrdayoq M.V.Lomonosov oʻzining «Rossiyskaya grammatika» / 1755/<sup>1</sup> nomli asarida soʻzlarning birikish tabiati bilan qiziqdi. Oʻsha vaqtda «soʻz birikmasi» tushunchasi mavjud boʻlmasa ham, sintaksisning bir boʻlimida soʻzlarning birikish yoʻllari, soʻz birikmalarining tuzilish formalariga alohida ahamiyat berildi. M.V.Lomonosovdan keyin soʻz birikmasi problemi bilan A.X.Vostokov shugʻullandi. Uning grammatikasida ham sintaksisning bir boʻlimi «soʻzlarning qoʻshilish haqida»<sup>2</sup> deb nomlandi va soʻz birikmasi soʻzlarning oʻzaro qoʻshilishi tarzida talqin qilindi.

Keyingi tadqiqotlarda asosiy kommunikativ birlik gapga boʻlgan qiziqish kuchaya boshladi. Bu xol soʻz birikmasiga boʻlgan qiziqishni bir muncha susaytirsam ham, soʻz birikmasi masalasi olimlar diqqatidan chetda qolmadi. Chunonchi, soʻz birikmasi masalasiga F.F.Fortunatov asarlarida alohida ahamiyat berilgan.<sup>3</sup>

U gapning tugallangan, soʻz birikmalarini esa tugallanmagan soʻz birikmasi deb ataydi. Uningcha, soʻz birikmalari grammatik va nogrammatik soʻz birikmalariga boʻlinadi. Grammatik soʻz birikmalarga maʼlum formal grammatik vositalar bilan birikkan ptitsa letit, xoroshaya pogoda tilidagi birikmalar, nogrammatik birikmalarga hech qanday formal kursatkichlarsiz birikkan poet Pushkin tilidagi birikmalar kiritiladi.<sup>4</sup> F.F.Fortunatovning sintaktik qarashlari rus grammatika fanining rivojlanishida katta rol oʻynaydi. Uning qarashlari soʻz birikmasi problemalarini ishlashda maʼlum darajada asos vazifasini oʻtadi.

F.F.Fortunatovning izdoshi A.M.Peshkovskiy fikricha, sintaksis grammatikaning bir boʻlimi boʻlib, u soʻz birikmasi formalarini oʻrganuvchi

---

<sup>1</sup> Lomonosov M.V. Rossiyskaya grammatika. Poln.sobr.soch.t.7.M-L. 1952. s.89-387.

<sup>2</sup> Vostokov A.X. Russkaya grammatika. SP., 1839, s.219.

<sup>3</sup> Fortunatov F.F. Izbrannie trudi. Slavyanskoye yazykovedenie. T.1, M.,1956, s.182.

<sup>4</sup> Usha asar. S.184.

sohadir.<sup>1</sup> Sintaksisga bunday ta`rif berish ikki sintaktik konstruktsiya – gap va so`z birikmasini shalkashtirishga olib keladi. A.M.Peshkovskiy gaplarning barcha xillari /so`z- gaplardan tashqari/ so`z birikmasi deb talqin qildi. So`z birikmasiga bunday munosabatda bo`lish so`z birikmasi bilan gapni farqlamaslikka olib keladi.

A.A.Shaxmatov esa so`z birikmasiga butunlay yangicha munosabatda bo`ldi. Uning fikricha, so`z birikmasi gap sostavida mavjud bo`lib, ikkinchi darajali bo`laklarning bosh bo`laklarga va ularning bir-birlariga bo`lgan aloqasini o`rganadi.<sup>2</sup> Shunday qilib, unda so`z birikmasi nazariyasi gap haqidagi nazariyaga butunlay boysundirilgandir. Uning sintaktik ta`limotida so`z birikmasiga alohida e`tibor berilgan bo`lib eslatilgan kitobning uchdan bir qismini egallaydi.<sup>3</sup> Keyingi 30 yillikda sobiq sovet tilshunosligida so`z birikmasi sintaksisini o`rganish o`zining yangi bosqichiga ko`tarildi. Uning nazariy jihatlarini ishlashda V.V.Vinogradov<sup>4</sup>, V.P.Suxotin<sup>5</sup>, N.N.Prokopovich<sup>6</sup>, kabi olimlar so`z birikmasiga bag`ishlangan asarlari bilan katta ahamiyatga ega boldi. Ularning asarlarida so`z birikmasi sintaksisi haqida ta`limot gap haqidagi ta`limot bilan bir qatorda alohida ob`ekt sifatida belgilab berildi.

Turkologiyada so`z birikmasi sintaksisini mahsus bo`lim sifatida o`rganish an`anaga aylanib qolgan. Bu sohada prof. N.K.Dmitrivning asarlari alohida ajralib turadi.<sup>7</sup> A.N.Kononov<sup>8</sup>, e.I.Ubryatovalarning<sup>9</sup> asarlarida ham so`z birikmasiga katta o`rin berilgan.

---

<sup>1</sup> Peshkovskiy A.M. Russkiy sintaksis v nauchnom izveshenii. M.,1956.,s.37.

<sup>2</sup> Shaxmatov A.A. Sintaksis russkogo yazika 2-e izdanie, L., 1941., s.276.

<sup>3</sup> O`sha asar, s.274-420.

<sup>4</sup> Vinogradov V.V. Russkiy yazik. M., 1972, Voprosi izucheniya slovosochetaniya, VYa, 1950, №3.

<sup>5</sup> Suxotin V.P. Problemi slovosochetaniya v sovremennom russkom yazike. V kn: Voprosi sintaksisa sovremennogo russkogo yazika. M.,1950.

<sup>6</sup> Prokopovich N.N. Slovosochetaniya v sovremennom russkom literaturnom yazike., M., 1950.

<sup>7</sup> Dmitrev N.K. Stroy tyurkskix yazikov.M-L, 1942. ego je. Detali prostogo predlojeniya. V sb.:Issledovaniya po sravnitel`noy grammatiki tyurkskix yazikov. Ch. I I I. Sintaksis. M.,1961.

<sup>8</sup> Kononov A.N. Grammatika sovremennogo O`zbekskogo literaturnogo yazika., M-L, 1960.

<sup>9</sup> Ubryatova e.I. Issledoaniya po sintaksisu yakutskogo yazika. M-L, 1950.

Hozirgi davrda turli turkiy tillar materiallari asosida soʻz birikmasi problemalariga bagʻishlangan qator tadqiqotlarga egamiz. Chunonchi ular turk<sup>1</sup>, qozok<sup>2</sup>, ozarbayjon<sup>3</sup>, tatar<sup>4</sup>, turkman<sup>5</sup> tillari boʻyicha qilingan ishlardir.

Turkologiyada soʻz birikmasi sintaksisi masalalarining ishlanishida prof.N.A.Baskakovning qoraqalpoq tili boʻyicha va shuningdek, turkiy tillar sintaktik tuzilishi haqidagi umumlashtiruvchi asarlari katta ahamiyatga ega.<sup>6</sup> Bu sohada L.Z.Gadjyevaning tadqiqotlari ham alohida diqqatga loyiqdir.<sup>7</sup>

Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmasi to 1955 yilgacha mahsus tekshirish obʻekti boʻlmadi. Faqat prof. A.G.Gulomov oʻzining sintaksisga bagʻishlangan ishlarida bu masalaga alohida ahamiyat berdi.<sup>8</sup> Shundan keyin maʼlum bir soʻz birikmalari tiplari haqida dastlabki ilmiy tadqiqotlar paydo boʻla boshladi.<sup>9</sup> Ularda feʼl va ot soʻz birikmalari alohida teshirish obʻekti boʻldi. Bundan keyingi davrlarda soʻz birikmasi sintaksisiga bagʻishlangan koʻpgina ishlar maydonga keldi<sup>10</sup> va akadem grammatikalarda<sup>11</sup>, oliygothlar uchun chiqarilgan darsliklarda<sup>12</sup> soʻz birikmasi sintaksisi mahsus soha sifatida izohlana boshladi.

Bu qisqacha obzorning oʻzidanoq maʼlumki, soʻz birikmasi problemi ancha ishlangan soha hisoblanadi. Ammo bu unda barcha masalalar ochiq-oydin degan gap emas. Chunonchi, olimlar soʻz birikmasining tabiatiga har xil munosabatdadir.

Ular quyidagilar: 1. Soʻz birikmasining mohiyati va uning paydo boʻlishi haqida ikkita karama-karshi tendentsiya mavjud. Birinchisi, tilshunoslikda

---

<sup>1</sup> Baskakov A.N. Slovosochetaniya v sovremennom turetskom yazike. M. 1974.

<sup>2</sup> Balakaev M.B. Osnovnie tipi slovosochetaniy v kazaxskom yazike. Alma-ata., 1957.

<sup>3</sup> Seydov Yu.M. Slovosochetaniya v ozerbaydjanskom yazike. Baku, 1966.

<sup>4</sup> Zakiev M.Z. Sintaksicheskiy stroy tatarskogo yazika. Kazan`, 1963, ego je. Slovosochetaniya. V kn. Sovremenniy tatarskiy literaturniy yazik. Sintaksis, M., 1971. s.79-128.

<sup>5</sup> Sariev K. Slovosochetaniye v turkmenskom literaturnom yazike. Ashxabad, 1972.

<sup>6</sup> Baskakov N.A. Tipi atributivnix slovosochetaniy v karakalpakskom yazike. VYa., 1956, №6. ego je. Slovosochetanie v Karakalpakskom yazike. V kn.: Issledovaniya po sravnitelʼnoy grammatike tyurkskix yazikov. Ch.I I I. M., 1961. s.50-60.

<sup>7</sup> Gadjieva L.Z. Osnovnie puti razvitiya sintaksicheskix struktur v tyurkskix yazikax. M., 1972.

<sup>8</sup> Gulomov A.G. Oʻzbek tilida aniklovchilar. T., 1941. Sodda gap. T.,1955., s. 25-35.

<sup>9</sup> Abdullaev A. Glagolʼnie slovosochetaniya v Oʻzbekskom literaturnom yazike. Aftoref.diss. kand. Filolog. Nauk-Samarkand, 1959; Xaliyarov X. Imennie slovosochetaniya Oʻzbekskom yazike. Aftoref. Diss.kand. filolog.nauk-Samarkand, 1966.

<sup>10</sup> Safaev A.S. Issledovaniya po sintaksisu Oʻzbekskogo yazika T.1968. Abdullaev F.A. Soʻzlar oʻzaro qanday boglanadi. T.1972. Sharipov M.K.Hozirgi Oʻzbek tilida suz birikmasi sintaksisi masalasi.

<sup>11</sup> Hozirgi Oʻzbek tili I I- qism. T.,1966: Oʻzbek tili grammatikasi. I I-kism, T.,1978.

<sup>12</sup> Gulomov A.G. Asqarova M.A., Hozirgi Oʻzbek tili., T., 1966.

traditsion-sintaktik yonalish bulib, u asosan F.F.Fartunatov va uning izdoshlari A.M.Peshkovskiy, A.A.Shaxmatovlar nomi bilan bogliq. Ularning fikricha, So`z birikmasi faqat sostavidagina mavjud bolib, gapdan tashqarida bo`lishi mumkin emas. Sovet olimi akademik V.V.Vinogradovning fikri buning tomomila aksidir. Uning fikricha, So`z birikmasi So`z kabi nominativ funktsiyani bajaradi va u So`zning kengaygan formasidir. U gap sostavida ham va gapdan tashqarida ham bo`lishi mumkin.<sup>1</sup>

So`z birikmasining mohiyatini sintaktik nuqtai nazardan talqin qilish o`zining qadimiy traditsiyasiga ega. Sintaktik nazariyalarning rivojlanishi protsessida bu yo`nalishning nazariy asoslari asta-sekin o`z mavqeini mustahkamlamoqda va qaror toptirmoqda.<sup>2</sup> Darhaqiqat, So`z birikmasini gap sostavidan, kommunikativ jarayondan ajratib karash uning funktsiyasini notug`ri tushuntirishga olib kelishi mumkin. Chunki har bir so`z birikmasi fikrning tog`ri amalga oshirilishi va aloqa aktining kommunikativ situatsiyasiga mos bo`lishi uchun faqat o`sha gap sostavidagina mavjud boladi. Shuning uchun ham so`z birikmalarini tilning nominativ birligi hisoblangan so`z bilan bir qatorga qo`yib, gapdan tashqarida ham mavjud bo`ldi deyish so`z birikmasining tabiatga unchalik mos kelmaydi.

Tilning nominativ birliklari – So`zlar kishi ongida imkoniyat xolatida mavjud bolib umumiy tushunchalarni bildiradi va nutqda tayyor xolda ishlatiladi. So`z birikmasi esa konkret tushunchalarni ifoda qiladi va har gal nutq protsessida yangidan xosil qilinadi. Odatda, So`z birikmasiga berilgan ta`riflarda So`z birikmasining «bulingan» (raschlenennoe) tushunchalarni ifodalashi qayd qilinadi. Bu bo`lingan tushunchalarni ifodalash tilda o`z xolicha mavjud bulaolmaydi, u situatsiyaning, nutqning talabi bilan vujudga keladi.

So`z birikmasining gapdan tashqarida ham mavjud bo`lishi mumkinligiga ayrim olimlar gazetalardagi nominativ formadagi sarlavxalarni misol qilib keltiradilar. Bu uning alohida qollanilishining kurinishi emas, balki gazeta nutqining o`ziga xos xususiyatidir, bu birikmalarning mazmuni o`sha

---

<sup>1</sup> Vinogradov V.V. Voprosi izucheniya slovosochetaniy. VYa, 1954, №3

<sup>2</sup> Skoblikova e.S. Sovremenniy russkiy yazik. Sintaksis prostogo predlozheniya. Iz-do «Prosvetnenie» M. 1979, s.71.

kontekstlardan bilib olinadi, ularni o`sha kontekstlardan ajratib qarash umuman mumkin emas. Bu haqda T.A.Tulina tugri fikr bildiradi: «Svoeobraznym isklyucheniem yavlyaetsya plast gazetnyx zagolovok; predstavlyayuyshix namerenno nepolnoe oboznachenie nekotroy situatsii pri pomoshi slovosochetaniy, narochitaya nepolnota smisla takogo zagolovka prizvana zainteresovat` ili daje zainteresovat` chitatelya kotoroy vinujden oznokomitsya s sootvetstvuyushim tekstem, shtoby izvlech iz nego nedostayushuyu informatsiyu.»<sup>1</sup>

Hozirgi davrda olimlarning deyarli ko`pchiligi so`z birikmasi masalasiga sintaktik nuqtai nazardan yondoshish uning tabiatiga bir muncha tog`ri kelishini ta`kidlamoqdalar. Biz ham uz ishimizda so`z birikmasiga sintaktik jihatdan yondashish ma`qul deb hisoblaymiz, chunki bu hol so`z birikmasini nutq protsessida situatsiya bilan bog`lab o`rganishda ancha qulayliklar tug`diradi.

2. Qanday birikmalarni so`z birikmasi hisoblash mumkin?. Bu masalada ham olimlar o`rtasida birlik korinmaydi. Ayrim olimlar sintaksisning ob`ekti so`z birikmasi deb hisoblaydi, gapni ham so`z birikmalarining biri deb talqin qiladi.<sup>2</sup> Boshqa bir avtorlar bu masalaga gap bo`laklarining sintaktik funktsiyasi nuqtai nazardan yondoshadilar va predikativ birikmalarni ham so`z birikmasi hisoblaydilar. Ular aniqlovchili, to`ldiruvchili, xolli nopredikativ birikmalarni ajratadi.<sup>3</sup> Uchinchi gruppada olimlar predikativ birikmani so`z birikmasi sanamaydilar. Ular o`zaro tobelanish aloqasida bog`langan nopredikativ birikmalarnigina so`z birikmasi qatoriga kiritadilar.<sup>4</sup> Biz ot birikmalarning ilmiy va badiiy uslublardagi qo`llanilishi xususiyatlarini tadqiq qilishda keyingi olimlar fikriga kushilamiz.

3. So`z birikmasining tarkibi masalasidir. Ayrim olimlar mustaqil va yordamchi so`zning o`zaro birikishini so`z birikmasi hisoblasa,<sup>5</sup> boshqalari ikki mustaqil so`zning grammatik aloqaga kirishi so`z birikmasini hosil qilishini

---

<sup>1</sup> Tulina T.A. Funktsional`naya tipologiya slovosochetaniy. Izd-vo «Visshaya shkola», Kiev-Odessa, 1976, str.19.

<sup>2</sup> Peshkovskiy A.M. Kursatilgan asar, s.37.

<sup>3</sup> Peshkovskiy A.M. Kursatilgan asar, s. 65-69, Suxotin V.P. Kursatilgan asar, s.162.

<sup>4</sup> Balakaev M.B. Kursatilgan asar, s.20., Seidov Yu.M. Slovosochetanie v azerbayjanskom yazike.

Avtoref.diss.filol. nauk Baku. 1965, s 37., Prokopovich N.N. Kursatilgan asar, s.52., Filicheva N.I. O slovosochetaniyax v sovremennom nemetskom yazike. M., 1969, s.71.

<sup>5</sup> Dmitrev N.K. Gramatika bashkirskogo yazika. M-L, 1948, s.203.

aytadilar.<sup>1</sup> Akad. V.V.Vinogradov esa soʻz birikmasini predmet, harakat va hokazolarni ifodalash qobilyatiga ega bolgan: yagona murakkab maʼnolarni ifodalaydigan: sintaktik jihatdan tashkil topgan va sematik jihatdan bir butun hisoblangan ikki mustaqil soʻzning oʻzaro birikuvidir deb masalaga aniqlik kiritadi.<sup>2</sup> Hozirgi davrda soʻz birikmalarining ikki mustaqil soʻzdan tashkil topishi soʻz birikmalarining formal shakllanishida asosiy kriteriy ekanligini tilshunoslar tan oladilar.

Oʻzbek tilshunosligida soʻz birikmalarining oʻrganilishi va ularning grammatik tabiati haqida. Turkologiyada ot soʻz birikmalari har xil aspektda oʻrganilgan. Chunonchi prof. A.G.Gulomov oʻzining « Oʻzbek tilida aniqlovchilar»<sup>3</sup>, nomli ishida gap boʻlaklaridan aniqlovchilarning grammatik tabiati va strukturasi mufassal analiz qiladi. Unda berilgan misollarning hammasi aniqlovchi tarzida analiz qilinsa ham aslida ular soʻz birikmalaridir va hokim soʻzi bilan birga olingan aniqlovchilarning tiplari, morfologik ifodalanishi, grammatik aloqasiga atroflicha oʻrin berilgan. G.Achilov esa turkman tili materiallari asosida aniqlovchi va aniqlovchili soʻz birikmalarini mahsus tekshiradi. Aniqlovchili soʻz birikmalarining har xil tiplarini grammatik planda analiz qiladi.<sup>4</sup> Bunday tadqiqot ozarboyjon tilida G.Aliyev tomonidan ham amalga oshirilgan.<sup>5</sup>

Prof. N.A.Baskakov oʻzining « Qoraqalpoq tilida soʻz birikmalarining tiplari»<sup>6</sup>, nomli ishida ot soʻz birikmalarining tiplari, uning komponentlari orasidagi grammatik aloqaning xususiyatlariga toʻxtaladi va komponentlarining oʻzaro semantik munosabatiga alohida ahamiyat beradi. X.Xoliyarov va Dj. Andabekovalarning kandidatlik dissertatsiyalarida ot Soʻz birikmalari umumiy planda oʻrganilib, ularning grammatik tabiati, birikish yoʻllari, komponentlarining

---

<sup>1</sup> Zakieva M.Z. Sintakticheskiy stroy tatarskogo yazika. Kazan, 19863. s.10.

<sup>2</sup> Vinogradov V.V. Voprosi izucheniya slovosachetaniya. VYa, 1954. s. 106.

<sup>3</sup> Gulomov A.G. Oʻzbek tilida aniklovchilar. T., 1941.

<sup>4</sup> Achilov G. Opredelenie i opredelitel`nie slovosochetanie v sovremennom turkmenskom yazike. Aftoref.diss.kand. filolog.nauk. Ashxabad, 1950.

<sup>5</sup> Aliev G.S. Opredelenie v sovremennom azerbaydjanskom yazike. Aftoref.diss. kand. nauk.Baku.,1950.

<sup>6</sup> Baskakov N.A. Kursatilgan asar, VYa, 1956, №6.

morfoloqik ifodalanish yollari va ba`zi bir semantik jihatlariga diqqat qilinadi.<sup>1</sup> Keyinchalik ot So`z birikmalariga A.S.Safayevning<sup>2</sup>, F.A.Abdullayevning<sup>3</sup>, M.K.Sharipovning<sup>4</sup> asarlarida ham yetarlicha urin berilgan. A.N.Baskakovning «Slovochetanie v sovremennom turetskom yazike» nomli asarida esa atributiv So`z birikmalari qatorida alohida o`rganilgan. Bunda avtor so`z birikmalarini faqat struktura nuqtai nazaridan o`rganib ularning tiplarini keng planda analiz qilgan. Muallif fikricha, bu struktural tiplar turkiy tillarning barchasida uchraydi va ularni konkret tillar materiallariga tatbiq qilish mumkin.<sup>5</sup>

Korinadiki, yuqoridagi ishlarda atributiv so`z birikmalarining grammatik xususiyatlari haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Ularda mazkur birikmalarining tuzilishi, tiplari va komponentlarining o`zaro aloqasi haqida atroflicha ma`lumot beriladi.

Ma`lumki, har bir tilda so`zlarning o`zaro birikishi o`zining alohida spetsifik xususiyatiga ega. Shunga mos har bir tilda so`z birikmalarining tuzilish uslublari, strukturalari har xildir. O`zbek tilining sintaktik sistemasida turli-tuman so`z birikmalari mavjud. Ular so`z birikmasi komponentlarining o`zaro sintaktik aloqasiga, xokim komponentining qaysi so`z turkumidan ifodalanganligiga, funktsional xarakteriga va sostaviga kura bir-biridan tubdan farq qiladi. Ot so`z birikmalari ham so`z birikmalari sistemasida o`ziga xos harakterli belgilari bilan ajralib turadi. Ular ikki yoki undan ortiq so`zlarning o`zaro atributiv munosabatda birikishi natijasida hosil bo`lgan birikmalardir. A.M.Goderning aytganidek.<sup>6</sup>

Ot birikmalarining hokim komponenti doim otlar bilan ifodalanadi. Tobe komponent hokim komponentning belgisi, rangi, soni, harakteri, xususiyati va xokazolar nuqtai nazardan konkretlashtiradi. Ularda birikmaning grammatik va

---

<sup>1</sup> Xoliyarov X. Imennnie slovochetaniya v sovremennom O`zbekskom yazike. Aftoref. Diss.kand.filolog.nauk. Samarqand., 1966, Andabekova Dj. Imennnie slovochetaniya s opornim slovom virajennim imenem sumestitel`nim. Aftoref.diss.kand.filolog. Frunze., 1974.

<sup>2</sup> Safaev A.S. Kursatilgan asar.

<sup>3</sup> Abdullaev F.A. Kursatilgan asar.

<sup>4</sup> Sharipov M.K. Kursatilgan asar.

<sup>5</sup> Baskakov A.I. Kursatilgan asar.

<sup>6</sup> Goder A.M. O logicheskoy strukture ponyatiya virajennogo slovochetaniem. V kn.: Logiko-grammaticheskie ocherki. Izd-vo «Visshaya shkola». M., 1961. s.50.

semantik markazi hokim bo`lak hisoblanadi. Belgi bildiruvchi tobe komponent birikmaning grammatik aloqasini ko`rsatib turuvchi va hokim so`zda ifodalangan semantik mazmunning konkretlashtiruvchisi sifatida yuzaga chiquvchi bolakdir. Shuning uchun ham uning orni doim belgilangan bolib perepozitiv holatdadir. Bu tartib turkiy tillar, o`zbek tili uchun qat`iydir. Tartibning o`zgarishi birikmaning funksional hakterining o`zgarishiga olib keladi.

Ot birikmalar komponentlari har xil formada birikadilar. Ikki komponentli sodda ot birikmalari xech qanday formal kursatkichsiz so`z tarkibi va intonatsiya yordamida bitishuv formasida aloqaga kirishadi. Bunday holatni barcha tipdagi ot birikmalariga qollab bulmaydi. Xususan, murakkab tipdagi atributiv birikmalar komponentlari orasidagi bog`lanish sintaktik aloqaning uch holatida /moslashuv, boshqaruv, bitishuv amalga oshiriladi.

Sof ot birikmalarda faqat predmetning belgisi bildiriladi. Ularda qarashlilik, tegishlik ma`nolari ifodalanmaydi. Bu jihatdan ular moslashuv formasida aloqaga kirishadigan qaratqich aniqlovchilar birikmalardan ham farq qiladi.

Ma`lumki, inson tafakkurining ikki formasi konkretlashtirish (differentsiyatsiya) va umumlashtirish (integratsiya) protsesslari tilda ikki xil sintaktik aloqa natijasida amalga oshiriladi. Bu atributiv va predikatsiyadir. Atributiv va predikativ aloqalar mazmun mohiyati bilan ham, formal grammatik jihatdan ham bir-biridan keskin farqlanadi. Atributiv aloqada konkretlashtirish yuzaga chiqadigan bo`lsa, predikatsiyada abstraktsiya asosiy o`rinni egallaydi. Bu nuqtai nazardan atributiv va predikativ munosabatlar bir-biriga diametral ravishda qarama-qarshidir. Buni e`tiborga olgan holda ayrim olimlar atributiv munosabatni aniqlashning asosiy printsiplaridan biri uni predikativ aloqaga transformatsiya qilishdir deb ta`kidlaydi.<sup>1</sup>

Bu printsiptni sodda atributiv birikmalarga tadbiq qilish mumkin. Ularni predikativ aloqaga transformatsiya qilish birikmaning harakterini butunlay

---

<sup>1</sup> Ignatov B.F. Printsipi videlenie atributivnix otnosheniy v sovremmenom russkom yazike. Aftoref.diss. kand. filolog. Nauk. Saratov, 1964. s.7.

o`zgartiradi. Misol: qum kuk, o`qigan bola-bola o`qigan, 5 ta daftar-daftar 5 ta kabilar. Ammo bu printsip bilan murakkab ot birikmalarini aniqlash mumkin emas, ulardagi munosabat ancha murakkab bo`lib, ularni bu yo`l bilan aniqlab bo`lmaydi.

Ot birikmada konkretlashtirish aniq sodir boladi. Ularda boshqa birikmalarga nisbatan bir tushunchaning ikkinchi tushunchaga munosabati yorqin namoyon boladiki, bu holat ularning nutqda alohida funktsional xizmati borlig`ida ko`rinadi. A.K.Dmitriyev aniqlovchi-aniqlanmish haqida gapirib... liniya «opredelenie-opredelyaemoe» vseгда yavlyaetsya liniey slovosochetaniya. Opredelenie mojet bit` pri lyubom chlene predlojenie, podleжaщem, skazeumom, dopolneniem i ob`stoyael`stve i poetomu mesto opredelenie v fraze zavisit ot togo, gde stoit ego opredelyaemoe» degan edi.

Shunday qilib, ot so`z birikmalari sintaktik tobelanish asosida ikki yoki undan ortiq so`zlarning o`zaro atributiv munosabati asosida birikishi natijasida hosil bo`lgan va semantik jihatdan bir butun hisoblangan otli so`z birikmalaridir. Ular ham so`z birikmalari kabi tuzilishga ko`ra sodda va murakkab turlarga bo`linadi.

## **I Bob. XX asrda boshqaruv asosida tuzilgan soʻz birikmalar taraqqiyoti masalalari. Kelishikli boshqaruv asosida hosil boʻladigan soʻz birikmalar.**

### **1.1 Tushim kelishikli birikmalar**

Soʻz birikmalari taraqqiyotini tasvirlashda material dastlab sintaktik aloqa tiplari-boshqaruv, moslashuv, bitishuv aloqalari asosida hosil qilingan birikma tiplari boʻyicha tasnif qilindi. Soʻngra sintaktik aloqani taʼminlovchi grammatik vosita turlariga koʻra birikmaning kelishikli va koʻmakchili boshqaruv asosida hosil qilingan turlari ajratildi, bular oʻz navbatida ifodalangan sintaktik munosabat tipiga koʻra obʼektli, holli birikmalarga ajratib oʻrganildi.

Soʻz birikmasi grammatik jihatdan hokim boʻlgan soʻzning qaysi turkumga mansubligiga koʻra feʼl yoki ot (keng maʼnoda) boshqaruvli turlarga ajratiladi. Toʻplangan faktik material soʻz birikmasi taraqqiyotida sodir boʻlgan oʻzgarishlar asosan feʼl boshqaruvli (qisqacha: feʼlli) birikmalar bilan bogʻliq ekanini koʻrsatadi.

Grammatik jihatdan hokim boʻlgan feʼl oʻz semantik xususiyatiga koʻra tushum kelishigini va makon (lokal) kelishiklari boʻlgan joʻnalish, chiqish, oʻrin kelishiklari formasida boʻlgan soʻzlarni boshqarib, obʼekt va hol maʼnoli birikmalar hosil qiladi.

Tushim kelishikli birikmalar boshqaruv formalari orasida, shubhasiz, kelishikli boshqaruv eng koʻp tarqalgandir. Bular orasida ayniqsa tushum kelishikli boshqaruv asosida hosil qilingan konstruktsiyalar katta oʻrin egallaydi.

Tushum formasini boshqaruvchi feʼllar oʻtimli feʼllar boʻlib, ular uchun xarakterli boʻlgan birikuvchanlik modellarini aniqlash oʻzbek tilshunosligi va umuman turkiyshunoslik uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu masalaning hal qilinishida birikmaning ham formal-grammatik, ham sintaktik belgilaridan kelib chiqmoq kerak boʻladi. Bu

esa o`z navbatida faqat birikma komponentlarini o`zaro bog`lab turuvchi formal vositalarnigina emas, komponentlarning leksik-semantik xususiyatlarini ham belgilashni — hokim va tobe komponent vazifasidagi fe`l, ot (keng ma`noda)ning semantik xususiyatlarini — ularning qaysi semantik gruppaga mansubligini o`rganishni taqozo etadi.

O`timli fe`llar vositasida hosil qilingan ob`ektli birikmalar quyidagicha o`zgarishlarga uchragani aniqlandi: 1. Birikma modelning leksik to`ldirg`ichlaridan biri—hokim komponent—fe`l leksema semantik jihatdan arxaiklashgan bo`lib, hozirgi tilda ularning semantik ekvivalenti bo`lgan fe`llar qo`llanadi. Fe`l semantikasining o`zgarishi uning birikuvchaligiga chuqur ta`sir ko`rsatishini tadqiqotchilar qayd etganlar<sup>1</sup>. Bunday semantik arxaizm razryadiga o`tgan va shu sababli ob`ekt ma`noli fe`l birikmalar hosil qilishda hozirgi kunda mutlaqo ishtirok etmaydigan yoki cheklangan darajada ishtirok etadigan o`timli fe`llar quyidagilar (qavsdan ma`nosi arxaiklashgan fe`llarga ekvivalent ma`noli fe`llar keltiriladi): *maydonga keltirmoq (amalga oshirmoq), bitirmoq (yakunlamoq), o`rtaga solmoq (o`rtaga qo`ymoq), amalga qo`ymoq. (amalga oshirmoq), arz qilmoq (ma`lum qilmoq), tug`dirmoq (yaratmoq), tug`dirmoq (amalga oshirmoq), bitirmoq (tugatmoq), ishlamaslik (yaramaslik, natija bermaslik), ta`qib etmoq (qo`llamoq), ta`qib etmoq (amalga oshirmoq), ta`qib etmoq (kuzatmoq), anglatmoq (tushuntirmoq), ishlamoq (amalga oshirmoq), saqlamoq (muhofaza qilmoq), bajarmoq (bartaraf qilmoq), ayirmoq (ajratmoq), tutmoq (ishlatmoq, qo`llamoq), yuzaga chiqarmoq (o`rnatmoq), yuzaga chiqarmoq (amalga oshirmoq), qo`shmoq (xisobga olmoq), uxdasiga olmoq (zimmasiga, ixtiyoriga olmoq), bitirmoq (bajarmoq), anglatmoq (tushuntirmoq), borliqqa chiqarmoq (yuzaga chiqarmoq, amalga oshirmoq), tortmoq (chizmoq), yurimoq (amalga oshirmoq), to`ldirmoq (qondirmoq), siqishtirmoq (kiritmoq), barobar qilmoq (tenglashtirmoq),*

---

<sup>1</sup> O`zbek tili grammatikasi. II. Toshkent. 1974., G`ulomov A. O`zbek tilida urg`u. Toshkent. 1947.

*tayin etmoq (aniqlamoq), tutmoq (topmoq), tutmoq (egallamoq) shatmoq (ishlovini keltirmoq), o`rinlaigdirmoq, (tarqatmoq), kechirmoq (tarqatmoq), kechirmoq (o`tmog), yasamoq (amalga oshirmoq), taraqqiylashdirmoq (rivojlantirmoq), chet ko`rmoq (yotsiramoq), tanimoq (bilmoq) kabilar.*

Boshqaruvchi funktsiyada qo`llangan bu fe`llarning semantikasiga e`tibor berilsa, ularning ba`zilari semantik jihatdan hozirgi kunda ularga ekvivalent ma`noli fe`llardan mutlaqo uzoqlashib ketganini, ko`rish mumkin: o`xshatmoq (ishlovini keltirmoq), chet ko`rmoq (yotsiramoq), tutmoq (topmoq), ta`qib etmoq (qo`llamoq), to`ldirmoq (qondirmoq), arz qilmoq (ma`lum qilmoq, bayon qilmoq), bajarmoq (bartaraf qilmoq) va boshqa ko`p fe`llar shunday xarakterga ega. Misollar: *Lekin kelgusidagi hayotiyot ilmining kuchlik va asoslik tajribalari bu kamchilikni yuz foiz bajarg`usidir (M. va o`.)*. Ko`rinadiki, bajarmoq fe`li hozirgi kunda bu kontekstda anglatgan «*bartaraf qilmoq*» ma`nosini anglatmaydi. Bu fe`l ma`nosida sodir bo`lgan differentsiatsiya uning hozirgi tilda *kamchilik* so`zi bilan emas amalga oshirilishi kerak bo`lgan hodisalarni anglatuvchi so`zlar bilan birikishini norma holatiga keltirgan: *planni bajarmoq*, va`dani *bajarmoq* kabilar. Ba`zi fe`llarga xos bo`lgan ko`p ma`nolilik davr o`tishi bilan yo`qolib boradi. Monosemantik xarakter kasb etgan bunday fe`llar o`z semantik evolyutsiyasining so`nggi davri—hozirgi paytda avvalgi davrlardagi birikuvchanlik xususiyatlarining ba`zi birlarini yo`qotib, ob`ekt ma`nosini anglatuvchi birikma hosil qiladi. Masalan, *ta`qib qilmoq* fe`li hozirgi davrda «qo`llamoq» ma`nosini yo`qotgan. Bu fe`l hozirgi tilda 1) diqqat bilan kuzatmoq, 2) zimdan ko`z-quloq bo`lib kuzatmoq, 3) turtkilamoq, 4) iziga, payiga tushmoq ma`nolarini anglatadi<sup>1</sup> va shunga mos ravishda muayyan ma`noli so`zlar bilan birikma hosil qiladi. Misollarni

---

<sup>1</sup> Abdullaeva F., Ibrohimova F. So`z birikmasi sintaksisining rivojlanish masalalari// O`zbek tili va adabiyoti. 1972. №2.

qiyoslaylik: *Surxon viloyatining Sherobod shahridagi muallimlar ham bu usulni ta`qib etmakdalar* (M. va o`.). *O`qitishda muvaffaq bo`lish uchun bu yo`lni tamoman tashlab buning butunlay aksinitagqibetish kerak* (M. va o`.).

Bu misollarda *ta`qib qilmoq* fe`li «qo`llamoq» ma`nosida ishlatilgan va shu ma`no taqozosi bilan *usul, aks* so`zlari bilan birikma hosil qilgan. Yuqorida bu fe`l hozirgi o`zbek tilida to`rt xil ma`no anglatishi aytilgan edi. Bu ma`nolarning birortasida ham u *usul, aks* so`zlari bilan birika olmagan bo`lur edi.

20—30-yillarda bu fe`l *diqqat bilan kuzatmoq* ma`nosida ham ishlatilgan. Bu ma`noda u kuzatiluvchi ob`ektни anglatuvchi so`z bilan to`g`ri ob`ekt ma`noli birikma hosil qiladi: *Muallim planni chiza boshlar, bolalar maroqlanib, qiziqib u n i t a ` q i b e t a r l a r* (M. va o`.). Biroh hozirgi adabiy til normasi nuqtai nazaridan yuqoridagi tipdagi mazmuni anglatuvchi konstruktsiyalarda *dars, plan, fikr, o`yin* kabi so`zlar bilan *kuzatmoq* fe`li birikadi:

Hozirgi tilda *tutmoq* fe`li *ayb* so`zi bilan deyarli birikma hosil qilmaydi. U asosan *mavqe* so`zi bilan, qo`llanadi: *Oyshaxon oilada erkakcha mavqe tutar, oilaning «jilovi» uning qo`lida edi* (Sh. Xolmirzaev).

Til faktlari bu so`zning *mavqe* so`zi bilan qo`llanishi ancha stabil xarakter kasb etgandagini ko`rsatadi. 20—30-yillarda ham bunday qo`llanish aktiv bo`lganligi bu fikrni tasdiqlaydi: *Bolalarga mafkurani singdirish yo`lida bayramlar katta bir m a v q e n i t u t a d i l a r shuning uchun bayramlarga bolalarning o`zlari kirishib, o`z tashabbuslari bilan amaliy suratda ishtirok etadilar* (M. va o`.).

Bu fe`lning qo`llamoq ma`nosida ob`ektни boshqarish faktlari ham uchraydi: *bundan buyoq qanday u s u l l a r t u t m o q kerakligi to`g`risida so`ylab o`tishi foydasiz bo`lmas* (M. va o`.).

O`xshatmoq fe`li er so`zi bilan birikib, «*yerga yaxshilab ishlov berish*», «*tobiga keltirib ishlov berish*» ma`nolarini anglatadi: 1924—25-yilda butun erning 5,44 % mashinalar bilan ishlansa, 1925—26-yilda butun yerning 10,98% mashinalar bilan ishlandi. Demak, yildan-yilga mashina qurollari ila yer n i o` x s h a t i s h orta boradir (M. va o`.). Bu fe`lning aytilgan ma`noda yer so`zi bilan to`g`ri ob`ekt ma`noli birikma hosil qilishi hozirgi adabiy tilda uchramaydi.

Tushum formasidagi so`z bilan birikuvchi *chet ko`rmoq, ishlamoq, arz qilmoq, yuritmoq* kabi so`zlar hozirgi tilda kuzatilmaydigan ma`nolari bilan iste`moldan chiqqan ob`ekli birikmalar hosil qilgan. Misollar: *Ishni shunday qilib bilib borish kerakkim, dehqonlar maktabni chet ko`rmasdan, balki unga ishonch ko`zi bilan qarab maslahat uchun unga yo`liqib turadig`on bo`lsinlar* (M. va o`.). *Chet ko`rmoq* fe`lining *yotsiramoq* ma`no ifodalashi hozir kuzatilmaydi, shuning uchun uning ishtirokida yuqoridagi ma`noli birikma hosil qilinmaydi.

*Ishlamoq* polisemantik fe`li *narsa* so`zi bilan aloqaga kirishib, *natija bermoq* ma`nosini anglatuvchi birikma yasagan: *Bunday berilaturgan dars qancha yaxshi onglatilg`on bo`lsa-bo`lsun, zehnni qo`ltuqda olib yurishdan boshqo b i r n a r s a i s h l a m o q* (M. va o`.), Xozirgi o`zbek adabiy tilida bu fe`l ko`rsatilgan tipdagi birikmalar yasamaydi. Bu fe`l «bajarmoq», «amalga oshirmoq» ma`nolarida ham qo`llangan bo`lib, hozirgi tilda mutlaqo bu ma`nosida birikma hosil qilmaydi. *Buni kim ishla di? Qishloq o`qitg`uchilari* (M. va o`.).

*Arz qilmoq* fe`li *-gan* formali sifatdosh bilan birikib, «*bayon qilmoq*», «*ma`lum qilmoq*» ma`nolarini anglatadi va ob`ekli birikma hosil qiladi: *Bir-ikki soatdan keyin Antonoz kelib, sobiq vazirlarning Petr Pavlovskiy qal`asiga o`rnoshdirg`on-liklarini arz qil d i* (M. va o`.).

Bu fe`l hozirgi tilda «*shikoyat qilmoq*» ma`nosini anglatadi va, tabiiy, shu ma`nosini to`ldiruvchi kimdan? kimga? so`roqlariga javob bo`luvchi bo`lak bilan birikib keladi, Ko`rinadiki, fe`l semantikasiga bog`liq ravishda uning ham leksik, ham sintaktik birikuvchanligi o`zgaradi. Masalan: *Tsex masteri tartibbuzar ishchi ustidan mestkomga arz qildi.*

*Saqlamoq* fe`li *mehnat* so`zi bilan birikib, muhofaza qilmoq» ma`nosini reallashtirgan:

Hozir *mehnatni muhofaza qilmoq* birikmasi amalda bo`lib, *mehnatni saqlamoq* bu funktsiyada butunlay iste`moldan chiqqan. *Mehnatni muhofaza qilmoq* tushunchasi sovet davrida sodir bo`lgan sotsial hodisalardan birini aks ettiruvchi tushunchadir. Yangi tushuncha ifodalash uchun *saqlamoq* fe`lidan foydalanilgan. Biroq tilning keyingi taraqqiyoti jarayonida bu fe`l ma`nosidagi *muhofaza qilmoq* semasining turg`unlashib qola olmagan sababli bu fe`l ishtirokida yasalgan birikma mustaqil leksik birlik — *muhofaza qilmoq* fe`li vositasida yasalgan turi bilan siqib chiqarildi.

Bitirmoq *fe`li* tugatmoq *ma`nosida juda keng qo`llangan*: Ikkinchi ishimiz, ikkinchi muxorabamiz bizni har tomondan chulg`ab olg`on eng qiyin va eng nozik bir ish — xalq nodonlig`ini bitirishdir (*M. va o`.*). Minglab oqcholar sarf etib savodsizliqni bitirmakdadir (*M. va o`.*). O`zbek tilining xozirgi taraqqiyot bosqichida bu ma`noda qo`llash nisbatan cheklangan. Bu fe`l 20—30-yillarda «yakunlamoq» ma`nosida ham qo`llanib, ob`ektli birikmalar hosil qilgan.

*Tanimoq* fe`li «bilmoq», «tushunmoq», mohiyatini yanglamoq ma`nosida geografik tushuncha anglatuvchi so`z bilan birikib, ob`ektli birikma hosil qilish hollari hozirgi o`zbek adabiy tnliga xos emas. 20—30- yillarda esa bunday qo`llash normal hodisa bo`lgan. Hozirgi adabiy tilda bu fe`l faqat odam, el, yo`l, ot, pichoq va shu kabi jonli va jonsiz predmetlarni anglatuvchi otlar bilangina birikib ob`ektli birikma hosil

qila oladi: *Jo`ra boshqa otlarga bir zum ko`z tashlab*, «Agar ot tanisang risoladagi saman-ku», — dedi (Q. q.). — *Bolam, qoqilmay yashay desang, esing borida odamtani* (Ertak). Ko`rinadiki, fe`l semantikasida sodir bo`lgan o`zgarish uning birikuvchanlik xarakteriga ta`sir qilib, uni cheklagan. Faqat ma`lum semantikali ot bilan qo`llanib, birikma hosil qilishni taqozo etadigan bo`lib qolgan.

*Qo`shmoq, o`lchalyuq* fe`llari harakat nomi formasidagi muayyan bir semantikali fe`llarni boshqarganda «qiyoslamoq», «baholamoq» ma`nolarini kasb etadi: *Pushkinning hayotga qarashi bilai bizning bu kungi hayotga qarashimizni qo`shingiz va o`lchangiz* (M. va o`.). Hozirgi kunda bu fe`llar qayd etilgan ma`nolarda ob`ektli birikmalar hosil qilmaydi.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida yuqoridagi mazmunli birikma chiqish kelishigi formasini boshqaruvchi *o`tmoq* fe`li vositasida yasaladi: *Qiyoslang: o`qish yoshini kechirgan — o`qish yoshidan o`tgan.*

*Uhdasiga olmoq* fe`li «*zimmasiga olmoq*» ma`nosida harakat nomini boshqargan. Bu ma`noda qo`llanib, ob`ektli birikma hosil qilishi hozirgi kunda barham topgan: *Bularni moddiy yoqdan ta`min qilishni Totoriston hukumati o`z o`hdasiga oldi* (M. va o`.).

*Yuzaga chiqarmoq* fe`li «*amalga oshirmoq*» ma`nosida qo`llanib, otni boshqaradi va ob`ektli birikma hosil qiladi. Bu fe`l hozirgi davrda yuqorida ko`rsatilgan ma`nosida qo`llanmaganligi sababli ob`ektli birikma ham hosil qilmaydi: *Emdi oldingizda turg`on buyuk va og`ir bir masala bo`lsa, u ham qurultoyning qog`oz ustida chiqorg`on o`sha muhim qarorini ayrum jumhuriyatlarda yuzaga chiqarishdir* (M. va o`.). Bu fe`l *o`rnatmoq* ma`nosida ham qo`llangani aniqlandi.

«*Amalga oshirmoq*» ma`nosida borliqqa *chiqarmoq* fe`li ham qo`llangan. Bu fe`l hozirgi davrda bu ma`noda mutlaqo ishlatilmaydi.

*Ko`z so`zi bilan birikib, ob`ektli birikishi hosil qilgan uzmoq fe`li qaratmoq ma`nosida qo`llangan. Bu fe`l hozirgi davrda bu ma`noda mutlaqo ishlatilmaydi: Hatto itning ismini aytib chaqirilganda it chaqirig`on tomong`o ko`zini uzgan. Shu holda itning boshi 15 kunlab tirik holatda qolg`on (M. Va o`).*

## 1.2 Jo`nalish kelishikli birikmalar.

Jo`nalish kelishikli birikmalar o`zbek tilining so`z birikmalari sistemasida jo`nalish kelishikli konstruktsiyalar juda salmoqli va muhim o`rin egallaydi. Bu hol jo`nalish kelishigining real borliqda mavjud bo`lgan shaxs, predmet, hodisalar bilan harakat-holatlar orasidagi turli xil munosabatlarni ifodalashga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Turkiy tillarda jo`nalish kelishigining funksiyasini tekshirgan tadqiqotchilar bu kelishikning makon, sabab, maqsad, vositali ob`ekt munosabatlarini ifodalashini qayd etadilar.

Hozirgi o`zbek adabiy tilida jo`nalish kelishigi o`zining polifunksionalligi bilan xarakterlanadi. Poliifunksionallik jo`nalish formasining turli semantik gruppaga oid otlar yoki fs`lning sifatdash, harakat nomi kabi funksional formalariga qo`shilib, xilma-xil simtaktik munosabat ifodalash xususiyatidir. Til materialini kuzatish bu forma vositasida yasalgan ba`zi birikmalar dastlabki bosqichlarida hozirgi davrdagi jo`nalish kelishikli birikmalar ifodalagan sintaktik munosabatlardan farqli bo`lgan munosabatlarni ifodalaganini, aniqrog`i, jo`nalish kelishigining sintaktik munosabat ifodalashdagi diapazoni kengroq bo`lganini ko`rsatadi.

Shuni ta`kidlash lozimki, so`z birikmasi struktur-semantik tiplarining hosil qilinishini belgilab beruvchi qator omillar bu taraqqiyot davrida o`z ta`sirini o`tkazmay qolmadi. Til sistemasidagi, shu jumladan bu sistemaning ajralmas tarkibiy qismi bo`lgan so`z birikmasi sistemasidagi sodir bo`lgan evolyutsiya mana shu omillar bilan belgilanadi.

Jo`nalish kelishikli konstruktsiyalar taraqqiyotini o`rganish bu jarayon asosida ichki lingvistik va ekstra-lingvistik omillar yotishini

ko`rsatdi. Masalan, muayyan tip konstruktsiyalarni shakllantiruvchi leksik elementlarning, ya`ni ularning hokim va tobe komponenti vazifasida qo`llanuvchi ot (keng ma`noda) va fe`lning semantik xususiyatiga ko`ra tanlanishi, maqbul ma`noli leksik elementlarning saqlanib qolishi, nomaqbullarining iste`moldan chiqib borishi ichki lingvistik omil ta`siri bilan izohlanadi. Bunda birinchi navbatda, hokim va tobe komponent semantikasida sodir bo`lgan o`zgarishlarni va ularning qo`llanishi, ma`no va funktsiyasi jihatdan hozirgi mavjud leksik-grammatik normaga qanchalik mos kelishi yoki mos kelmasligini ko`rsatish taqoza etadi. Bu keng ko`lamli masala bo`lib, bunda fe`l o`z semantik xususiyatini o`zgartirmagan holda boshqaruv formasini o`zgartirishi hollari (*qo`shinig`o g`alaba qilmoq, yigitga qizg`anmoq* kabilar), o`sha davrda hozirgi adabiy tilda ifodalangan ma`nosidan boshqa ma`noni ifodalagan, hozirgi kunda semantik jihatdan arxaiklashgan fe`llar vositasida yasalishi hollari (*oldig`o bir vazifa kelib to`xtadi, kuchlariga yo`nalimiz, er egalariga qarshi boshlamoq* kabi) tasvirlanadi. Bundan tashqari, qadimgi turkiy tilga xos bo`lgan norma ta`sirida kelishik formasining hozirgi formasi *-ga* o`rnida *-a* formasining qo`llanishi, boshqaruvchi qo`shma fe`lni yasovchi komponentlardan birining boshqa leksik birlik bilan ifodalanishi (*humindonchilarga dahshat bermoq, hukumatga zarar bermoq* kabi), tobe so`zning hozirgi adabiy tildagidan boshqa leksik birlik bilan (*o`z uhdasiga olmoq, borliqqa chiqarmoq* kabi) ifodalanishi va shu kabi masalalarning ham o`rganilishi taqoza etiladi.

Tildagi mavjud ba`zi hodisalar ekstralingvistik faktor — tashqi ta`sir natijasi sifatida izohlanishi mumkin. O`zbek tilining taraqqiyoti protsessida *Bu* holatni konkret ravishda taraqqiyotining dastlabki etaplari tatar tili ta`siring natijasi sifatida baholash mumkin.

Yuqorida eslatilgan va boshqa ba`zi omillarning jo`nalish kelishikli birikmalar taraqqiyoti va evolyutsiyasida tutgan o`rni haqida to`xtab o`tamiz.

Jo`nalish kelishikli birikmaning boshqa kelishikli birikmalarga funktsiyadosh qo`llanishi. Bir kelishik funktsiyasida boshqa kelishikning qo`llanishi XV asr yozma yodgorliklarida ham uchraydigan hodisa ekanligi ilmiy adabiyotda qayd etilgan<sup>1</sup>. Taraqqiyotning dastlabki etaplarida kelishiklarning hozirgi o`zbek adabiy tili normasi nuqtai nazaridan nomaqbul bo`lgan ba`zi bir qo`llanishlari XV asr va undan keyingi adabiy til normasiga mos kelgan qo`llanishlar bo`lib, o`sha davrlardan keyingi davr tiliga o`tgan «meros», «qoldiq» normalarning ko`rinishidir.

Kelishiklar almashuvidagi ba`zi hodisalarni esa bu kriteriya asosida izohlab bo`lmaydi. Ularning qanday sabablar bilan sodir bo`lgani alohida izoh talab qiladadi.

Jo`nalish kelishikli birikmaning bosh kelishik birikmaga funktsiyadosh qo`llanishi. 20—30-yillar materiallarini o`rganish *demoq*, *aytmoq* fe`llarining mashhul daraja formasi jo`nalish formasidagi so`zni boshqarganini ko`rsatadi: *Eski turklarning yozgi avqoti qattiq, sut (oq) bo`ladir. No`yabr oyida sigirlar sutdan qolib, oq tugaydi va qozon osila boshlaydilar. Qozon oshi kirish munosabati bilan no`yabr oyig`a “qozon” deyiladir (M va o`).* *Dekabr` oyida qattiq sovuq bo`lib, odam ko`p yurmay hayvonlarnida qo`lda ediradir. Dalaning cho`blaridan qongtoriladir. Shul munosabat bilan dekabr` oyig`o “qongtor” deyiladir (M. va o`).* *Yanvar` oyida qor yog`ib butun erda qora er qolmasdan oqarib ketadir. Shu munosabat bilan yanvar` oyig`o “oqpon” deyiladir (M. va o`).*

---

<sup>1</sup> Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis. Toshkent. 1973

Hozirgi adabiy tilda *demoq* fe`lining majhul formasi yuqoridagi tipli konstruktsiyalarda jo`nalish formasidagi so`z bilan emas, bosh kelishik formasidagi so`z bilan birikib, predikativ modeldagi konstruktsiya hosil qiladi. Hosil qilingan konstruktsiya bu holda grammatik norma talabiga to`la javob beradi –ega bosh kelishik formasida shakllanadi. Misol keltiramiz: Predmetning doimiy belgisini ifodalaydigan so`zlar sifat deyiladi.<sup>1</sup> Otning kelishik affiksini olib o`zgarishi turlanish deyiladi.

20-30 yillardagi yozma manbalarda *demoq* fe`lining majhul daraja formasida jo`nalish kelishigini boshqarishi hodisasi bu fe`ning bosh formasida jo`nalish kelishigini boshqarishiga analogiya yo`li bilan paydo bo`lgan deb taxmin qilish mumkin.

Hozirgi tekstlarda ba`zan *demoq* fe`lining sinonimi bo`lgan aytmoq fe`li vositasida ifodalanadigan ta`riflar ham uchraydi: Transformatsion qoidalar deb, odatda bevosita tuzuvchilar modeli asosida yaratilgan gaplardan yangi gaplarga o`tish qoidalariga aytiladi.<sup>2</sup> Bevosita tuzuvchilar deb, ma`lum kattaroq konstruktsiya sostavida ayrim birlik sifatida qo`llanadigan har qanday so`z yoki so`zlar tizimiga aytiladi.<sup>3</sup> Til taraqqiyotining keyingi etaplarida ta`rif modeli hozirgi normaga javob beruvchi predikativ model shaklini kasb etdi.

Jo`nalish kelishikli birikmaning tushim kelishikli birikmaga funktsiyadosh qo`llanilishi. Til taraqqiyoti protsessida jo`nalish formasidagi so`zni boshqarib birikma hosil qilib qator fe`llar hozirgi kundagi adabiy tilda tushum formasini boshqarib, to`g`ri ob`ekt ma`noli birikma hosil qiladigan bo`lib qoldi. Bu fe`llarning bazi birlari masalan, *demoq* fe`li XV va undan keyingi asrlarda ham so`zni jo`nalish formasida boshqargani yuqorida aytilgan edi. *Demoq* fe`lining bu xususiyati o`zbek tilining taraqqiyotining dastlabki etaplarida ham saqlanib qoldi. Bunday qo`llanish faktlari, hech shubhasiz, qoldiq norma

---

<sup>1</sup> M. Asqarova, H. Jamolxonov. O`zbek tili. Pedagogika bilim yurtlari uchun darslik, T., 1976, 79-b.

<sup>2</sup> S. Usmonov. Umumiy tilshunoslik, T., 1972, 197-b.

<sup>3</sup> Ko`rsatilgan kitob 199-b

faktlaridir. *Demoq* fe`li *aytmoq* fe`li bilan **-(i)b** formali ravishdosh formasida birikib, **-(i)sh** formali harakat nomini jo`nalish formasida boshqargan: *Bu mayda parchalarni yig`ishg`o riyoziyotchilar intig`rol deb aytadurlar* (M va o`). Bu konstruktsiyaning *aytmoq* fe`li ishtirok etmaydigan *...parchalarni yig`ishg`o... intig`rol deydirilar* tipidagi konstruktsiyaga osonlikcha transformatsiya qilinishi jo`nalish formasidagi so`zni *aytmoq* fe`li emas, *demoq* fe`li boshqarishini ko`rsatadi. Ayni bir semantik guruhga mansub bo`lgan so`zlashni anglatuvchi *demoq* va *aytmoq* fe`llarining bir so`zni boshqarish uchun aytilishini tildagi leksik-semantik ortiqchalik deb baholash mumkin. Til taraqqiyotining keyingi etaplarida bu ortiqchalikdan xoli bo`lindi, boshqarish funktsiyasi faqat *demoq* fe`li ustiga yuklandi.

Hozir adabiy til normasi bo`yicha bu tipdagi birikmalar tushum kelishikli, to`g`ri ob`ekt ma`nosini anglatuvchi birikmalar bilan almashgan. Bu hol *demoq* fe`lining yuqoridagi tipli kostruktsiyalarda tushum formasini boshqarish xususiyati to`laligicha shakllanib etganini, normativ holga o`tganini ko`rsatadi.

Hozirgi norma nuqtai-nazaridan tushum kelishigini boshqaruvchi qator abstrakt ma`noli *tilamoq* (*xohlamoq* ma`nosida), *istamoq*, *xohlamoq*, *o`ylamoq*, *tomosha qilmoq*, *qizg`anmoq* («achinmoq» ma`nosida) kabi fe`llar.jo`nalish kelishigini boshqargan.

Xohish ma`nosini anglatuvchi *xohlamoq*, *tilamoq*, *istamoq* fe`llar - i(sh) formali harakat nomini jo`nalish kelishigi formasida boshqargan. Bu xolda harakat nomi o`z semantik xususiyatiga ko`ra boshqa otni boshqarib keladi. Harakat nomi tomonidan boshqarilgan ot kontekstual sharoitga bog`liq ravishda o`z leksik ifodasini topmasligi «tushib qolishi» mumkin: *Ularning xoin ko`zlari och, mazlum xalqni, xotinbolalarni ko`rmas, ko`rishga ham istamas edi* (M va o`). *Ko`rishga tilamagan bu kishiga nima deb e`tiroz qilasan endi*. Hozirgi norma

bo`yicha bu fe`llar tushum kelishigidagi harakat nomini yoki infinnitivni boshqaradi. Qiyoslang: *Kamina bu gulning ta`rifini eshitdim, amir. Ko`ngil shu gulni iskamoqni tilaydir* (U. x.).

O`ylamoq fe`li harakat nomini jo`nalish formasida boshqargan: *Barchalari uni yuqoriroq, mas`uliyatliroq ishga qo`yishg`o o`ylab qoldilar.* Qizg`anmoq fe`li achinmoq, rahmi kelmoq ma`nosida jo`nalish kelishikli birikma hosil qilgan: *Ammo shu yigitga yuragim bir oz qizg`anadi.*

Hozirgi adabiy tilda yuqorida tasvirlangan fe`llar to`lig`icha tushum formasini boshqarib, to`g`ri ob`ektli birikma hosil qiladi.

Tushum formasini emas, jo`nalish formasini boshqargan fe`llar qatorida *tomosha qilmoq* fe`li ham bor. Bu fe`l hozirgi adabiy tilda so`zni tushum kelishigi formasida boshqarib, to`g`ri ob`ekt ma`noli birikma hosil qiladi. Boshqaruvdagi bu o`zgarish sababini fe`l semantikasida sodir bo`lgan o`zgarishlardan izlamoq kerak. Bu fe`lning semantik strukturasi «biror qiziq narsani ko`zdan kechirmoq, ko`rmoq» ma`nosidan tashqari «biror narsaga qiziqish bilan qaramoq» ma`nosini ham qamrab qoladi. Til tarixining ma`lum davrlarida, xususan, 20—30-yillarda, bu fe`lda mana keyingi shu ma`no ustunlik qilgan. *Qaramoq* fe`li esa otni jo`nalish kelishigi formasida boshqaradi. Xuddi mana shu sabab bilan *tomosha qilmoq* fe`li ot va harakat nomini jo`nalish formasida boshqarib, vositali ob`ekt ma`noli birikma hosil qilgan.

20—30-yillardan keyingi taraqqiyot etapida *tomosha qilmoq* fe`lining semantikasida o`zgarish sodir bo`ldi, unda—«*qaramoq*» semasiga nisbatan «*ko`rmoq*» semasi ustunlik qila boshladi. Bu ma`noda u tushum kelishigi formasida shakllangan to`g`ri ob`ekt ma`noli birikma hosil qiladigan bo`ldi.

*Buyurmoq* fe`li «biror shaxsni biror ishni bajarishga qat`iy ravishda undash» ma`nosida hozirgi norma nuqtai nazaridan sub`ekt, vositali ob`ekt va vositasiz ob`ekt valentliklarini reallashtiradi, Bu hol fe`lga qo`yiladigan *kim? nima? kimga? nimani* yoki *nima qilishni?* so`roqlarida o`z aksini topadi.

Jo`nalish formasidagi vositali ob`ekt funktsiyasida odatda shaxs anglatuvchi ot, vositasiz ob`ekt funktsiyasida **-(i)sh** formali harakat nomi yoki infinitiv formasi qo`llanadi: *...qo`llarining keskin harakati bilan xalqqa tinchlanishni buyurishdi.*

*Buyurmoq* fe`li 20—30-yillarda yuqorida ko`rsatilgan ma`noda harakat nomini tushum emas, jo`nalish formasida boshqargan.

*Buyurmoq* fe`li polisemantik xarakterga ega. Uning har bir alohida ma`nosi o`ziga xos valentlikka ega bo`ladi. Masalan, *da`vat qilmoq*, *yo`llamoq* ma`nosida bu fe`l *kimni? nimaga? (nima qilishga?)* savollariga javob bo`luvchi bo`laklar bilan konkretlashtirilishni talab qiladi: *Bolani ishga buyur, ketidan o`zing yuur.* Bunda *buyur* fe`li ko`rsatilgan ma`noda qo`llangani uchun shu ma`noni mustaqil ifoda qiluvchi leksik birlik — *yo`llamoq*, *da`vat qilmoq* fe`llari bilan almashtirilishi mumkin. *Bolani ishga yo`lla* (*da`vat qil*) kabi. Bunda *buyur* fe`li ko`rsatilgan ma`noda qo`llangani uchun shu ma`noni mustaqil ifoda qiluvchi leksik birlik — *yo`llamoq*, *da`vat qilmoq* fe`llari bilan almashtirilishi mumkin: *Bolani ishga yo`lla (da`vat qil)* kabi. Bu fe`lning ko`rsatilgan ma`nosi izohli lug`atda<sup>1</sup> aks ettirilmagan, natijada biz misol tariqasida keltirgan maqol u yerda *buyurmoq* fe`lining «buyruq bermoq, amr, farmon qilmoq, hukm qilmoq» ma`nolariga misol tariqasida keltirilgan.

---

<sup>1</sup> O`zbek tilining izohli lug`ati, t1. M., 1982.

*Hukm qilmoq* ma`nosida bu fe`l *kimni? nimaga?* so`roqlariga javob bo`luvchi so`zlar bilan birikadi: *Ertasiga Azizbek mazkur ikki kishini o`z huzuriga oldirib, maqtovg`a ulug` mansab ato qilar va ikkinchisini o`limga buyurar.* Qiyoslang: *ikkinchisini o`limga hukm qilar.* *Buyurmoq* fe`li *Bolani ishga buyur, ikkinchisini o`limga buyurar* konstruktsiyalarida ayni bir xil omonimik modelda («tushum formasidagi ot + jo`nalish formasidagi ot + fe`l») reallashganiga qaramay, ikki xil ma`noli bo`lishiga sabab shuki, birinchi konstruktsiyadagi *shi* so`zi ma`lum faoliyat, harakat ideyasini anglatadi: *ishga buyur— ish qilishga buyur.* Ikkinchi konstruktsiyadagi *o`lim* so`zi fiziologik holat ma`nosini anglatadi. Tobe komponent vazifasidagi so`zlarning ma`nolaridagi bu farq *buyurmoq* polisemantik fe`lining turli ma`nolarining rellashuviga asos bo`lgan. Bu tahlil, bir qarashda o`zbek tilining taraqqiyotiga aloqasi yo`qdek ko`rinadi. Biroq *buyurmoq* fe`lining 20—30-yillarda harakat nomi formasini jo`nalish kelishigida boshqarishi hodisasi bu fe`lning turli xil semantikali otlarni shu kelishik formasida boshqarish hodisasidan tubdan farqlanishini ko`rsatadiki, fe`l semantikasining konstruktsiyasining struktur-semantik jihatlariga ta`sirini ko`rsatish zarurati shunday tahlil qilishni taqozo etadi.

*Urmoq* fe`li jo`nalish formasini boshqarib, vositali ob`ekt ma`noli birikma yasagan: *Otojon, voy dod! Bizlarni jin urdi!*

Hozirgi adabiy tilda *urmoq* fe`li *zarb bermoq* ma`nosida tushum formasini boshqaradi va *kim? kimni?* (ba`zan *nima bilan?*) so`roqlariga javob bo`luvchi bo`laklarga o`rin ochadi. *Bola ukasini urdi.. "Dinamo"chilar dorvozaboni to`pni qo`li bilan uri qaytardi* kabi. Bu konstruktsiyalarning leksik elementlari ma`nosiga e`tibor berilsa, harakatni bajaruvchi sub`ekt shaxs oti bilan, ya`ni konkret predmetlik ma`nosini anglatuvchi ot bilan ifodalanganini

ko`ramiz. Urish harakatining konkret shaxs tomonidan bajarilishi tabiiy bir hol, albatta. Lekin sub`ekt funksiyasida yuqoridagi misoldagi kabi afsonaviy tushuncha anglatuvchi *jin* so`zi qo`llanganda *urmoq* fe`li «zarb bermoq» ma`nosini emas, «tegmoq» ma`nosini anglatadi. Bu ma`noli fe`l esa jo`nalish formasidagi so`zni boshqarishi ma`lum: *Hay qo`shningizga nima jin tekkan, salom bersam teskari qaraydi?* (So`zlashuvdan) *Bechorani yozgi chillada jin urgan deyishadi.* (Ertakdan) tipidagi tushum kelishikli konstruktsiyalarda ham *urmoq* fe`li *zarb bermoq* ma`nosini emas *zarar etkazmoq* ma`nosini anglatadi. Bu ma`no *urish* harakatining *oqibatida* «yetadigan zarar» tushunchasi bilan bog`liq ravishda yuzaga kelgan. *Urmoq* fe`li ma`nosidagi bunday o`zgarish asosida, yuqorida aytilganidek, afsonaviy tushuncha anglatuvchi jinning odam kabi biror qurol vositasida zarb berish qobiliyatiga ega emas degan tasavvur yotadi.

*Boshlamoq* fe`li hozirgi adabiy norma bo`yicha «biror ishga kirishmoq, biror faoliyatni, harakatni boshlab bermoq» ma`nosida tushum kelishigini boshqarib, to`g`ri ob`ekt ma`noli birikmalar hosil qiladi. 20—30-yillar materialida bu fe`l ko`rsatilgan ma`noda tobe so`zni jo`nalish formasida boshqargan.

Demak, *boshlamoq* fe`lining jo`nalish formasini boshqarishi turkiy tillar uchun, shu jumladan o`zbek tili uchun ham yot bo`lmagan hodisadir. Uning tushum formasini boshqara boshlashi, ya`ni boshqaruvdagi normaning o`zgarishi jarayoni nisbatan keyin (30-yillardan keyin)gi davrga xos bo`lib, hozirgi kunda bu jarayon butunlay to`xtagan, ya`ni uning tushum formasini boshqarishi stabillashib, normativ holga kelgan. Lekin boshqaruv prodesidagi grammatik «raqobat»da jo`nalish formasi osonlikcha «taslim bo`lmagani», formalarning adabiy tilda turg`unlashishidagi kurash 40- yillargacha davom etganini tasdiqlovchi misollar bor: *Yo`lchi...ishga boshladi.*

Yuqoridagi material tahlili *boshlamoq* fe`lining jo`nalish formasini boshqarishi umumturkiy hodisa bo`lib, boshqaruvdagi evolyutsiya juda sekinlik bilan amalga oshadigan leksik-sintaktik hodisa ekanini tasdiqlaydi.

Jo`nalish kelishikli birikmaning chiqish kelishikli birikmaga funktsiyadosh qo`llanishi. Jo`nalish kelishigining chiqish kelishigi funktsiyasida qo`llanish holati biz o`rgangan manbalarda bir martagina uchradi: *O`g`illaridan Abutohir xo`ja tib va tarix ilmlariga, Ulgarxo`ja hayat ilmiga mutaxassis bo`lganlar.*

*Mutaxassis* so`zi «biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo`lgan kishi, ixtisos egasi»<sup>1</sup> degan ma`noni anglatadi. Bu ma`nosi bilan u «Biror ishni mohirlik bilan bajaradigan» ma`nosini anglatuvchi so`zi bilan sinonim bo`ladi. Bu ma`noda *usta* so`zi jo`nalish formasidagi so`zlarni boshqarib, birikma hosil qila oladi: *U shaxmat o`ynashga usta. U palovga ustaki, naq gapirtirib yuboradi.*

*Mutaxassis* so`zining jo`nalish formasini boshqarishi *usta* so`zi bilan sinonimligi, ya`ni bir leksik-semantik gruppaga mansubligi asosida sodir bo`lgan. Bu leksik-semantik gruppaga oid so`zlarning sintagmatik xususiyatlari bir xil bo`lishi esa ma`lum hodisadir. Xuddi mana shu hol, bizning nazarimizda, 20— 30-yillarda *mutaxassis* so`zining jo`nalish formasidagi so`zni boshqarib, ob`ekt ma`noli birikma hosil qilishiga asos bo`lgan. Keyingi taraqqiyot jarayonida uning boshqarish normasi o`zgarib, chiqish kelishigidagi so`z bilan birikish xususiyatini kasb etgan, natijada hozirgi adabiy tilda *tarixdan, fizikadan mutaxassis* tipidagi boshqaruv normativ bo`lib qolgan.

XV—XVII asrlarga oid manbalarda *so`ramoq* (*xotunlarg`a so`rsun*), *o`tmoq* (*bashig`a na kim etti*), *kechmoq* (*xayalig`a kechibtur*) kabi fe`llar

---

<sup>1</sup> O`zbek tilining izohli lug`ati T1., M., 1981.

chiqishni emas, jo`nalish kelishigini boshqargani ma`lum<sup>1</sup>. Bu fe`llar boshqaruvi hozirgi kunda mutlaqo qat`iylashgan — ular chiqish formasini boshqaradi: *xotinlardan so`rasin, boshidan o`tdi, xayolidan kechdi* kabi.

Jo`nalish kelishikli birikmaning o`rin kelishikli birikmaga funktsiyadosh qo`llanishi. Turkiy tillarda jo`nalish formasining o`rin kelishigi kabi funktsiyani bajarish hodisasi uzoq tarixga borib taqaladi. N. 3. Gadjieva «Turkiygacha va «ilk turkiy («dotyurkskaya», «rannetyurkskaya epoxa») deb atalmish davrlarda jo`nalish va o`rin kelishiklari ayni bir forma vositasida ifodalanganini taxmin qiladi<sup>2</sup>. U mantiqan o`rin kelishigi qo`llanishi kutilgan hollarda ko`pgina turkiy — ozarbayjon, oltoy, tuva, qirg`iz tillarida jo`nalish kelishigi qo`llanish faktini yuqorida aytilgan taxmin bilan bog`laydi.

O`zbek tili materialida jo`nalish kelishigi funktsiyasida o`rin kelishigining qo`llanishi faktlar Alisher Navoiy, Bobir, Furqat asarlarida uchrashi qayd etilgan . Demak, bizning 20—30-yillarga oid materiallarimizda bunday qo`llanish faktlarining uchrashi tasodifiy bo`lmay, ularning ba`zilari umumturkiy hodisaning xususiy bir ko`rinishlari, turkiy va tarixiy traditsion qo`llanish qoldiqlari sifatida baholanmog`i kerak. Ba`zi misollar keltiramiz: *Har qalay bejiz emas. Er nazar qilmasa qozilik u yoqqa tursin eshak bozorg`o dallol ham bo`lo olmas edi. Bu hollarni ko`rgan Avliyo ota xalqi oqormoq uyoqqa tursun, tim qora bo`lib, nopormon ochib ketsin*.

*Turmoq* fe`li hozirgi adabiy til normasi nuqtai nazaridan asosan o`rin kelishigidagi so`z bilan «...qozilik u yoqda tursin, dallol ham bo`la olmasdi» tipida birikadi. Bu konstruktsiyada *turmoq* fe`li o`rin kelishigidagi so`zni boshqarish hollari 20—30-yillarda ham uchraydi.

---

<sup>1</sup> Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis. Toshkent. 1973

<sup>2</sup> Gadjieva N.G. osnovnie puti razvitiya sintaksicheskoy strukturi tyurksix yazikov. M.: Nauka. 1973.

Demak, jo`nalish kelishigining iste`moldan chiqib, uning o`rniga o`rin kelishigi qo`llanishi tendentsiyasi o`sha davrlardayoq sezila boshlagan edi. Bu hol *turmoq* fe`lining boshqaruv xususiyatida tarixiy-traditsion tendentsiya o`z kuchini yo`qotmaganini, boshqaruvdagi siljishlar «portlash», bir sifatdan ikkinchisiga birdan o`tish yo`li bilan emas, asta-sekin o`zgarish, evolyutsiya yo`li bilan sodir bo`lishini ko`rsatadi.

*Turmoq* fe`lining *u yoqqa tursin (u yoqda tursin)* kabi ikki formani — ham jo`nalish, ham o`rin kelishigini boshqara olish qobiliyati uning variantli boshqaruvga ega ekanligini ko`rsatadi. Variantli boshqaruvda formal jihatdan turlicha shakllangan tobe so`zlar ishtirokida ayni bir xil grammatik ma`no ifodalovchi birikma hosil bo`ladi. Variantli boshqaruv tushunchasi o`zbek tilshunosligida hali qo`llanmagan. Holbuki bu tushuncha yordamida fe`l boshqaruvida normativlikning qanday yo`llar bilan shakllanib boruvini, bunga sabab bo`luvchi qator faktorlar—fe`l semantikasidagi o`zgarishlar, stilistik, differentsiatsiya, tarixiy-traditsion qo`llashga aloqadorlik masalalari bilan bog`liq holatlar va shu kabilarni ishonchli ravishda izohlash imkoni tug`ildi (Bu haqda tegishli o`rinlarda yana to`xtalamiz).

Variantli boshqaruvdagi tilda normativ holatga o`tishdagi jarayonda bir formaning ikkinchisiga o`rin bo`shatib berishini *turmoq* fe`lining ot bilan birikib, «biror harakat, faoliyatga rahbarlik qilmoq» ma`nosida qo`llanishida ko`rish mumkin. Hozirgi kunda bu fe`l o`rin formasidagi so`z bilan birikib kelishi norma hisoblanadi.

*Qolmoq* fe`li «orqada sudralmoq, eta olmaslik» ma`nosida orqa, keyin so`zlarini jo`nalish formasida boshqargan. Hozirgi adabiy til normasi bo`yicha bu fe`l *orqa*, *keyin* so`zlarini o`rin kelishik formasida boshqarishi norma tusiga kirgan. Bu hodisa xol o`zbek tilining izohli lug`atida ham qayd etiladi.

*Tortmoq* fe`li «donni unga aylantirmoq» ma`nosida hozirgi adabiy tilda nimani? nimada? so`roqlariga javob bo`luvchi so`zlar bilan birikadi: *Bug`doyni tegirmonda tortmoq*. 20—30-yillarda bu fe`l jo`nalish kelishigini boshqargan: *Undan bir ozin o`irda yanchdi-da go`ja oshi damladi. Qolg`on bug`doyni to`rvaga solib tegirmonga tortishga mo`ljallab qo`ydi*. Ot boshqaruvida ham o`rin kelishigi o`rnida jo`nalish kelishigining qo`llanishi kuzatiladi.

### 1.3 Chiqish kelishikli birikmalar.

Chiqish kelishikli birikmalar makon kelishikli birikmalar orasida funktsional-grammatik jihatdan eng kam o`zgarishga uchragan kelishik chiqish kelishikli birikmalardir. Bu kelishik vositasida hosil qilingan birikmalar hozirgi davrda ham asosan qadimgi davrlarda ifodalangan sintaktik ma`nolarni ifodalashi bilan xarakterlanadi. Bular shu jihatdan sintaktik tuzilish taraqqiyotiga xos bo`lgan konservatizm haqidagi fikrlar ayni chiqish kelishikli birikmalarga juda mos kelishini ko`rsatadi. Chiqish kelishikli birikmalarning boshqa kelishikli birikmalarga funktsiyadosh qo`llanishi ham nihoyatda cheklanganligi ma`lum bo`ldi. Bu hodisa chiqish kelishigining uzoq tarixiy taraqqiyot etaplarida taraqqiyot ztaplarida ham boshqa kelishiklarga funktsiyadosh bo`lishi juda chegaralanganligi bilan izohlanadi. Masalan, tadqiqotchilar uning o`rin kelishigi o`rnida O`rxun-enisey yodgorliklari davridan qo`llanganini, bu hodisa asosan XIII—XIV asrlar tili uchun xarakterli bo`lganini aytadilar.<sup>1</sup> Boshqa kelishiklar bilan funktsiyadosh bo`lishi qayd etilmagan. Bundan boshqa xulosa ham kelib chiqadi: chiqish kelishigi ifodalagan sintaktik munosabatlar turi ancha ilgarigi tarixiy davrlardayoq shakllanib, turg`unlashib bo`lgan. Bu holat chiqish kelishikli birikmalarning taraqqiyotida aks etmay qolmadi. Chiqish kelishigining boshqa kelishiklar o`rnida nihoyatda kam qo`llanishi xuddi mana shu sabab bilan izohlanadi.

Biz o`rgangan manbalarda bu kelishik bir holda tushim, boshqa ikki joyda o`rin kelishigi funktsiyasida qo`llangani ma`lum bo`ldi: *Ikki marta kelib, anavi qo`shninggiznikida choy ichib, sizdan so`rashdim*. Bunda chiqish formasidagi so`z (sizdan) ob`ekt ma`nosini ifodalagan. So`ramoq

---

<sup>1</sup> Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis. Toshkent. 1973

fe`lidan yasalgan birgalik daraja formasidagi so`rashmoq fe`lining chiqish kelishigini boshqarib kelish sababini fe`l semantikasi talabi nuqtai nazaridan ham, tarixiy norma ekanligi jihatdan ham ishonarli qilib izohlash mushkul ish. Uning yasalishiga asos bo`lgan so`ramoq fe`li birov haqida qandaydir ma`lumot olmoq ma`nosida tushim kelishigi formasidagi so`zni boshqaradi.

G`. Karimov chiqish kelishigining 20-30 yillarda tushim kelishigi o`rnida qo`llangan qayd etib, *O`zlaridan gapirtirish* misolini keltirgan<sup>1</sup>.

Orttirma daraja formasidagi fe`l semantikasi ham tushum formasidagi so`z — vositasiz ob`ekt qo`llanishini taqozo etadi. Bosh va orttirma darajadagi fe`lning qo`llanishini qiyoslang: *O`quvchilarning o`zlaridan biri gapirdi — O`qituvchi o`quvchilarning o`zlaridan birini gapirtirdi.*

Hokim komponent vazifasidagi fe`l asl leksik. Ma`nosidan o`zgacha ma`no anglatishi natijasida hosil bo`lgan chiqish kelishikli birikmalar ham uchraydi. Masalan. *barbod bo`lmoq* fe`li hozirgi adabiy tilda *vayron bo`lmoq*, *bekor bo`lmoq*, *xarob bo`lmoq* ma`nolarida sub`ekt valentlidir. *Niyatali barbod bo`ldi, rejalari barbod bo`ldi* kabi. Bu fe`l *ayrilmoq* ma`nosida chiqish kelishigidagi so`zni boshqarib, vosita ob`ektli birikma hosil qilgani kuzatiladi: *Bizni kecha-kunduz jigargohimiz ezilib, hamma xonimadon barbod bo`lib yuribmiz-u, bir ko`rishga etisholmagan przu-armonimizni beshta so`m olib, sen jodugar Rustam- vokdek bir iflosga to`g`ri qilasan.*

*Barbod bo`lmoq* fe`lining «ayrilmoq» ma`nosi «yo`q bo`lmoq» ma`nosi asosida paydo bo`lgani ko`rinib turibdi. Hozirgi adabiy tilda *barbod bo`lmoq* fe`li bu ma`noda chiqish kelishigidagi so`zni boshqarmaydi.

---

<sup>1</sup> Karimov G`. Sovet davri o`zbek adabiy tili taraqqiyoti. Toshkent. Fan. 1985.

Bosh ko`tarmoq fe`li ham ma`no o`zgarishi asosida chiqish kelishikli birikma hosil qilgan. Quyida u «yetilib chiqqan» ma`nosida qo`llangan. O`zbek tili taraqqiyotning dastlabki etaplarida chiqish kelishikli birikmalarning tobe komponenti vazifasida kelgan so`zlar ham leksik va morfologik jihatdan hozirgi normativ holatdan birmuncha farqli bo`lgani ko`zga tashlanadi. Masalan, sabab munosabatining chiqish formasida shakllangan *-gan* formali sifatdosh bilan ifodalanishi ma`lum. Bu davrda *-gan* o`rnida turkiy tillarning o`g`uz gruppasiga xos *-diq* formasi ishlatilgani uchraydi: *1912 yildan ilgari Turkistonda tatar qarindoshlar tarafidan teatru o`yinlar bo`lib tursa ham, tabiiy bizim Turkistonimizdan chetdaroq bir ruhda asarlar o`lduqdan yerli yoshlarni u darajada o`ziga jalb eta olmagan. Majbur o`ldig`indan ...dushmanning qoydo ekanini ham shunga o`xishash masofalarni bilishga uzunlikni o`lchashdi.* Fe`l formasidagi bunday o`zgarish turk tilining ta`siri sifatida qaralishi mumkin, chunki o`sha davr maorifi sistemasi va matbuotida turk millatiga mansub bo`lgan kishilarning ishlagani ma`lum.

Leksik vositalarda ham tanlanish davom etdi. Masalan, bu davrda qo`llangan qator, ich so`zlari o`rnida keyingi taraqqiyot davomida saf, ora so`zlari qo`llana boshladi: *Ichlaridan birisi sekingina «o`z uyining xaritasini chizar ekan deya gapirib qo`yar.*

Chiqish kelishigi formasida shakllangan payt ma`nosini anglatuvchi har narsadan ilgari, har narsadan burun kabi birikmalar hozirgi paytda avvalo, birinchi navbatda kabi so`zlar bilan almashdi. Ular *hammasidan oldin* birikmasi bilan ham almashib qo`llanadi, lekin bu kamroq uchraydi: *Har narsadan ilgari bolalarning qancho ko`z tikguchi, har ish va narsaga beriluchi ekanligini har kim biladir. Binobarin murabbiylar shu holni ko`z oldida tutsalar, har narsadan ilgari bir qonun va bir talay qoidalar chiqoro oladirlar. Buning uchun muallimlarning bu asosni hech*

*nazarlaridan uzoqlashtirmasdan har narsadan burun darsni yodlotish emas onglotish choralarini topishlari kerakdir.*

*Nuqtai nazar* izofasining birinchi soʻzi ellipsisga uchrab, ikkinchi soʻzi chiqish kelishigi formasida qoʻllanishi kuzatiladi: *Hindiston qonun asosini isloh qilish va buning uchun yolgʻiz inglizlardan iborat komissiya tuzishka ham mana nazardan qarosh kerak.* Bu tipdagi tarz maʼnosini ifodalovchi birikmalar hozirgi adabiy tilda leksik jihatdan toʻliq shakllangan holda qoʻllanadi: *...shu nuqtai nazardan qarash kerak kabi.*

Tobe komponentlari chiqish va joʻnalish kelishiklari formasida fakulʼtativ holda shakllanuvchi «kundan kunga + feʼl (yoki sifat)» modelida reallashuvchi birikma hokim komponent anglatgan harakat, holat yoki belgining tobe komponent anglatgan vaqt ichida oʻzgarganlik maʼnosini ifodalaydi. Aslda tojikcha *roʻz ba, roʻz* birikmasi modelida yasalib, oʻzbek tilining oʻz ichki boshqaruv qonuniyati asosida hozirgi kunda chiqish va joʻnalish formasida qoʻllanuvchi *kundan-kunga* qoʻshilmasi oʻz taraqqiyot bosqichida turli qiyofada qoʻllangani aniqlandi. Dastlab u *roʻz ba roʻz* qoʻshilmasidagi grammatik vosita *ba* saqlangani holda *roʻz roʻz* soʻz tarjima qilib qoʻllangan: *...madaniyat orqasidan kurashguchilarning tarafdorlari kun ba kun kuchaymoqda va maorifchilar askari kuchaymakdir.* Sof tojikcha grammatik formani qoʻllashdan qochish maqsadida u anglatgan sintaktik maʼnoni turkiy tillarga xos grammatik vosita bilan berish yoʻlida izlanish davom etgani kuzatiladi. Bu qoʻshilmaning *kundan-kun, kunda-kun* formalarida ishlatila boshlashi shundan dalolat beradi. Biroq *kun-kundan, kunda-kun* formalari *ruz ba roʻz* formasi anglatgan maʼlum vaqt chegarasida sodir boʻluvchi tadrijiylik maʼnosini aniq anglata olmas edi. Shuning uchun til taraqqiyoti protsessida shu maʼnoni ifodalashga intilish *kundan-kunga* yoki qoʻllanish ellipsisga uchragan holda shakllanuvchi

*kundan-kun* qo`shilmasining normalashuviga olib keldi<sup>1</sup>. Bu qo`shilmalar vaqtning o`tib borishi (vaqtdagi tadrijiylik) bilan bog`liq ravishda sodir bo`luvchi voqea-hodisani aniq anglatishga xizmat qiladi, xuddi shuning uchun u normallashib, tilda turg`unlik kasb etdi.

20—30-yillarda bu qo`shilmaning yuqoridagi formalarida variantli qo`llanishi sababini o`sha davr matbuotida ishlagan xodimning qaysi sheva vakili bo`lganligi bilan ham bog`lash mumkin. Keltirilgan til faktlaridan ko`rinishicha, u Samarqand-Buxoro shevasi vakili bo`lganiga shubha qilmasa bo`ladi, chunki bu shevalarga tojik tilining ta`siri kuchli bo`lgani ma`lum. Yozma adabiy tilda bu ta`sirdan qutulish uchun ma`lum bir vaqt o`tishi tabiiy bir hol edi. Ob`ektiv borliqdagi munosabatni qulay tarzda ifodalashga intilish, bunda sodir bo`luvchi til vositalarining tanlanishi va turg`unlashishi jarayoni *kundan-kunga* qo`shilmasining normalashuvida yaxshi namoyon bo`ldi.

Chiqish kelishikli birikmalarning dastlabki yillaridagi taraqqiyotiga xos bo`lgan o`zgachaliklar qisqacha yuqorida ko`rganlardan iborat. Bu kelishikning qator turkiy tillarda ham o`zbek tilidagi kabi sintaktik munosabat ifodalashga xizmat qilishi, uning o`rin, payt, vositali ob`ekt, butundan bo`lak, predmetning nimadan yasalganligi, sabab va boshqa munosabatlar ifodalashi uzoq tarixiy davrlardan hozirgi davrgacha saqlanib qoldi.<sup>2</sup> Bu hol sintaktik ma`no ifodalashda kuzatiladigan ba`zi hodisalar haqiqatdan ham ancha turg`un xarakterga ega ekanligini ochiq-oydin ko`rsatadi.

Hozirgi kundagi o`zbek adabiy tili materiallaridan gazeta tilida uchraydigan, aniqrogi gazeta maqolalari, xabarlarida sarlavha tarzida qo`llanuvchi chiqish kelishikli konstruktsiyalar o`zbek tilining

---

<sup>1</sup> Yakubova X. Zalogi v uzbekskom yazike v sopostavlenii s zalogami russkogo yazika. AKD. Tashkent 1954.

<sup>2</sup> Baskakov A.N. Slovosochetaniya v sovremennom turetskom yazike. M.: Nauka. 1974

taraqqiyotining eng keyingi etaplariga xos boʻlgan sintaktik rivojlanishni aks ettiradi.

Toʻplangan materialni oʻrganish sarlavha funktsiyasida qoʻllanadigan konstruktsiyalar struktura sxemasi (modeli)ga koʻra bir qancha spetsifik xususiyatlarga ega ekanligi maʼlum boʻldi. Bulardan yaqqol koʻzga tashlanadigani chiqish kelishigi formasidagi soʻz bilan grammatik aloqaga kiruvchi hokim feʼlning aksariyati hollarda leksik jihatdan oʻz ifodasini topmasligidir. Misollar: *intensivlash yoʻlidan*, *TASS teletayp lentasidan* kabi konstruktsiyalar sarlavha funktsiyasida qoʻllanuvchi tipik sintaktik birliklar hisoblanadi. Ularning qanday semantikali boʻlishi berilgan tekstning umumiy mazmunidan maʼlum boʻladi. Masalan, *intensivlash yoʻlidan* sarlavhasi ostida berilgan materialda maʼlum korxonaning ishlab chiqarishni intensivlash yoʻlidan borayotgani hikoya qilinadi. Shu mazmunga tayangan holda bu konstruktsiyaning hokim komponenti *bormoq* feʼli ekanligi, konstruktsiya esa toʻliq holda *intensivlash yoʻlidan borilyapti* koʻriishida boʻlishi kerakligi aniqlanadi. Xuddi shuningdek, *TASS teletayp lentasidan sarlavhasi* ostida berilgan material «*TASS teletayp lentasidan olingan xabarlar*» dan iborat ekani, yaʼni hokim feʼl vazifasida *olmoq* feʼli qoʻllanishi zarurligi maʼlum boʻladi. Shunday qilib, sarlavha vazifasida kelgan sintaktik birlikning asl struktur-semantik xususiyati berilgan tekst mazmuni asosida aniqlanadi.

Mana shu usulda chiqish kelishikli konstruktsiyalarning xokim komponenti vazifasidagi feʼl tiklangach, tekst mazmunan atributiv birikmalarga, ravishdosh oborotli gaplarga, shuningdek, boshqa tipdagi gaplarga mos kelishi aniqlanadi. Bunday boʻlishi bejiz emas, albatta. Bu konstruktsiyalar aslida oʻzbek tilining sintaktik qurilishi qoidalariga asosan yuqorida aytilgan tilda shakllanishi kerak edi. Gazeta

sarlavhalarida ixchamlikka intilish, ortiqcha leksik elementlardan qochish yuqoridagi kabi leksik elementlari tejalgan, siqiq formadagi konstruktsiyalardan foydalanishga olib keldiki, bu xol o`zbek tilining sintaktik rivojlanishida yangi tendentsiyani aks ettiradi.

To`plangan materialni o`rganish sarlavha funksiyasidagi konstruktsiyalar leksik jihatdan to`la shakllanishi kerak bo`lgan konstruktsiyalarning qisqartirib ishlatilishi mahsuli ekanligini ko`rsatadi. Ular osonlikcha barcha konstruktiv elementlari mavjud bo`lgan holda tiklanishi mumkin. Sarlavha vazifasidagi konstruktsiyalar quyidagicha tipdagi birikma va gaplarning qisqaruvi, soddalashuvi natijasida hosil bo`lgan<sup>1</sup>.

1. Atributiv birikmalarning soddalashuvi natijasida hosil bo`lgan konstruktsiyalar: mamlakatlaridan yangiliklar, qit`alardan daraklar, xon atlasdan zamonaviy libos, teletayp lentasidan daraklar kabilar. Bu konstruktsiyalarning -gan formali sifatdosh bilan ifodalangan xokim komponenti tiklansa, ular tipik atributiv birikmalar ekanligi ma`lum bo`ladi: *qit`alardan olingan daraklar, xonatlasdan tikilgan zamonaviy libos, teletayp lentasidan olingan xabarlar, mamlakatlaridan olingan yangiliklar* kabi.

2. Ravishdosh oborotli gaplarning qisqarishidan horis bo`lgan konstruktsiyalar: *eaqtdan o`zib, mukofotdan ruhlanib, ilg`orlardan o`rnak olib, Vatandan ayrilib* kabilar. Bu tipdagi ravishdoshli birikmalar leksik grammatik jihatdan to`la-to`kis shakllangan gapda ifodalangan harakatning qay tarzda sodir bo`lganiki anglatadi, ya`ni tarz holi funksiyasini bajaradi: *Mukofotdan ruhlanib, kollektiv a`zolari mehnat unumdorligini yanada oishrdilar. Vaqtdan o`zib, tsex ishchilari yillik planni 8 oyda bajardilar* kabi.

---

<sup>1</sup> Akimova G.I. Novie yavleniya v sintaksicheskome stroe sovremennogo russkogo yazika. L., 1982.

3. Ba`zan chiqish kelishigidagi so`zni boshqaruvchi ravishdoshning tushib qolish hollari ham kuzatiladi: *Otalar jasorati izidan, Ota izidan*. Bu sarlavhalarning birinchisi ostida berilgan materialda otalar jasorati izidan borib Toshkentning 4-maktabida muzey tashkil qilishgani haqida, ikkinchisida esa ota izidan borib, u jang qilgan joylarda xizmat qilgan o`g`il haqida hikoya qilinadi. Har ikki holda *borib* ravishdoshi vositasida hosil qilinuvchi ravishdosh oborotda ravishdosh qisqarib, konstruktsiya soddalashib qo`llangani ko`rinadi. Bunday tipli konstruktsiyalarda qisqargan ravishdoshning qanday leksik ma`noli ekanini aniqlashda, uni tiklashda kontekst mazmuniga suyanish, undan kelib chiqish ayniqsa kuchli bo`ladi. Kontekst yordamisiz *ota izidan birikmasi* mavhumlik kasb etadi, qanday ma`noli fe`l bilan *birikishi* kerakligi unga aniq bo`lmay qoladi.

4. To`laqonli gaplarning ega va kesimi tushirilishi natijasida hosil bo`lgan chiqish kelishikli birikmalar: *texnika taraqqiyoti yo`lidan, muddatidan oldin, uch o`yindan nol` ochko, bunyodkorlik yo`lidan, poligrafiya chiqindilaridan* kabi bunday sarlavhalar ostida berilgan material mazmunidan osonlikcha shu birikmalar ishtirok etuvchi gaplar tiklanishi mumkin: *Zavod ishchilari texnika taraqqiyoti yo`lidan bormoqdalar; Planlar muddatidan oldin bajarildi; «Avtomobilist» komandasi uch o`yindan nol` ochko oldi, poligrafiya chiqindilaridan universal ximiyaviy birikmalarning dastlabki turkumi olindi* kabi.

Yuqoridagi misollar tahlilidan ko`rinadiki, gazeta sarlavhalari vazifasida qo`llangan konstruktsiyalar turli xil qisqartishlar hisobiga hosil qilinadi. Bunday qisqartishlar ba`zan maksimum darajada bo`lgani kuzatidadi: *Redaktsiyadan: yuqoridagi fikr mulohaza- lardan ko`rinib turibdiki, o`nlab ming so`m sarflab tiklangan sport inshootlaridan foydalanilmayotganiga hech qanday ob`ektiv sabab yo`q*. Chiqish formasidagi *redaktsiyadan* so`zidan so`ng keltirilgan tekstdan ma`lum bo`ladiki, bu so`zdan oldin *biz*, undan *so`ng izoh beramiz*

bo`laklarini keltirish mumkin: *Biz redaksiyadan izsh beramiz* kabi. Bu holda gap to`la grammatik shakllangan bo`lardi. Bu misolda soddalashish shu darajada kuchli bo`lganki, bittagina chiqish formasidagi bo`lak — *redaksiyadan* so`zining o`zi kontekst mazmuniga suyangan holda o`rin holi ma`nosini ifodalamoqda.

Ma`lum bo`ladiki, soddalashgan konstruktsiyalarnng tushirib qoldirilgan bo`laklari faqat kontekst vositasida tiklanadi. Bu tip konstruktsiyalar struktur-semantik xususiyatlarining kontekst bilan nihoyatda zich aloqa asosida namoyoi bo`lishi ularning faqat shunday kontekstual sharoit yaratilishi mumkin bo`lgan gazeta tilidagina yashay olishini, boshqacha aytganda, gazeta tiliga xoslanganini ko`rsatadi.

Shuni alohida ta`kidlash kerakki, sarlavha vazifasida qo`llanuvchi konstruktsiyalar bevosita rus tili publitsistik stilining ta`sirida shakllandi. Bunga rad etib bo`lmaydigan ko`plab mnsollar keltirish mumkin. Bu ta`sir, shubhasiz, ijobiy xarakterda bo`lib, o`zbek tili sintaktik qurilishining mukammallashishiga, siqiq formalarda keng mazmun ifodalanishiga olib keldi.

#### 1.4 O`rin kelishikli birikmalar.

O`rin kelishikli birikmalar ilmiy adabiyotlarda o`rin kelishigi chiqish va jo`nalish kelishigiga zid ravishda harakatni emas, uning mavjud emasligini ifodalashi, harakat sodir bo`ladigan ob`ektni yoki shaxs, predmetning o`rnini ko`rsatishga xizmat qilishi, o`rin kelishigi affiksi qo`shiladigan so`zning ma`nosiga bog`liq ravishda turli xil boshqa munosabatlar ham ifodalashi mumkinligi ,aytiladi<sup>1</sup>.

Biz to`plam gap material analizi bu kelishikli birikmalar vositasida sabab, maqsad, tarz, vosita ma`nolari ham ifodalanishi mumkinligini ko`rsatdi.<sup>2</sup>

O`zbek tilining taraqqiyoti jarayonida bu kelishikning ko`rsatilgan ma`nolarni ifodalashida jiddiy o`zgarishlar bo`lmadi. Asosiy o`zgarishlar fe`l boshqaruvi, tobe so`zning leksik tanlanishi, ba`zi xokim komponent vazifasidagi fe`lning boshqarilishiga sinonim fe`l bilan almashuvi, o`rin kelishigi affiksining ortiqcha qo`llanishi yoki noo`rin tushirilib qoldirilishi kabi hodisalar bilan bog`lanadi.

O`rin kelishikli birikmaning jo`nalish kelishikli birikmaga funktsiyadosh qo`llanishi. O`rin kelishigining jo`nalish kelishigi funktsiyasida kelishi 20—30-yillarda ancha keng tarqalgan xodisadir. Hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan jo`nalish kelishigini boshqarib, harakatning qayerga yo`nalganligini anglatuvchi o`rin holi ma`noli birikma yasovchi ba`zi fe`llar ko`rsatilgan davrda o`rin kelishikli birikmalar hosil qilgan. Bular qatoriga *kelmoq*, *qo`ymoq*, *aralashmoq*, *yotqizmoq*, *o`rnash.tirmoq*, *yozmoq* kabi harakat fe`llari, *jalb qilmoq*, *e`tibor qilmoq* kabi abstrakt ma`noli fe`llar kiradi. Misollar: *Yo`lda*

---

<sup>1</sup> Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika. M. L., 1960

<sup>2</sup> Amirova A. Obstoynatel`stva prichini i tseli v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike. Samarkand. 1967.

*begona kishilar uchrab bir shi bo`lmasa, xuddi bunda keladila A. Avloniy asarlarida bu fe`lning o`rin kelishigini boshqarishi ko`p uchraydi: Munda kelmoqdan maqsadingiz nima? (Advokatlik osonmu?) Emdi munda kelib, bu xurofotga botg`on, churig`on turmushi ichida o`ralib qoldim. (Advokatlik asonmu?) Emdi munda kelib, bu xurofotga bog`on, turmushi ichida o`ralib qoldim. Munda nimaga keldingiz? (Advokatlik osonmu?).*

Shuni aytish kerakki, *munda, bunda* formalari aslida «aniqlovchi-aniqlanmish» modelida yasalgan *bu yerda* birikmasining qisqarishi natijasida hosil bo`lgan. Hozirgi adabiy tilda *kelmoq* fe`li *bu yer* birikmasini qisqargan variantda emas, asl, to`liq holda boshqaradi: *Bu yerga nega kelding* kabi.

*Kelmoq* fe`li aslida harakatning biror nuqtadan boshlanib, boshqa nuqtaga yo`lanishi ma`nosini anglatadi. Shu ma`noda u sub`ekt va ikki o`rin holi valentligiga ega bo`ladi. Fe`lga qo`yiladigan kim? qayerdan? qayerga? so`roqlari uning qanday bo`laklar bilan yoyilishi kerakligini, grammatik jihatdan qanday ma`noli bo`lishini ko`rsatib turadi. Biroq ko`p hollarda nutqiy vaziyat taqozosi bilan harakatning boshlanish o`rnini ko`rsatishga zarurat tug`ilmaydi. Shuning uchun uni ifodalovchi chiqish kelishigidagi so`z o`z ifodasini topmaydi. Aks holda bu bo`lak reallashadi. Qiyoslang: *Qani, sho pochcha, gapur! Munda nima uchun kelding* (A. Avloniy. Advokatlik osonmu?). *Shahardan bu yerga qanday etib kelganimni bilmayman* (Q. q.).

*Old* so`zini jo`nalish formasida boshqarishi kerak bo`lgan *qo`ymoq* fe`li bu so`zni o`rin kelishigi formasida boshqargan: *Bu kamchiliklaroldimizga qo`yg`on vazifalarni bajarishg`o yo`l bermaydilar*. Hozirgi adabiy norma bo`yicha *qo`ymoq* fe`li bosh daraja emas, majhul daraja formasida qo`llanadi. Qiyoslang: ....*oldimizda qo`yg`on vazifa/oldimio`ga qo`yilgan vazifa*.

*Aralashmoq* fe`li: *Eski shahar aholisi, eski shahardagi voqealarg`o qiziqib tursalar ham biroq namoyishlarda juda sust orolashadir. Bu konstruktsiyada aralashmoq fe`li ko`proq ishtirok etmoq ma`nosini ifodalashga moyilligi seziladi. Shu ma`noda uning o`rin kelishigini boshqarishi to`g`ri bo`ladi. Lekin bu fe`l hozirgi adabiy tilda asosan «biror voqea-hodisaga qo`shilmoq» ma`nosini ifodalaydi. Garchi bu ma`nolar bir-biriga yaqin bo`lsada, keyingi ma`nosida qo`llanish norma tusiga kirgan. Qiyoslang: ...namoyishlarda orolashmoq — namoyishlarga aralashmoq: Bu oilada nima sir o`tsa, barchasi menga ayon. To`y, aza barisiga aralashaman.*

*O`rnashtirmoq* fe`lli birikma: *U voqtdog`i Shahrizabz hokimi Niyozali devondegı (Kenagas) bu kishini g`oyat ehtrom bilan qarshi olib Kitob shahrida o`rnashdirgan. Ko`rinadiki, bu fe`l hol vazifasidagi so`zni o`rin kelishigi formasida boshqarib kelgan. Hozirgi o`zbek adabiy tili normasi bo`yicha bosh daraja formasidagi o`rnashmoq fe`li «biror joyda yashamoq, hayot kechirmoq» ma`nosida variantli boshqaruvga ega bo`lib, jo`nalish kelishigini ham, o`rin kslishigini ham boshqara oladi: ...Arabboy bultur Toshkentga kelib, bu yerda o`rnashgan edi. U shaharga o`rnashib qoldi. Kvartiraga o`rnashmoq kabi.<sup>1</sup>*

Bu fe`l bosh daraja formasida sub`ekt va o`rin holi valentligiga ega, u quyidagi modelda birikadi: «Sub`ekt+o`rin holi( jo`nalish yoki o`rin kelishigi formasidagi ot) +fe`l»: *U shaharga o`rnashib qoldi; U bu yerda o`rnashgan edi* kabi. Biroq orttirma daraja vazifasida u variantlilikni saqlamaydi, o`rin holi vazifasida keladigan so`zni faqat jo`nalish formasida boshqaradi, shu xususiyat bilan 20—30 yillardagi boshqaruvdan farq qiladi. Qiyoslang: *...devonbegi bu kishini kitob shahrida urnashtirdi ...devonbegi bu kishini Kitob shahriga o`rnashtirdi*. Birinchi konstruktsiya «Sub`ekt + to`g`ri ob`ekt+o`rin

---

<sup>1</sup> Abdurahmanov G`. Tarixiy sintaksis// "O`zbek tili tarixiy grammatikasi" kursi bo`yicha materiallar. Toshkent 1974.

kelishigi formasidagi hol + fe`l» modelida tashkil topgan bo`lsa, ikkinchisi — hozirgi adabiy til normab» asosida hosil qilingani — o`rin holining jo`nalish formasida shakllangani bilan farqlanadi. Bu hol hozirgi davrda *o`rnashmoq* fe`li orttirma daraja formasida boshqaruv xususiyatini o`zgartirganini; yangi boshqaruv modeliga ega bo`lib qolganini ko`rsatadi.

*Yotqizmoq* fe`lli birikma: *Uni Mechnikuf kasalxonasida yotqizdilar*. Orttirma daraja formasidagi fe`lni o`rin kelishigidagi so`z bilan qo`llashni boshqaruv normasini buzish oqibati deb qarash kerak bo`ladi. Chunki o`rin kelishigi semantikasi harakatning ma`lum bir o`rinda sodir bo`lishini ko`rsatadi. Bunday sintaktik ma`no esa *yotqizmoq* fe`li bosh daraja formasida «o`rin band qilmoq» leksik ma`nosini anglatganda ifodalanadi: *Ukam kasalxonada yotibdi* kabi.<sup>1</sup> Orttirma daraja formasida bu fe`l «bir shaxsning boshqa shaxs tomonidan ma`lum o`ringa majburan yo`llamoq» ma`nosi ifodalanadi. Yo`nalganlik ma`nosi esa jo`nalish formasi vositasida ifodalanadi. *etqizmoq* fe`lining hozirgi davridagi birikish modeli yuqorida aytilgan ma`no strukturasi asosida aniqlanadi: *Otam ukamni kasalxonaga yotqizdi* kabi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda 20—30-yillarda orttirma daraja formasidagi *yotqizmoq* fe`lining o`rin kelishigini boshqarishini bosh darajadagi *yotmoq* fe`lining boshqarishini xususiyatiga o`xshatish — analogiya asosida boshqarish deb baholash mumkin.

20—30-yillarga oid materiallarda majhul va birgalik darajadagi fe`lning boshqarish normasining buzilish hollari kuzatiladi: *Jurnalimizning har sonido doimo yozilishib turadurg`on to`rt kuchli qalam ko`rmaymiz; lekin kelgusida buning bo`lishig`o ishonamiz. Qiyoslang: jurnalimizning har sonida yozilishib turadigan ...kuchli qalam (egasi) –jurnalimizning har soniga yozib turadigan kuchli qalam (egasi).*

---

<sup>1</sup> Yakubova X. Zalogi v uzbekskom yazike v sopostavlenii s zalogami russkogo yazika. AKD. Tashkent 1954.

Bunday ham grammatik, ham stilistik, nuqsonlar bilan yozishni o`sha davrdagi ba`zi qalam egalarining til normalarini bilmasligi, savodxonlik saviyasining past bo`lganligi bilan izohlash mumkin. Til taraqqiyotining keyingi etaplarida bu tipdagi kamchiliklarning uchramasligi tildagi normalashuv jarayonining yaxshi izga tushib ketganligidan dalolat beradi.

*E`tibor etmoq* fe`lli birikma: *Lekin ilgari yuzlab savodlik bo`lsa hozir minglab savodlik kishilarimiz maydondadir. Va xalq ichida savodsizlikni bitirish yo`lida juda katta e`tibor etadir.* Hozirgi iorma nuqtai nazaridan, avvalo, bu qo`shma fe`l *etmoq* emas, *bermoq* fe`li yordamida yasaladi. Ikkinchidan, jo`nalish kelishigini boshqaradi; uchinchidan, *yo`l* so`zi «ish», faoliyat» ma`sinani anglatadi. Shu muloxazalarga muvofiq yuqoridagi konstruktsiya hozirgi adabiy til normasi talabiga javob beradigan konstruktsiyaga aylantirilsa quyidagicha ko`rinishga ega bo`ladi: *hukumat savodsizlikni bitirish ishiga* (yoki bitirishga) *juda katta e`tibor beradi.* Bundan ko`rinadiki, 20—30-yillarda *e`tibor etmoq* fe`li vostasida yasalgan birikma bir qator leksik-grammatik o`zgarishlarni boshidan kechirgandan so`ng hozirgi adabiy til normasiga javob beradigan shaklga keldi.

*Jalb qilmoq* fe`lining 20—30-yillardagi konstruktiv xususiyatiga e`tibor beraylik: *hukumati butun diqqatni shul dehqonchilik xo`jaligini ko`tarish yo`lida jalb qiladur.* Bu fe`l o`rin kelishikli so`z (*yo`lida*)ni boshqarib kelyapti. Hozirgi kunda bu fe`l «*tortmoq*», «*o`ziga tortmoq*» ma`nosida jo`nalish formasini boshqaradi: *Lektor tezda tinglovchilar diqqatini o`ziga jalb qildi.* *Jalb qilmoq* fe`lining shu tipdagi birikma hosil qilishi normativ holdir. Bu konstruktsiyalardagi *jalb qilmoq* fe`lining ma`nosi va boshqaruv xususiyatlari farqli ekanini anglab olish qiyin emas. Birinchi konstruktsiyada *jalb qilmoq* fe`li «|qaratmoq» ma`nosini anglatadi. U hozirgi norma talabiga javob beradigan konstruktsiyaga

transformatsiya qilinsa, quyidagi ko`rinishga ega bo`ladi: ... *hukumati butun diqqatni ... dehqonchilik xo`jalig`ini ko`tarish ishiga (yoki ko`tarishga) qaratd* Ko`rinadiki, o`rn kelishikli boshqaruv jo`nalish kelishikli boshqaruv bilan almashdi. Bu hol taraqqiyotning boshlang`ich etaplarida *jalb etmoq* fe`lining boshqaruv xususiyati uning hozirgi davrdagi boshqaruv xususiyatidan ancha farqli bo`lganini ko`rsatadi. Hozirgi adabiy tilda birinchi tipli gaplarda *jalb qilmoq* fe`li «qaratmoq» ma`nosida qo`llanmaydi, shuningdek, o`rin kelishigini ham boshqarmaydi. U *tortmoq, o`ziga tortmoq* ma`nolarida jo`nalish formasini boshqarishi qat`iy norma tusini olgan.

O`rin kelishikli birikmaning boshqa kelishikli birikmalarga funktsiyadosh qo`llanish. Materialni o`rganish bunday qo`llanish nisbatan kam uchraydigan hodisa ekanligini ko`rsatdi. Shunday faktlarni ko`rib chiqamiz:

1. *Davom qilmoq* fe`li ish-harakatning to`xtatilmay, uzluksiz davom etkazilishi ma`nosini anglatganda, ish, faoliyat anglatuvchi otni yoki harakat nomini o`rin kelishigi formasida boshqaradi, to`g`ri ob`ekt ma`noli birikma hosil qiladi. *Muhofaza bo`limi — oxranko (oxrannoie otdelenie)* o`z ishida to ishchi vakillari «bitirilsin» degan qarorigacha davom qildi. Ularning ko`bisi ishlarida davom qildilar. Fe`lning bu boshqaruv modeli hozirgi adabiy tilida ham uchraydi, bunda odatda o`rin , kelishigi formasida harakat nomi qo`llanadi: *Ochil indamay yozishda davom etdi*. Hozirgi adabiy tilda *davom etmoq (qilmoq)* fe`li orttirma daraja formasida yuqorida aytilgan ma`noli otlar yoki harakat nomini tushum formasida ham boshqaradi: *Ahmoqligingni davom etkazaversang, oqibati voy bo`ladi. Onasining jig`i-biyron bo`lishiga qaramay, Salym varrak uchirishni davom qildiridi*.

Hozirgi adabiy tilda bu feʼlning mana shu boshqaruv xili normalashgani seziladi, oʻrin kelishigida boshqarish esa susayib, isteʼmoldan chiqib bormoqda.

2. Oʻrin kelishigi chiqish kelishigi funktsiyasida qoʻllanib, oʻrin holi, obʼekt maʼnoli birikma yasaladi: *yaxshisi shulki, esing borida etagingni yop degandek taxta-oʻqlogʻini yigʻshirib biror konturgʻa kirib xizmat qilmasam, bu yoʻlda borganda sil boʻlmoqdan boshqa natija chiqmaydurgʻongʻa oʻxshaydur* (Advokatlik osonmu?). *Qozi Abusaid kitob toʻplashga juda haris boʻlib, oʻzida boʻlmogʻon bir kitob koʻrsa, ikki bahosini toʻlashi bilan boʻlsada sotib olar, har fanda juda koʻb aziz va qimmatli kitoblar bor edi.* Hozirgi norma boʻyicha bu birikmalardagi *yoʻl, fan* soʻzlari oʻrin emas, chiqish kelishigi formasida qoʻllanadi. Chiqish kelishigi oʻrnida oʻrin kelishigining qoʻllanishi baʼzan hozirgi adabiy tilda ham uchrab qoladi: *...unda-bunda iz tushgan qorda yurib ketdi.* Qiyoslang: *Loydan yurma, quriqdan yur; Loydan emas, qordan yur* kabi. Koʻrinadiki, til taraqqiyoti natijasida hozirgi adabiy tilda yuqorida keltirilgan tipdagi konstruktsiyalarda tobe soʻzning chiqish kelishigi formasida qoʻllanishi normativ holatga aylangan.

Oʻrin kelishigi formasining Urxun-enisey yodgorliklari davridan boshlab chiqish kelishigi oʻrnida qoʻllanib kelgani, bu hodisa ayniqsa XIII—XIV asrlar uchun xarakterli boʻlgani uning keyingi davrlarda qoʻllanish normasida aks etmay iloji yoʻq edi. Bu formaning 20—30-yillarda ham chiqish kelishigi funktsiyasida qoʻllanish xollari uzoq oʻtmishdan meros boʻlib qolgan qoldiq norma izlaridir.

Oʻrin kelishiklari konstruktsiyalar taraqqiyotini kuzatish tobe komponent vazifasida qoʻllanuvchi koʻngina soʻzlar arxaiklashgani tufayli hozirgi adabiy tilda isteʼmoldan chiqqanini, uning oʻrnida boshqa leksik ekvivalentlar qoʻllanayotganini koʻrsatadi. Bunday faktlar ancha miqdorda uchraydi. Bu hol oʻzbek tilining taraqqiyoti davomida oʻrin

kelishikli birikmalar semantik jihatdangina emas, modellarning leksik to'ldirilishi, ya'ni birikma komponentlarining leksik birikuvchanligi ularning stilistik jihatdan silliqanishi jihatdak ham sezilarli o'zgarishlarga uchraganini ko'rsatadi (qavsda iste'moldan chiqqan so'z o'rnida hozirgi davrda qo'llanadigan so'z keltiriladi): *Muvaffaqiyat yolg'iz bu qism xalq xo'jligida bo'lmay balki butunisida (barcha sohada) bordir. "Turmush, hayot va tabiat har doim o'zgarib turadur degan" haqiqiy nazariya ichida (asosida) "fikr o'zgarishi ham bordi, kim fikrning o'zgarishiga ham turmush hayotining o'zgarishi sababdir" deydi. Har holda shuni aytmak kerakki Eronda xususan Turkiyada bu yo'lda (yo'nalishda) eskidan ham harakat yo'q emasedi.*

*Payt ma'nosini anglatuvchi chog' so'zining o'rin kelishigida qo'llanish hollari ko'p uchraydi. Bunday konstruktsiyada chog' so'zini uning sinonimi payt yoki vaqt so'zlari bilan oddiy almashtirib bo'lmaydi, bunga stilistik g'alizlik monelik qiladi. Qiyoslang: ...o'z so'zini tamomlay olmog'on bir choqda/ ...tamomlay olmog'on bir paytda kabi.*

O'rin kelishigini boshqaruvchi fe'llarning daraja formalarida qo'llanish normalari xam ba'zi o'zgarishlarga uchradi. Hozirgi norma bo'yicha bunday birikma majhul daraja formasidagi fe'l vositasida hosil qilishmaydi, orttirma va majhul darajada affikslari ishtirokida yasalgan forma vositasida hosil qilinadi: *...turkiy oylar...xalq tilida ishlatilib keladi kabi.*

O'rin kelishikli birikmalar taraqqiyotidagi o'zgarishlardan biri grammatik vositalarning ortiqcha qo'llanishi hodisasi bilan bog'lanadi. Hozirgi adabiy | til normasi bo'yicha o'rin kelishigi formasi qo'llanishi ortiqcha hisoblangan holatlar 20—30-yillarda ancha uchraydi.

Bu konstruktsiyalarda o'rin kelishigi formasidagi so'zlar payt munosabatini ifodalovchi konstruktsiyalar hosil qilishda ishtirok etgan. Ular aslda, tarixan payt ma'nosini anglatuvchi *payt, vaqt, zamon, kun*

kabi soʻzlar bilan «aniqlovchi + aniqlanmish» modelida birikib, atributiv birikma hosil qilganlar. Bu soʻzlar sifat yasovchi *-gi* affiksi bilan shakllangan holda qoʻllangan boʻlishi haqiqatga ancha yaqin: *ilgarigi vaqt (payt), endigi vaqt (payt), hozirgi kun, dastlabki payt*, kabi. Payt munosabatini ifodalovchi konstruktsiyalarda oʻrin kelishigi affiksi atributiv birikmaga yaxlitligicha qoʻshilib, *endigi kunda + feʻl, ilgarigigi zamonda + feʻl, dastlabki vaqtda + feʻl* modelida ishlatilgan. Til taraqqiyotining keyingi etaplarida sintaktik soddalashishga uchrash natijasida bu til birliklarida aniqlanmish komponent — *kun, zamon, vaqt, payt* soʻzlari tushirib qoldira boshlandi, ularga qoʻshiladigan oʻrin kelishigi formasi aniqlovchi komponentga qoʻshiladigan boʻldi. Bunda aniqlanmish komponent vazifasidagi *endigi, hozirgi* soʻzlarida *-gi* yasovchisining tushirib qoldirilishi yana oʻsha til vositalarining tejalishi qoidasiga muvofiq qisqarib, *-da* affiksi bevosita birlamchi formadagi *-endi, hozir, ilgari* kabi) soʻzlarga qoʻshilib ishlatila boshlagan. 20—30-yillarda kuzatiladigan *endi, hozir, dastlab* soʻzlarining oʻrin kelishigi formasida qoʻllanishi mana shu protsessni aks ettiradi. Atributiv modelida boʻlgan baʼzi soʻz birikmalarining sintaktik soddalashuvi leksikalizatsiya jarayoni bilan bogʻliq boʻlgan, yaʼni birikma mustaqil leksik birlik xususiyatini kasb etgan. Bunga *bunda, hozirda* soʻzlari yaxshi misol boʻla oladi. *Bunda* ravishi aslida *bu oʻrinda, hozirda* ravishi *hozirgi vaqtda* (paytda) atributiv birikmalarining soddalashuvi va leksikalizatsiyalashuvi oqibatida paydo boʻlgan.

.Til taraqqiyotining keyingi etaplarida, *ilgarida, dastlabda* kabi soʻzlarning *payt* maʼnosini ifodalashda oʻrin kelishigi formasida qoʻllanishiga chek qoʻyildi, chunki grammatik formalarni qoʻllash normalarining silliqlashib, takomillashib borishi ortiqcha ekanligi aniq sezilib qolgan oʻrin kelishigining qoʻllanilmasligini taqozo etardi.

Shu bilan birga, 20—30-yillarda hozirgi adabiy norma nuqtai nazaridan qo`llanilishi zaruriy bo`lgan hollarda o`rin kelishigi formasining tushib qolishi — *noo`rin* ellipsisga uchrashi kuzatiladi: *O`tgan kunlar davlat nashriyotidan kimlar xafa bo`lmadi, markazdagina emas, mahallalarda ham so`kuvchilar ko`p bo`ldi*. Payt munosabati ifodalanuvchi bunday birikma hozirgi kunda albatta o`rin kelishigi formasini olgan holda shakllanadi: *O`tgan kunlarda kimlar xafa bo`lmadi* kabi. Hozirgi adabiy til normasi bo`yicha tarz ma`nosini ifodalovchi bo`lak albatta o`rin kelishigi formasida shakllanadi.

Shunday qilib, o`rin kelishikli konstruktsiyalar taraqqiyotida ortiqchalik (izbitochnost`) va noo`rin ellipsislardan qutulib bordi, bu hol o`zbek tili sintaktik qurilishi takomillashishi, normalashuvi protsessining tarkibiy qismini tashkil etadi.

O`rin kelishikli konstruktsiyalarda hol munosabati ham ifodalanadi.

20—30-yillar materiallarida tarz holining ifodalanishi hozirgi kundagidan farqlanishi kuzatiladi. Bu yillarda tarz ma`nosiniig «aniqlovchi so`z + ravishda + fe`l» modelida ifodalanishi ayniqsa keng tarqalgan. Hozirgi adabiy tilda bu xil qo`llanishlar deyarli barham topdi.

O`rin kelishigi formasi maqsad munosabatini ifodalashga ham xizmat qiladi. Bu munosabat shu formada *maqsad, niyat, qasd*, so`zlari qo`llanganda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. O`rin kelishigi *maqsad* so`ziga qo`shilganda «birgalik» ob`ekti ma`nosi ifodalanadi degan fikrga qo`shilib bo`lmaydi. *Maqsad* so`zi ishtirokida tuzilgan birikmalar ayniqsa 20—30-yillar tiliga xos edi. Davrining keyingi taraqqiyotida *maqsadida* formasi stilistik chegaralanishga uchraydi. U hozirgi davrda asosan rasmiy ish, publitsistik stillarda yoki personaj nutqida tarixiy davr koloritini berish uchun qo`llanadi: *Bir vaqt bu idorada bir islohot bo`lurmikan maqsadida nashriyot mudirining muovinlig`ig`o*

*mahmadanalarning koruli bo`lg`on Salohitdin jikkak (muftizoda) degan bir kishinikiritildi. G`amanduhli keng sahroda torqotmoq va shu bahona bilan murid ovlamoqsida sayohatga chiqdi.*

## II Bob

### Ko`makchili boshqaruvli so`z birikmalari.

#### 2.1 Bosh kelishikni boshqaruvchi ko`makchilar vositasida hosil bo`ladigan birikmalar.

O`zbek tilida kelishiklar bilan bir qatorda sintaktik munosabat ifodalashda ko`makchilar ham katta o`rin tutadi. Sintaktik aloqaning analitik yo`l bilan ifodalanishini ta`minlovchi bu yordamchi so`zlarning ko`pchilik qismi hozirgi o`zbek tilida ham eski o`zbek tilida ifodalangan sintaktik munosabatlarni ifodalaydi. Ularning asrlar davomida turg`un ravishda ayni bir xil sintaktik munosabat ifodalashi ular funktsiyasida qat`iy differentsiatsiya sodir bo`lganini va xuddi shu belgisi bilan ular grammatik munosabat ifodalash vositalari arsenalida qat`iy normalashganini ko`rsatadi. Masalan, *uchun, kabi, singari, bilan, deb, tufayli, tomon* kabi ko`plab ko`makchilarning qat`iy bir sintaktik munosabat turlarini ifodalashi ana shunday holatni ko`rsatadi. Biroq o`zbek tilining grammatik munosabat ifodalash sistemasi uchun xos bo`lgan taraqqiyot jarayonni bu sistema tarkibiy qismini tashkil etuvchi vositalardan biri bo`lgan ko`makchilani ham qamrab olmay qololmas edi. Darhaqiqat o`zbek tilining taraqqiyotida ham ko`makchilarning grammatik ma`no ifodalanishida, ularning grammatik funktsiyasida sezilarli o`zgarishlar sodir bo`ldi.

Bu o`zgarishlar xarakteri turlicha:

1. ba`zi ko`makchilarning grammatik funktsiyasi til taraqqiyotining dastlabki etaplarida keng bo`lganligi, so`nggi davrlarda bu xil funktsiyalari torayganligi bilan ajralib turadi;

2. grammatik munosabat ifodalashda analitik va sintaktik usullar o`rtasida o`ziga xos raqobat, tanlanish jarayoni amalda bo`lgani ko`rinadi. Bu jarayon natijasida muayyan bir tip sintaktik munosabat ifodalanishida ba`zan ko`makchili, ba`zan esa kelishikli formalar ustun kelgan. Bu jarayonning xarakteri leksik, grammatik, ba`zan esa o`zbek tilining funktsional-stilistik taraqqiyoti kabi omillar

bilan izohlanadi. Keyingi hol o`z navbatida leksik-grammatik vositalar funktsional stillarning grammatik sathda differentsiatsiya qilinishini ko`rsatuvchi ob`ektiv belgilar sifatida namoyon bo`lishini, demak, ularni belgilash asosida funktsional stillar xarakteri va turlarini aniqlash imkoniyati yaratilishini ko`rsatadi.<sup>1</sup> Masalan, *orqasiba* ko`makchisining sabab ma`nosini ifodalashi og`zaki nutq stiliga xos. *Sababli* ko`makchisi esa bu munosabatni ifodalashda asosan rasmiy ish uslubida ko`llanadi. til taraqqiyotining dastlabki etaplarida ayniqsa *orqasida* ko`makchisi bunday differentsiatsiya qilinmay qo`llanavergani ko`zga tashlanadi. Bu kabi faktlarning seroblighi til grammatik sistemasiniig taraqqiyotida stilistik differentsiatsiyalash tendentsiyasi juda muhim o`rin egallaganligini ko`rsatadi.

Ko`makchilar leksik-grammatik vositalar bo`lib, ikki xil xususiyatga ega: 1) mustaqil *ma`nosini* yo`qotgan va faqat grammatik munosabat ifodalashga xizmat qiluvchi asl (sof) ko`makchilar (*bilan, kabi, uchun, uzra, qadar* va b.); 2) mustaqil leksik ma`noga ega bo`lgan, yordamchi funktsiyada keladigan so`zlar yoki funktsional ko`makchilar (*burun, boshqa, so`ng, ko`ra* va b. <sup>2</sup> Bular boshqaruv xususiyatiga ko`ra bosh, jo`nalish, chiqish kelishiklarini boshqaruvchi ko`makchilarga ajratiladi.

*Bilan* ko`makchili birikmalar. Bu leksik-grammatik vosita ko`p funktsional xarakterga ega bo`lib, juda xilma-xil munosabatlarni ifodalashga xizmat qiladi. Biroq qanchalik turli sintaktik munosabat ifodalashiga qaramay, unning ma`lum bir turdagi sintaktik munosabatni ifodalashga ko`proq xoslanishi hozirda ham, avvalgi tarixiy davrlarda ham ancha sezilarli bo`lgan. Masalan, hozir o`zbek adabiy tili dagi ko`makchi asosan birgalik (komitativ), vosita, payt, tarz, sabab kabi qator ma`nolarni ifodalaydi.

---

<sup>1</sup> O`zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. 1981.

<sup>2</sup> Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika. M-L. 1960.

*Bilan* ko`makchili birikma birgalik (komitativ) ma`nosini anglatganda sodir bo`luvchi harakat ish harakat sub`ektidan tashqari; shu ko`makchi bilan birikkan so`z anglatgan shaxs oti ham bajarishi ma`nosi ifodalanadi. Ilmiy adabiyotlarda *bilan* ko`makchisi bilan birikuvchi otning bunday holatda shaxs oti bo`lishi kerakligi qayd etilmaydi. Holbuki xuddi shu moment juda rang-barang grammatik munosabat ifodalovchi bu ko`makchining qanday sharoitda boshqasidan farq qiluvchi muayyan bir tipdagi grammatik munosabatni ifodalashini izohlab berish imkonini beradi.

Bu ko`makchili birikma birgalik (komitativ) ma`nosini ifodalaganda shu ma`konni o`z leksik ma`nosiga ko`ra aniq ifodalovchi *birga*, *birlikda* so`zlari bilan qo`llanish hollari uchraydi. Bu holda grammatik birgalik ma`nosi yanada kuchaytiriladi va aniqroq ifodalanadi<sup>1</sup>. Hozirgi kunda amalda bo`lgan o`zbek adabiy tilida birgalik ma`nosi *bilan birga* qo`shilmasi vositasida emas, ko`proq faqat *bilan* ko`makchisining vositasida, *birga*, *birlikda* so`zlarining ishtirokisiz ifodalanishi ko`zga tashlanadi. Bu hol bundan ellik-oltmish yil ilgari, 20—30-yillarda, xususan, A. Qodiriy asarlarida ham kuzatiladi.

Birgalik ma`nosi ifodalanuvchi bu tip konstruktsiyalarda *birga*, *birgalikda* leksik birliklarni ishlatilmay qolish hollarini (faktik materialning 98 protsentida shu hol kuzatiladi) til o`z taraqqiyoti protsessida ortiqcha elementlardan asta-sekin qutulib, silliqalanib borishi natijasi sifatida baholash mumkin. Bu kabi holatlarning til taraqqiyotining barcha etaplarida kuzatilishi tilning mukammallikka, lakonizmga intilish jarayoni doimiy, qonuniy bir hol ekanligini isbotlaydi.

O`zbek tnlida *bilan* ko`makchili birikma yordamida vosita ma`nosining ifodalanishi uzoq tarixiy davrlardan beri kuzatiladi. Biroq

---

<sup>1</sup> O`zbek tilining grammatikasi 1 tom Toshkent. 1975.

ba`zi fe`llarning boshqaruv normasida o`zgachalik sodir bo`lganini aytib o`tish lozim. Masalan, *Bu asarlar umuman turk tili bilan yozilg`ondirlar* kabi analitik konstruktsiyalarning sintetik usulida (...*asarlar turk tilida yozilgan* kabi) ifodalanish tendentsiyasi kuchayib hozir shu tarzda tso`llash normativ hol hisoblanadi.

*Bilan* ko`makchili birikmada sabab munosabati ifodalanadi. Bu holda *bilan* ko`makchisi *g`azab, dard, kasal, alam* kabi so`zlar bilan birikib qo`llanganda ifodalanadi. Ilmiy adabiyotlarda *bilan* ko`makchisi sabab ma`nosini anglatishda ko`p hollarda ot bilan birikib *o`lmoq* fe`liga tobe bo`lishi qayd etilib, *Onasi ochlik, yupunlikdasil kasali bilan o`lib ketgan* misoli beriladi. Darhaqiqat, 20—30-yillarda *o`lmoq* harakatining sababi ifodalanganda *bilan* ko`makchisi ancha keng qo`llangan. Bu hol boshqa turkiy tillarga, xususan, qozoq tiliga xosligi ham ma`lum. Bu tilda o`zbek tilidagi *bilan* ko`makchisiga funktsional-semantik jihatdan ekvivalent bo`lgan *-pen, -men* grammatik vositalari sabab ma`nosi ifodalashi ko`rsatilgan. Bu hol *bilan* ko`makchili konstruktsiyalarning yuqorida ko`rsatilgan tiplari sabab ifodalashda boshqa turkiy tillarda ham keng ishlatilishidan dalolat beradi. Biroq o`zbek tilining keyingi taraqqiyoti jarayonida bunday birikmalarda sabab ma`nosini *bilan* ko`makchisi emas, chiqish kelishigi ifodalay boshladi. Bundan ko`rinadiki, ma`lum grammatik munosabat ifodalanishida sodir bo`ladigan o`zgarishlar juda sekinlik bilan bo`ladi. Bu jarayonning davom etishida avval qo`llangan grammatik vosita keyin amalga kira boshlagan grammatik vosita bilan parallel qo`llanaveradi. Bora-bora ulardan biri stabillashib, normativ hodisa sifatida qabul qilinadi va ommaviy tarzda qo`llana boshlaydi. Yuqoridagi misollarda o`zbek tilining taraqqiyotida muayyan bir grammatyk munosabat vosita, sabab munosabati ifodalanishida ma`lum bir semantikali fe`llar analitik konstruktsiyalar hosil qilishdan sintetik konstruktsiyalar hosil qilishga qarab siljiganini ko`rish mumkin.

*Bilan* ko`makchisi *shu* ko`rsatish olmoshi bilan birikib kelganda sabab — asos ma`nosi ifodalanadi: *To`g`ri ko`chadan aljib lo`li ko`chasiga yurildingiz va shuning ila dovdiragan matbuotimizni qovjiratdingiz..* Bu tipdagi konstruktsiyalarda *bilan* ko`makchisi birikkan *shu* olmoshi oldingi fe`l ifodalagan harakat (*yurildingiz*) sababli, shu harakat asosida boshqa harakatning sodir bo`lganligi ma`nosini ifodalaydi.

Hozirgi adabiy tilda *bilan* ko`makchisi, birinchidan, qaratqich formasidagi ko`rsatish olmoshi bilan birikmaydi, asosan bosh kelishik formasidagi olmosh bilan birikadi. Ikkinchidan, bu tipdagi konstruktsiyalarda *shu* emas, *bu* olmoshi bilan birikadi. Qiyoslang: *...lo`li ko`chasiga yurildingiz shuning ila ... matbuotimizni qovjiratdingiz — lo`li ko`chasiga yurdingiz, bu bilan matbuotimizni qovjiratdingiz.* Ko`rinadiki, taraqqiyot ichida *bilan* ko`makchisi birikma sabab ma`nosi ifodalashda ham leksik, ham morfologik o`zgarishlarga uchradi.

*Bilan* ko`makchisi maqsad ma`nosini ifodalovchi konstruktsiyalar hosil qilishga xizmat qiladi. Biroq uning xususiyati o`zbek tilini tadqiq qilgan olimlarning e`tiboridan ko`p hollarda chetda qolib keldi. Uning maqsad ma`nosini ifodalashga xizmat qilishi ta`kidlangan ayrim ishlarda keltirilgan ba`zi misollar maqsad emas, boshqa ma`nolarni ifodalaydi. *Tinglovchilar... yangi texnika va ilg`or texnologiya bilan tanishdilar.* Bunda *bilan* ko`makchisi maqsad emas, ob`ekt ma`nosini ifodalashga xizmat qiladi.

*Bilan* ko`makchisining ko`p funktsional xarakterga ega ekanligi avval aytilgan edi. Bu ko`makchisining maqsad ma`nosini ifodalash xususiyatini ochish uchun, umuman maqsad ma`nosining spetsifikasini bilish kerak. Bunda, birinchidan, bu vosita qo`shilib keladigan leksik birlik — tobe so`z (ot yoki fe`l)ning ma`nosini, ikkinchidan, maqsad

ma`nosi kelajakda amalga oshiriladigan harakat bilan bog`liq bo`lishini nazarda tutish lozim.

*Bilan* ko`makchisining tilak, maqsad so`zlari *-i(sh)*, *-mak* formali harakat nomi va infinitiv bilan birikkan holda qo`llanishi ayniqsa ko`p uchraydi.

Hozirgi adabiy tilda *bilan* ko`makchisining *tilak* so`zi bilan qo`llanishi uchramaydi, uning o`rnida *maqsad*, *niyat* so`zlari ishlatiladi. Bu hol maqsad ma`nosini ifodalovchi birikmalarni hosil qiluvchi so`zlar leksik birikuvchanlik jihatidan ham o`zgarganini ko`rsatadi. Ayni paytda, bu so`zlarning stilistik differentsiyaga ham uchraganini kuzatish mumkin: og`zaki so`zlashuv nutqida ko`proq *niyat so`zi* qo`llangani holda, rasmiy ish stili tilida asosan *maqsad* so`ziniig ko`p-roq qo`llanishi tendentsiyasi seziladi.

Bu mulohazalar maqsad ma`nosini anglatuvchi konstruktsiyaning leksik to`ldirilishiga oid bo`lib, uning grammatik shakllanishida ham aniqlik, turg`unlik kasb etgan o`zgarish sodir bo`ldi. Hozirgi adabiy tilda ko`rib o`tilgan tildagi konstruktsiyalar *bilan* ko`makchisi vositasida emas, o`rin kelishigi vositasida shakllanishi normativ hol hisoblanadi.

*Bilan* ko`makchili birikma tarz ma`nosini ifodalaydi. Bu tipdagi birikmalarning ba`zilari taraqqiyot protsessida o`rin kelishikli konstruktsiyalar bilan parallel qo`llanish yoki asta-sekin ular bilan almashish tendentsiyasi kuzatila bordi. O`zbek tilining hozirgi taraqqiyot etapida bu xil konstruktsiyalarda *bilan* ko`makchisi o`rnida asosan o`rin kelishigi qo`llanadi.

Bu tipdagi konstruktsiyalar hozirgi adabiy tilda to`ligicha o`rin kelishikli konstruktsiyalar bilan almashgan. Shu bilan birga hozirgi adabiy tilda ayrim *bilan* ko`makchili konstruktsiyalar taraqqiyotning boshlang`ich etaplaridagi kabi qo`llanishi saqlangani, ular ayni paytda,

o`rin kelishikli konstruktsiyalar bilan almashishi ham mumkinligi kuzatiladi. Bu hol til taraqqiyoti protsessida «raqobatchi» konstruktsiyalar har doim ham bir-birini siqib chiqarmasdan, grammatik sinonim holatida yashayverishi mumkinligini ko`rsatadi. Bu *bilan* ko`makchisini o`rin kelishigi ko`rsatkichi *-da* formasi bilan bemalol almashtirish mumkin, Bu tipdagi konstruktsiyalar hozirgi adabiy tilida ham *bilan*, ham o`rin kelishigi formasida shakllanaveradi. Shu bilan birga keyingi yillarda o`rin kelishigi formasi *-da* vositasida shakllanish birmuncha kuchayganligi, uning normalashuv tendentsiyasi jadallashayotgani ham seziladi.

Uchun ko`makchili birikmalar. Bu ko`makchili birikmalar ifodalaydigan grammatik munosabatlar doirasi ham ancha kengdir. *Uchun* ko`makchiln konstruktsiyalar taraqqiyot protsessida struktura tuzilishi va grammatik ma`no turlari ifodalash jihatidan jiddiy o`zgarishlarga uchramadi. Materialni o`rganish bu konstruktsiyalar quyidagi grammatik munosabatlarni ifodalashga xizmat qilishini ko`rsatadi.

Bu ko`makchili birikma ifodalaydigan grammatik munosabatlar doirasi ham ancha kengdir. *Uchun* ko`makchili konstruktsiyalar taraqqiyot protsessida struktura tuzilishi va grammatik ma`no turlari ifodalash jihatidan jiddiy o`zgarishlarga uchramadi. Materialni o`rganish bu konstruktsiyalar quyidagi grammatik munosabatlarni ifodalashga xizmat qilishini ko`rsatdi:

1. Sabab munosabat ifodalanadi. Bu holda *uchun* ko`makchisi: 1) *-gan*, *-ganlik* formali sifatdosh bilan birikadi. Bu formalar esa egalik affikslarini oladi. Bunday qo`llash hozirgi o`zbek adabiy tiliga ham xos. Biroq 20—30-yillar materialida *-gan* formasi *-g`on*, *-kan* formalarida, *-lik* affiksi esa *-lik* formasida qo`llanish hollari ko`p uchraydi. Bu hodisa o`sha davr orfografiyasining singarmonizm qoidalari asosiga qurilgani

bilan izohlanadi. Demak, *uchun* ko`makchisining *-gan*, *-ganlik* formalari bilan birikib sabab ma`nosi ifodalashidagi farq asosan u bilan birikuvchi sifatdoshning *-lik* affiksining fonetik variantli qo`llanishi bilan cheklanadi.

2. 20—30-yillarda hozirgi o`zbek adabiy tilidagidan farqli ravishda sifatdoshning *-gan* formasi o`rnida o`g`iz elementi bo`lgan *-dik* affiksi qo`llanishi uchraydi. Lekin bu hodisaning juda kam kuzatilishi o`sha davrlardayoq *-dik* sifatdosh formasining iste`molda *chiqa* boshlaganini ko`rsatadi. Bu forma qoldiq hodisa sifatida ba`zan 50-yillargacha qo`llanishi kuzatiladi. Shu kundagi adabiy tilda u butunlay ishlatilmaydigan bo`ldi.

*Uchun* ko`makchisi *-gan* formali sifatdosh bilan qo`llanganda faqat sabab ma`nosini, harakat nomi formasi bilan qo`llanganda esa faqat maqsad ma`nosini ifodalashi qayd qilingan.<sup>1</sup> Ko`makchining bu xususiyati barcha turkiy tillarga xos ekanligini N. D. Dmitriev ham aytgan edi<sup>2</sup>. Faktik material analizi bu fikrlar to`g`riligini isbotlaydi. Holbuki ba`zi ilmiy adabiyotlarda *uchun* ko`makchisi *-(i)sh* formasi bilan birikkanda maqsad ma`nosini shuningdek, sabab ma`nosini ham ifodalashi aytiladi, biroq sabab ifodalashiga misol keltirishaydi.

Maqsad munosabati ifodalanadi. Bu holda *uchun* ko`makchisi *-(i)sh*, *-moq* formalari bilan qo`llanadi. Bu formalar hali amalga oshirilmagan, kelajakda yuzaga chiqarilishi maqsad qilingan harakatlarni anglatadi.. Konstruktsiyaning hokim komponenti vazifasidagi fe`l anglatgan harakat *-(i)sh*, *-moq* formali fe`l anglatgan. harakat-holatni yuzaga chiqarish maqsadida sodir bo`lganlikni ko`rsatadi.

*-(i)sh* formasining hozirgi adabiy tildan farqsiz qo`llangani holda uning bo`lishsiz shakli *-maslik/-mas* formasida *-lik* affiksisiz qo`llangani kuzatiladi.

---

<sup>1</sup> Koklyanova A.A. Poslelogi i slujebnie imena v uzbekskom yazike. «Trudi IYa AN SSSR». T. 3 1954

<sup>2</sup> Dmitriev N.K. Stroy tyurksix yazikov. M.: Izd-vo «Vostochnoy literaturi» 1962.

*Uchun* ko`makchisi ot bilan birikib, maqsad ma`nosini ifodalashga ham xizmat qiladi. 20—30-yillar materialida ham keng miqyosida kuzatiladigan bu holat hozirgi o`zbek adabiy tili uchun ham xos bo`lib, bu tip konstruktsiyalar evolyutsiyasida biron bir jiddiy o`zgachalik sezilmaydi.

Ob`ekt munosabati ifodalanadi. Bu holda hokim so`z odatda kim uchun? so`rog`iga javob bo`luvchi bo`lakka o`rin ochadi. Ko`rinadiki, uchun ko`makchisi bunday holda shaxs otlari, kishilik yoki belgilash olmoshlari bilan birikadi.

*Uchun* ko`makchili konstruktsiyalarning struktura jihatdan jiddiy o`zgarishlar bilai qo`llanishi hozirgi gazeta tilida kuzatiladi. Bu jihatdan sarlavhalar funksiyasida qo`llangan konstruktsiyalar ayniqsa xarakterlidir. Ular semantik jihatdan hozirgi adabiy tilda mavjud bo`lgan barcha tiplarni aks ettirgani holda struktura jihatidan o`ziga xoslikka ega.

Xullas, *uchun* ko`makchili birikmalarining bu xilda nihoyat ixcham formada qisqartib berilishi eng so`nggn o`n yilliklar mahsuli bo`lib, bunda rus tilida chiqadigan gazetalarda qo`llanuvchi sarlavhalarning struktura xususiyati o`z aksini topadi. Boshqacha qilib aytganda, bu tipdagi struktura birliklari bevosita rus tili ta`sirida paydo bo`lgan. Ular, hech shubhasiz, o`zbek tili grammatik qurilishini boyitdi va fikrning qisqa, lo`nda ifodalanishiga xizmat qiluvchi yangi hodisa sifatida o`zbek tili taraqqiyotida katta ijobiy rol` o`yiaydi.

*Sababli ko`makchili birikmalar.* Bu birikma ko`makchili konstruktsiyalar sabab munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. *Sababli* ko`makchisi grammatik sabab ma`nosini sof holda, boshqa biror ma`no ottenkalari qorishmagan holda ifodalaydi. Bunga ko`makchining yasalishiga xizmat qilgan so`z — sabab so`zining o`z leksik ma`nosiga ko`ra asl sabab tushunchasini ifodalashi asos bo`ladi. Xuddi mana shu

xususiyati jihatidan *sababli* ko`makchisi o`zbek tilining taraqqiyoti davrida biron jiddiy o`zgarishni boshidan kechirmadi. Bu ko`makchi faqat formal ko`rinishi jihatdan o`zgardi. *Sababli (sabablik)* ko`makchisi quyidagi so`z turkumlari bilan birikib keladi. Fe`lning funksional formalari: a) *-gan* formali sifatdosh bilan. *-ganlik* formasi ham bu ko`makchi bilan birikadi.

*Tufayli* ko`makchili birikmalar. Bu ko`makchi arabcha «tekinxo`r», «parazit» ma`nosini, forscha «yordam, qo`llash, o`rtoqlik» ma`nolarini anglatadi (29, 326). Hozirgi o`zbek adabiy tilida bu ko`makchi ko`rsatilgan leksik ma`nolarini yo`qotib, deyarli to`liq grammatikalizatsiyalashgan — yordamchi so`zga aylangan. Bu ko`makchi 20—30-yillar materialida uning uchramasligi, faqat 40-yillardan qo`llanishi aktivlashgani kuzatiladi. U *tufayli, tufaylidan, tufayligidan* formalarida qo`llanadi. Hozirgi adabiy til uchun normativ bo`lgan forma, shubhasiz, *tufayli* formasidir. *Tufaylidan, tufayligidan* formalari og`zaki nutqqa xosdir.

Bu ko`makchi haqida fikr yuritgan tadqiqotchilar yakdillik bilan uning sabab munosabati ifodalashini ko`rsatadilar.<sup>1</sup> Biroq bularning ko`pchiligi ko`makchinnng qanday turkum so`zlari bilan qo`llanishini, bundagi xususiyatlarni aytmaydilar. Xususan, ko`rsatilgan ishlarda bu ko`makchining bosh kelishikni boshqarishi qayd etilgani holda qaratqich kelishigini ham boshqarishi mumkinligini ko`rsatadilar.

*Tufayli* ko`makchisi asosan ot bilan birikib sabab munosabati ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari u kishilik, o`zlik, so`roq olmoshlari, sifat, harakat nomi, *-gan* formali sifatdosh bilan ham birikadi. Ba`zan hozirgi davrda *tufayli* ko`makchisini noto`g`ri qo`llash faktlari uchrab qoladi. *Varrak tufayli kushlar qo`rqitilganda zkin maydonidagi 17 protsent karam ko`p saqlanib qolgan*. Bunda

---

<sup>1</sup> Zakiev M.Z. Sintaksicheskiy stroy tatarskogo yazika. ADD. Kazan. 1963.,

*qo`rqitilgan* fe`li sabab ma`nosini ifodalovchi bo`lakni emas, vosita ma`nosini ifodalovchi bo`lakni talab qiladi. Shunga mos ravishda bu grammatik ma`noni ifodalovchi *bilan, yordamida* kabi vositalar qo`llanishi kerak edi: *Varrak bilan yordamida qushlar qo`rqitilganda...* kabi. *Tufayli* ko`makchisining vosita emas, sof sabab ma`nosni ifodalashga xizmat qilishini anglamaslik ko`rsatilgan xatonnig sodir bo`lishiga yo`l ochib bergan. Ko`rinadiki, har bir ko`makchini o`z spetsifik grammatik funksiyasida qo`llash grammatika sathida nutq madaniyati talablariga javob berishning birinchi shartlaridan hisoblanadi.

Soya ko`makchili birikmalar. *Bu ko`makchi fors tiliga oid bo`lib, akademik V. A. Gordlevskiy uni ko`makchi ot deb hisoblaydi va rus tilida «ten` sen`, blagodarya» ma`nolarini anglatishini ko`rsatadi*<sup>1</sup>. O`zbek tilida ko`makchi vazifasida qo`llanganda o`z leksik ma`nosini yo`qotib, asos, natija, sabab grammatik ma`nolarini ifodalaydi. Bu ko`makchili birikmalar 20—30- yillarda ham ancha aktiv qo`llangani kuzatiladi. 20—30-yillar yozma manbalarida bu ko`makchinnng ko`p ishlatilishi oldingi adabiy til traditsiyasi ta`siri deb baholanishi mumkin. Bunga soya so`zining fors tiliga oidlig`ini, Oktabr` revolyutsiyasigacha bo`lgan davr yozma manbalarida arab-fors tili ta`siri kuchli bo`lganligini eslash kifoya qiladi. keyingi taraqqiyot protsessida ko`makchining ishlatilish ko`lami kamayib bordi. U hozirgi adabiy tilda deyarli qo`llanmaydi. Bu hol ba`zi fors tili elementlarining istemoldan chiqa borishi bilan izohlanadi.

*Orqali / orqaliq* ko`makchili birikmalar. Bu birikmalar o`zbek tilining taraqqiyoti ichida struktura-grammatik jihatdan jiddiy o`zgarishlarga uchramadi. O`zbek tili tadqiqotchilari uning ikki xil ma`no — vosita va o`rin ma`nolari ifodalashini qayd qiladilar. Uning

---

<sup>1</sup> Abdurahmanov G`.A. Tarixiy sintaksis// "O`zbek tili tarixiy grammatikasi" kursi bo`yicha materiallar. Toshkent 1974.

sabab munosabati ifodalashga xizmat qilganini ko`rsatuvchi fakt ham bor. 20—30-yillar va keyingi davrlarda *orqali* ko`makchisi vosita ma`nosini ifodalashda keng qo`llanadi. Vosita ma`nosi abstrakt xarakterli bo`lib, *orqali* ko`makchisi birikkan so`z (odatda ot) o`z semantikasiga ko`ra quyidagicha ifodalanadi.

*Orqali ko`makchisi boshqaradigan ot shaxs ma`nosini anglatganda, shu shaxs harakatning sodir bo`lishida vositachi bo`ladi, harakat shu shaxs ishtirokida bajariladi.*

*Ot bilan birikkan ko`makchisi keng ma`noda ma`nosini anglatadi. Bu holda orqali ko`makchisi o`rin munosabati ma`nosini ifodalashga xizmat qiladi.* Shunday qilib, bu ko`makchili birikmaning o`zbek tilining taraqqiyoti jarayonida funktsional-grammatik doirasi bir oz toraydi. Formal jihatdan sodir bo`lgan o`zgarish *orqaliq* formasining iste`moldan chiqib, *orqali* formasining normativlik kasb etgani bilan cheklanadi.

*Sayin* ko`makchili birikmalar. taraqqiyoti mobaynida bu ko`makchili konstruktsiya ifodalagan ma`nolarda jiddiy o`zgarishlar sodir bo`lmadi.

1. Ot jonsiz predmet, hodisa ma`nosini angatganda, shu predmet yo hodisa harakatning sodir bo`lishida *vosita vazifasini bajaradi* *Vaqt ma`nosini anglatuvchi* kun, yil, hafta *kabi so`zlar bilan birikib, harakatning shu so`zlar anglatgan vaqt ichida takrorlanib turishi yoki sodir bo`lish kuchi — intensivligi oshgani yoki kamaygani ma`nosini ifodalaydi.* *Sayin* ko`makchisi *-gan* formali sifatdosh bilan qo`llanganda fe`l ifodalagan harakat intensivligi o`zgargani (kuchaygani yo susaygani) ma`nosi ifodalanadi.

-gan formasi bilan birikkan *sayin* ko`makchisi formasi 20—30-yillarda ifodalagan ma`noni hozirgi adabiy tilda ifodalamaslik faktlari ham uchraydi.

*Sari ko`makchili birikmalar.* Hozirgi o`zbek adabiy tilida bu ko`makchili konstruktsiyalar bir necha xil sintaktik munosabatlar ifodalashga xizmat qiladi. Harakatning yo`nalish o`rni ma`nosini anglatadi. Bu holda birikmaning tobe komponent vazifasida harakat yo`nalgan o`rinni anglatuvchi cho`l, maktab, ko`cha, marra, zindon kabi so`zlar qo`llanadi. Hokim fe`l esa semantik jihatdan ketmq, yurmoq, chiqmoq, otlanmoq, tashlanmoq kabi harakat fe`llari (glagoli dvijeniya)dan bo`ladi. 20—30-yillarda *sari* ko`makchisining abstrakt ot bilan qo`llanishi ham kuzatiladi: *Bilmadim biz madaniyat sari orqa bilan ketdik, to`g`risi madaniyat jariga orqamiz bilan umbaloq oshdik.* Abstrakt ot (*madaniyat*) o`rin tushunchasi bilan bog`lanmaydi. *Ketdik* fe`li ham bu kontekstda asl leksik ma`nosidan chetlashib, «yuz o`girdik, ters qaradik» ma`nolarini ifodalaydi (*madaniyatdan yuz o`girdik, madaniyatga ters qaradik* kabi). Shuning uchun fe`l semantikasiga bog`liq ravishda bu kabi qo`llanishda *sari* ko`makchisi harakatning o`rniga emas, ob`ektga yo`nalganlik ma`nosini anglatadi.

*Sari* ko`makchisi payt anglatuvchi *kun, yil* so`zlari bilan birikib, harakatning intensivligi, darajasi o`zgarib borishini ko`rsatadi. Bunday hollarda *kun sari* birikmasi *kundan-kunga, yil sari* birikmasi *yildan-yilga* birikmalariga sinonim bo`ladi. Hozirgi adabiy tildagi *ot + sari (yil-sari)* modeli o`rniga yuqorida ko`rsatilgan» chiqish kelishigidagi *ot+jo`nalish kelishigidagi ot»* modelidagi birikmaning (*yildan-yilga* kabi) qo`llanishi normativlik kasb etdi.

Shunday qilib, *sari* ko`makchili birikmalar taraqqiyotida sezilarli keskin o`zgarish sezilmaydi. Sarlavha funktsiyasida qo`llangan konstruktsiyalarda hokim so`zining ellipsisga uchrashi hodisasi o`zbek

tili taraqqiyotining gazeta tilining rivojlanishi bilan bog`liq bo`lgan umumiy tendentsiyasini aks ettiradi.

*Bo`yincha/bo`yicha* ko`makchili birikmalar. Bu ko`makchilar aslida bitta ko`makchi bo`lib, 20—30-yillarda *bo`yicha* ko`makchisining og`zaki nutqqa xos fonetik varianti — *bo`yincha* ko`proq qo`llangan. Bu ko`makchili birikmada a) harakat sodir bo`lishida asos ma`nosi ifodalanadi. b) o`rin ma`nosi ifodalanadi Hozirgi adabiy tilda bu xildagi funktsiyadoshlikka butunlay barham berilgan — o`rin munosabati ifodalashda *bo`ylab* ko`makchisi qo`llanadi.

*Bo`yi* ko`makchili birikmalar. Bu birikma payt munosabati ifodalaydi. Bu holda u asosan vaqt bildiruvchi yil, kun, tun kabi so`zlar bilan birikib, harakatning shu so`zlar anglatgan vaqt ichida davom etganlik ma`nosini anglatadi.

*Bo`yi* ko`makchisi boshqa semantik guruhga oid so`zlar bilan, xususan, *yo`l* so`zi bilan birikkanda ham payt ma`nosi ifodalaydi. Bu holda yurish harakati *yo`lda* davom etayotgan vaqt ichida boshqa harakat sodir bo`lganlik ma`nosi anglashiladi: *Uning orqasidan ketayotgan Haydarov yo`l bo`y biror so`z demadi.* *Bo`yi* ko`makchisi o`zbek tilining taraqqiyoti ichida funktsional-grammatik jihatdan biror sezilarli o`zgarishga uchramadi.

*Kabi* ko`makchili birikmalar. Bunday birikmalarda o`xshatish, qiyoslash munosabati ifodalanadi. To`plangan material tahlili o`zbek tilining taraqqiyoti jarayonida *kabi* ko`makchisining qo`llanishi 20—30-yillarda juda keng tarqalganini ko`rsatadi. A. Qodiriyniig «O`tgan kunlar» romanidan sidirg`asiga olish usuli bilan to`plangan, shuningdek, boshqa manbalardan olingan material *kabi* ko`makchisi uning sinonimlari bo`lgan singari, yanglig` ko`makchilariga qaraganda beqiyos darajada keng qo`llanganini ko`rsatadi.

20—30-yillarga oid materiallarda *kabi* ko`makchisi asosai ot, *-gan* formali sifatdosh, ba`zan ravish, sifat va *bor*, *yo`q*, *mumkin* kabi modal so`zlar bilan ko`p qo`llanadi. O`xshatish ma`nolari quyidagicha reallashtiriladi:

1. Otlar bilan qo`llanganda ikkita predmet, voqea-hodisa bir-biriga o`xshatiladi — birikma o`xshatish ma`nosini ifodalaydi:

2. Kabi ko`makchisi **-gan** formali sifatdosh bilan qo`llanganda konstruktsiya kesimidan anglashilgan harakat sifatdosh anglatgan harakatga o`xshab amalga oshirilgani — tarz holi ma`nosi ifodalanadi. Bunday konstruktsiyalarda *kabi* bilan birikkan sifatdosh yo sifatdosh oborot tarz holi funksiyasini bajaradi.

3. 20—30-yillarda «ko`chirma gap + *kabi*» yoki «ko`chirma gap + *degan kabi*» modelida tuzilgan konstruktsiyalar ancha keng qo`llangan. Bularda harakatning sodir bo`lishi ko`chirma gap ifodalagan mazmunga o`xshatiladi, qiyoslanadi, atributiv va hol munosabati ifodalanadi. Bu tipdagi konstruktsiyalar hozirgi adabiy tilda deyarli uchramaydi. Konstruktsiya tarkibida *kabi* ko`makchisi o`rnida odatda *-day* affiksi bilan ishlatiluvchi so`z (ya`ni, *deganday*) ishlatiladi. Bu hol keyingi yillarda o`xshatish ma`nosi sintetik usulda ifodalana boshlaganini ko`rsatadi.

*Singari* ko`makchili birikmalar. Bu birikmada o`xshatish ma`nosi ifodalanadi. Biroq uning qo`llanish chastotasi 20—30-yillarga oid til materialida ancha cheklangan. Bu ko`makchi XIX asr manbalarida ham qayd etilmagan. Bu hol *singari* ko`makchisining nisbatan aktiv qo`llana boshlashi o`zbek tili taraqqiyotiing 40-yillardan keyingi davriga to`g`ri keladi deb taxmin qilishga asos beradi. Yozuvchilar — Oybek, A. Qahhor, Shuhrat asarlari tekstida A. Qodiriy asarlaridagiga qaraganda bu ko`makchi ko`proq ishlatila boshlashi ham yuqoridagi fikrni dalillaydi.

*Yangliq* ko`makchili birikmalar. Tadqiqotchilar o`xshatish ma`nosini ifodalovchi bu ko`makchining arxaiklashganini qayd etadilar . To`plangan faktik materiallarni o`rganish bu fikrlarni to`la tasdiqlaydi — bu ko`makchili birikma hatto 20—30-yillarda ham cheklangan miqdorda qo`llanganini uning «O`tgan kunlar» romanida atigi uch o`rinda uchraganidan ham bilsa bo`ladi: *Negaki men o`zinning sevgan va muhabbat qo`ygan erimdan buncha uyatsizlik, bu yanglig` vafosizlikni ko`rdim. Masalaning bu yanglig` boshlanishiga va buning ustiga moyillanishiga Oftob oyim nima deyishini bilmay qoldim... besh-olti kun ichida bu yanglig` uyquda ham bu masalaga bu jihat bilan qarab bekning ishqiga ishongisi kelmas edi.*

«O`tgan kunlar»da asosan *kabi* ko`makchisining qo`llanishini aytgan edik. Bu romanda *yanglig`* ko`makchisining faqat bu ko`rsatish olmoshi bilan qo`llanishi uning ot, sifatdash bilan birikishi cheklana boshlaganidan, bu ko`makchining ma`lum bir turkum so`zlari bilan qo`llanishida tanlanish printsipti kuchli ravishda amal qila boshlaganidan dalolat beradi. Hozirgi kundagi o`zbek adabiy tilida bu ko`makchi poetik nutqda qo`llanishga xoslangan, ba`zan esa badiiy asar tiliga asarga tarixiylik ruhi berish uchun stilistik maqsadlardagina ishlatiladi: *Shimol ishchisi ham quvnardi, balkim, Sharqdan borib qolsa bu yanglig` sado* (A. Oripov).

*Yuzasidan ko`makchili birikmalar.* Bu ko`makchining eski o`zbek tilida qo`llangani haqida ma`lumotlar yo`q. Ilk sovet davriga oid materiallarda ham bu ko`makchi vositasida shakllangan birikmaning qo`llanganini uchratmadik. Bu leksik-grammatik til 50-yillardan so`ng aktivroq qo`llana boshladi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida ikki xil: ob`ekt va sabab ma`nolarini ifodalashga xizmat qiladi. Ob`ekt ma`nosi ifodalanganda ikki xil holat kuzatiladi. bo`yicha ko`makchisiga sinonim bo`ladi. Bu holda birikmadagi hokim fe`l ifodalagan harakatning nimaga

tegishlilik, nimaga aloqadorligi ma`nosi ifodalanadi. Ilmiy adabiyotlarda bu ko`makchi anglatgan ma`nosiga ko`ra *to`g`risida, haqida, xususida* ko`makchilariga yaqin turishi aytiladi . Darhaqiqat, quyidagi misollarda bu ko`makchi *to`g`risida, haqida* ko`makchilariga xos bo`lgan fikrning mosligi, yo`nalganligi ma`nosini ifodalaydi. Shu ma`noni ifodalaganda *yuzasidan* ko`makchisi *to`g`risida, haqida* ko`makchilariga sinonim bo`ladi.

## 2.2. Jo`nalish kelishigining boshqaruvchi ko`makchilar bilan hosil bo`ladigan birikmalar.

*Binoan* ko`makchili birikmalar. Ilmiy adabiyotlarda bu ko`makchining ish-harakat sodir bo`lishda asos, tayanch manba bo`lgan ob`ekt — sabab kabi grammatik ma`nolarni anglatishi aytiladi. Ko`makchi *shu* olmoshi bilan birikkanda, olmoshdan oldin keltirilgan gapda bayon qilingan mazmun (voqea-hodisa) boshqa biror harakat sodir bo`lishiga asos bo`lganlik ma`nosi ifodalanadi.

Ko`makchi *sabab* so`zi bilan birikkanda harakat-holatning sodir bo`lishi sababi ma`nosi sof holda anglashiladi. Umuman, *binoan* ko`makchisi asos bilan birga ma`lum darajada sabab munosabatini ham ifodalaydi. Mantiqan biror harakat sodir bo`lish asosida boshqa biror voqea-hodisa, harakat yotadi. Shundan kelib chiqilsa, *binoan* ko`makchisi sinkretik tarzda sabab-asos ma`nolarini ifodalashga xizmat qiladi deyish mumkin. Bu ma`nolardan sababning kuchliroq, yorqinroq ifodalanishi tobe komponent vazifasida *sabab* so`zi qo`llanganda aniq seziladi.

*Ko`ra* ko`makchili birikmalar. Bu ko`makchi chiqish va jo`nalish kelishiklarini boshqaradi va shu xususiyatga ko`ra farqli sintaktik ma`nolar ifodalaydi.

Chiqish kelishigidagi so`z birikkanda shu so`z anglatgan tushunchaga boshqa so`z anglatgan tushincha qiyos qilinadi, “qiyosiy darajani ifodalashning usullaridan biri bo`ladi”.

*Ko`ra* ko`makchisi harakat-holatning, voqeaning sodir bo`lish sababi va asosi ma`nolarini ifodalaydi.

*Qaraganda* ko`makchili birikmalar. Bu birikmada qiyoslash, asoslash ma`nolari ifodalanadi

*Qaraganda* ko`makchisining hozirgi adabiy tildagi funktsiyasi aniqlik kasb etib bo`lgan. Uning predmetlar va harakatlar belgisini qiyoslab ifodalashiga misollar keltiramiz: *Saroyning to`rida boshqalarga qaraganda ko`rkamroq bir hujra, anovi hujralarga kiyiz to`shalgani holda, bu hujrada qip-qizil gilam... Qushbegi boshqalarga qaraganda insofli hokimdir. Shuning uchun kundizgiga qaraganda saroy jonlik.* Bu tip konstruktsiyalarda (keyingi ikki misolda) qiyos ma`nosini ifodalovchi ko`ra ko`makchili konstruktsiyalarda bo`lganidek, belgining qiyoslanayotganini ifodalovchi *-roq* affiksining qo`llanmasligi mumkin. Bu ma`no *qaraganda* ko`makchisi orqali beriladi. Shunday ekan, tildagi ortiqchalikdan qochish qonuniga asosan *-roq* affiksini ishlatmaslik mumkin bo`ladi. Bu ko`makchi o`zidan keyingi gapda ifodalanayotgan fikrning nimaga asoslanganlik ma`nosini anglatadi.

*Qarab* ko`makchili birikmalar. Bu birikmalarda harakat yo`nalgan tomon va asos, miqdor, o`lchov ma`nolari ifodalanadi. Shu jihatdan bu tipdagi birikmalarning hozirgi davrdagi qo`llanishi bilan 20— 30-yillardagi qo`llanishi va funktsiyalarida farq sezilmaydi.

«O`tgan kunlar» romanida uning hozirgi adabiy tildagidan farqli qo`llangan bir holat uchradi. Bunda ko`makchi payt ma`nosini anglatgan so`z bilan birikib, harakatning qancha vaqt davom etganlik ma`nosini anglatadi: *...bir necha soatlarga qarab cho`zilgan bu tomoq majlisi bilan albatta u yaxshi chiqisholmaydi* *Qarab* ko`makchili birikma harakatning shu ko`makchi bilan birikkan so`z anglatgan tomonga yo`nalganligi ma`nosini ifodalaydi. Bu holda *qarab* ko`makchisi *tomon* ko`makchisiga sinonim bo`ladi. Hokim fe`l harakatni («glagoly dvijeniya») anglatadi.

*Qarab* ko`makchisi shaxsii, predmetni anglatuvchi otlar bilan birikkanda ham birikmada o`rin munosabati ifodalanadi. Biroq bunda

harakat yo`nalishi shu shaxs yoki predmet turgan yoki joylashgan tomonga yo`nalganligi ma`nosi ifodalanadi. Qarab ko`makchisi bilan jo`nalish formasida birikkan so`z anglatgan voqea-hodisa, holat, biror harakatni amalga oshirishda qiyoslashga, tayanishga asos bo`ladi.

O`rin munosabati ifodalashda *qarab* ko`makchisi *tomon* ko`makchisiga nisbatan so`zlashuv nutqiga ko`proq xosligi kuzatiladi. O`zbek tilining taraqqiyotida bu stilistik differentsiatsiya ancha kuchli amal qiladigan bo`lib qoldi.

*Qadar* ko`makchili birikmalar payt, o`rin, tarz kabi bir necha xil sintaktik munosabatlar ifodalashga xizmat qiladi. Ba`zi misollar keltiramiz. Shu bilan birga 20—30-yillar materialida *qadar* ko`makchisining hozirgi adabiy til normasi talabidan juda yiroq tarzda qo`llanganini ham ko`rish mumkin.

Hozirgi adabiy tilda *ko`rdigi qadar* birikmasi *ko`rgani qadar* yoki *ko`rganchalik* kabi vositalarda beriladi. *Qadar* ko`makchisining o`g`iz gruppasi shevalariga xos bo`lgan *-dik* sifatdosh formasi bilan birikishi butunlay barham topgan.

*Qadar* ko`makchisining ko`rsatish olmoshlari bilan birikuvchanligi o`zgargani ham kuzatiladi. Harakatning qay tarzda sodir bo`lishini darajalab ko`rsatuvchi *u qadar* birikmasi hozirgi adabiy tilda *shu qadar* holida qo`llanadi. *Qadar* ko`makchisining *u* emas, *shu* olmoshi bilan birikishi normativlik kasb etgan. Bu faktlar *qadar* ko`makchisi funktsional-grammatik jihatdan taraqqiyot ichida juda keskin o`zgarishlarga uchramagan bo`lsada, leksik-grammatik birikuvchanlik jihatdan ancha silliqdashib borganini ko`rsatadi.

*Dovur* ko`makchili *birikmalar*. Arabcha *davr* so`zidan yasalgan *dovur* so`zi 60-yillarda ham ko`makchi vazifasida kam qo`llangani qayd

etiladi.<sup>1</sup> Ilmiy manbalarda bu ko`makchi ifodalaydigan grammatik ma`no haqida ba`zan bir-biriga zid va asossiz bo`lgan fikrlar bildiriladi. Masalan, ayni bir manbada uning o`rin va payt ma`nosini ifodalashi aytiladi.<sup>2</sup> To`plangan materialni o`rganish bu ko`makchi 20—30-yillarga oid manbalar tilida ham kam qo`llanganini ko`rsatadi.

Shuni aytish kerakki, *dovur* ko`makchisi faqat payt munosabatini ifodalaydi. U *hali*, *kech* kabi payt ma`nosini anglatuvchi so`zlarni jo`nalish formasida boshqarib, harakatning shu so`zlar anglatgan vaqt chegarasida sodir bo`lganini ifodalaydi. Xuddi shu ma`noda bu ko`makchi *qadar* ko`makchisiga, *-gacha* affiksiga grammatik sinonim bo`ladi. Qiyoslang: *Kechga dovur poezd kutibmiz* (so`zlashuvdan)/*kechga qadar/kechgacha poezd kutibmiz*. Biroq *dovur* ko`makchisining hozirgi kunda yozma adabiy tilda ham, so`zlashuvda ham qo`llanishi nihoyatda cheklangan. Vaqt chegarasi ma`nosini anglatish uchun asosan *-gacha* va *qadar* vositalari qo`llanadigan bo`lib qoldi.

*Qarshi* ko`makchili birikmalar. Hozirgi o`zbek adabiy tilida bu ko`makchi jo`nalish kelishigi formasidagi so`z bilan birikib, ob`ekt ma`nosini ifodalaydi. Hokim fe`l shaxsga yoki biror harakat, hodisaga qarshi qaratilgan harakat ma`nosini anglatadi. *Qarshi* ko`makchisining bu ma`nosi hozirgi adabiy til uchun asosiy ma`no hisoblanadi. Xuddi shu ma`noni ifodalashi doirasida u o`zbek tilining taraqqiyoti davomida o`zgarmay qoldi.

Ba`zi tadqiqotchilar *bilan* va *qarshi* ko`makchilarining ma`no va qo`llanish xususiyatlarini qiyoslab, 30-yillarda «har holda birinchisi (*bilan* ko`makchisi deyilmoqchi) shaxs otlari bilan *qarshi* esa abstrakt otlar bilan ishga solingan» deyiladi.<sup>3</sup>

---

<sup>1</sup> Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika. M.L., 1960.

<sup>2</sup> Said N.va Yo`ldosheva A. Grammatika. 1-qism. Toshkent. 1936.

<sup>3</sup> Hozirgi o`zbek tili. Sintaksis. Toshkenet. 1966.

Biroq 20—30-yillarga oid faktik materiallarning analizi bu fikr haqiqatdan uzoq ekanligini ko`rsatadi: *bilan* ko`makchisi konkret ma`noli otlar bilan ham, abstrakt ma`noli otlar bilan ham bir xil qo`llanavergan. Konkret otlar bilan qo`llanishiga misollar:...*dehqonlarning boshqo qotlomlarini o`zining jilovida olib borar edi va shu maqsadlar bilangina rus qozoqlari bilan kurashar edilar. Biz berilmadik dushmanlar bilan kurashdik.* Abstrakt otlar bilan qo`llanishiga misollar:Ko`b xotinliq bilan kurash, yosh qizni erga bermaslik, er va xotin huquqining borabarligi va boshqalar.

Materialni tahlil qilish ko`rsatadiki, *bilan* va *qarshi* ko`makchilari kurash ma`nosini anglatuvchi *kurashmoq* fe`li yoki *kurash* oti bilan hosil qilingan birikmalardagina qiyoslanishi mumkin. Demak, tahlilda bu ko`makchilar birikuvchi otlar semaitikasidan emas, balki hokim komponent semantikasidan kelib chiqish kerak bo`ladi. *Kurashmoq* fe`li (yoki *kurasi* oti) esa ayni paytda *bilan* ko`makchisi bilan ham, *qarsha* ko`makchisi bilan ham birikma hosil qila oladi. Birinchi holda bu fe`l valentligi *kim bilan? nima bilan?* so`roqlariga javob bo`luvchi bo`laklar bilan yoyilishni (konkretlashtirilishni) talab qiladi, ikkinchi holda *kimga qarshi? nimaga qarshi?* so`roqlariga javob bo`luvchi bo`laklar bilan yoyilishni talab qiladi. (*Kurashmoq* fe`lining ma`nosi bu hollarda ruscha *borot`syas kem? s chem? borot`syas protiv kogo? protiv chego?* fe`llari ma`nosiga to`g`ri keladi). Xuddi mana shu valentliklari doirasida *kurashmoq*, *kurash* so`zlari hozirgi adabiy tilda ham bilan va qarshi ko`makchilari bilan birikma hosil qilaveradi. Bunga bunday hollarda bilan va qarshi so`zlarining sinonimik grammatik vosita sifatida amal qilishiasosiy sabab bo`ladi.

### 2.3. Chiqish kelishigini boshqaruvchi ko`makchilar vositasida hosil bo`ladigan birikmalar.

*Boshqa ko`makchili birikmalar.* Bu birikma ifodalangan voqea-hodisa (mazmun) shu ko`makchi birikkan so`z anglatgan shaxs yo harakatga aloqasiz, ulardan mustasno tarzda sodir bo`lganlik ma`nosini anglatadi. Xuddi shu ma`noda u chiqish kelishigidagi so`zni boshqaradi. Ko`makchining bu asosiy ma`no va grammatik xususiyati taraqqiyot jarayonida tub o`zgarishlarga uchramadi: *Otabekdagi bir necha kunlik o`zgarishg muhabbatdan boshqa hodisa deb ma`no berolmas edi. Yo`q: isbot uchun vijdonimdan boshqa shohidim yo`q (O`.k)*

20—30-yillar materialida boshqa ko`makchisining tashqari ko`makchisi vazifasida ishlatilish hollari kuzatiladi: *Musulmon o`lka tashkilotlarining rizolig`idan boshqa musulmolorg`o tegishli bo`lg`on mol va mulklarni musodara qilinmosin. Majlisdan manim ruxsatimdan boshqa so`zlashingiz otangiz bilan eringizning o`limlarini tilashingizdir (O`.k)*

*Keyingi (so`ng) so`ngra* ko`makchili birikmalar. *Keyin/so`ng* ko`makchili birikmalar semantikasi 60—70 yil ichida katta o`zgarishlarga uchramaganini ko`rsatadi. Shu bilan birga bu ko`makchilar 20—30-yillarda ba`zan, hozirgi normalarga mos kelmaydigan tarzda ishlatilgani ko`zga tashlanadi. 1) *so`ngra* ko`makchisi 20—30-yillar materialida keyingi davrlarga qaraganda ko`proq ishlatilgan: *Shuning uchun bir muddat so`ngra zehnidan selinadir.* 2) *-gina* affiksi *-roq.* affiksi funktsiyasida ko`makchiga qo`shilish hollari hozirgi adabiy tilda uchramaydi: *Shu vaqt mashhur Obid shayton o`z qudasi bo`lg`on Mirjalolboybachchani mahalla kamissiyalari qatorig`o qo`ishb yuborg`on, mana bu akamning*

*xizmatlarining samarasi so`nragina bizga bilinib qoldi. Qiyoslang: so`nragina bizga bilinib qoldi –keyinroq bizga bilinib qoldi.*

O`z semantik xususiyatiga ko`ra tobe so`zning chiqish kelishigi formasida bo`lishini taqozo etuvchi *so`ng* ko`makchisi ba`zan tobe so`z bilan bu formasiz birikadi, *-dan* formasi ellipsisga uchraydi. Bu hodisa *so`ng* ko`makchisi grammatik vositasiz ham o`z leksik ma`nosida payt ma`nosini aniq anglata olishi bilan izohlanadi. Xuddi shu sababga ko`ra payt ifodalashga xizmat qiluvchi grammatik vosita bo`lgan chiqish kelishigi formasining «ortiqcha» sifatida tushirilib qoldirilishi jiddiy nuqson sifatida idrok etilmagan: *Zero, bo`zchining bu o`tinchini qush uchgan so`ng otilmoqchi bo`lgan sopqon qabilida hisoblar va foydasiz bir iltimos deb cho`chir edi. (O`.k). Shuning uchun men borgan so`ng bo`ladigan hukm majlisida ehtimol qarindoshlaringizni qutqarishga muvaffaq bo`lurman (O`.k). Ikkinchi o`tirish Ziyo akanikidan ikki kun so`ng qutidornikida bo`ldi (O`.k). ...go`yo ish o`tgan so`ng kelibsan degandek tishushingan edi (O`.k).*

Til taraqqiyotining keyingi davrlarida qo`llanmay qolgan grammatik vositaning leksik vosita hisobiga kompensatsiya qilinishi norma talablariga javob bermay qoldi. Oqibatda hozirgi adabiy tilda *so`ng* ko`makchisi chiqish formasidagi so`z bilan birikishi odat tusiga kirdi.

A. Qodiriyning «O`tgan kunlar» romanida 101 marta qo`llangan *so`ng* ko`makchili konstruktsiyalar ichida atigi 4 marta tobe so`z kelishik formasini olmay ifodalangan. Bu hol o`sha davridayoq *so`ng* ko`makchisi so`zni to`la shakllangan kelishik formasida boshqarish normativ bo`lib qolganini ko`rsatadi.

### **III Bob. Ko`makchi otlar vositasida hosil bo`ladigan birikmalar taraqqiyoti masalalari.**

#### **3.1 O`rin ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan boshqaruvli birikmalar.**

*Tomon ko`makchili birikmalar.* Bu ko`makchi ot o`z leksik ma`nosidan chetlashib, ko`makchi funktsiyasida qo`llanadi. U jo`nalish formasidagi so`z bilan birikib, harakatning ma`lum o`ringa yo predmetga yo`nalganligini, harakating kelib chiqish o`rnini, shuningdek, biror o`rinda sodir bo`lganligini anglatadi. Sanab o`tilgan ma`nolarning ifodalanishi nuqtai nazaridan bu ko`makchili konstruktsiyalar o`zbek tilining keyingi taraqqiyoti davrida deyarli o`zgarishga uchramadi.

Biroq 20—30-yillar materialida u qaratqich kelishigini ham boshqargan. *Qaratqich formasini asosan kishilik olmoshi qabul qilgan: Bu voqtlorda uning tomonidan Movarounnahr gina emas, balki Eron ham Arabistonning bir qismi zabt qiling`on edi. Mening tomonimdan 1923 nchi yilning yozida yozilg`on edi. Qipchoqlar bizning tomondan otilgan miltiq o`qlariga chidolmay Samarqand darbozasini tashlab, Kamalon darbozasiga yuzlandila.(O`.k).*

20—30-yillarda tomonidan ko`makchisi bilan birikkan ot bosh kelishik formasida ham qo`llangan: *Mana shu masalalar haqida quriltoy tomonidan chiqorilg`on 15 moddalik qarorni ish maydonida amalga oshirish har bir sho`ro ziyolisi maorifi ishchilarining zo`r vijdoniy vazifalaridir. Yuqorida Otabek tomonidan olingan maktubning haqiqati mana shu yo`sindaxiyonatning natijasi edi... (O`.k)...chunki otabek Kumush tomonidan so`kilgan va tashlangan edi. Bu xabarlar ko`pchilik tomonidan juda oddiy ortiqcha sovuqqonlik bilan qarshi olindi (O`.k).*

*Oldida ko`makchili birikmalar.* 20—30-yillar materiali bu ko`makchining *qoshida ko`makchisi funktsiyasida ham qo`llanganini ko`rsatadi: O`zbekiston xalq maorif qo`misorig`ining ilmiy markazi*

*oldida o`lkani o`rganish markazi buyrosi, o`zbeklarni o`rganish qo`mitasi tuzilib muayyan reja bilan ishlashka kirishdilar. Hozirgi adabiy tilda bunday semantikali konstruktsiyalarda qoshida ko`makchisining qo`llanishi qat`iy normalashgan bo`lib, oldida ko`makchisining qo`llanishi butunlay barham topgan.*

*Huzur ko`makchili birikmalar. Bu ko`makchi asl arabcha bo`lib, «hozir bo`lish», «bor bo`lish», «ishtirok» (prisutstvie) ma`nosini anglatadi. Bu so`z ko`makchi vazifasida old negizidan yasalgan ko`makchilarga sinonim bo`ladi. Xitobnomada «general» so`zi uch o`runda uch xil yozilg`on. Bunda totor tilining ta`siri borlig`i ham ko`rinadir, chunki rus askari ichida totor bo`lganidek, askar boshliqlari huzurida totordan tilmochlar ham bor edi.*

*Huzur so`zi negizidan yasalgan ko`makchi otlar old so`zidan yasalgan ko`makchi otlarga sinonim bo`lishi qat`iy chegaraga ega: huzur, old ko`makchilari shaxs otlari bilan birikkanda, ob`ekt munosabati ifodalab, o`zaro sinonim bo`ladi: Farida o`z xaloskorlari huzuriga peshvoz chiqib salom berdi. Ertalab sovxozning bosh agronomi Nurmat Oltiev Karim otaning huzuriga keldi. Bunday hollarda huzuriga ko`makchisi oldiga ko`makchisiga sinonim bo`ladi: Karim otaning huzuriga/oldiga keldi.*

Jonsiz predmet anglatuvchi otlar bilan bu ko`makchi birikma hosil qila olmaydi, bunday holda *old* ko`makchisi ishga solinadi va o`rin munosabati ifodalanadi:

*Tol oldida sarhovuz*

*Yor ko`rgani kelganmiz (fol`klor)*

*Eshik oldida turgan mulozimlar yetti bukilib ta`zim qildilar. Bunday konstruktsiyalarda qo`llangan old ko`makchisi huzur ko`makchisiga sinonim bo`lolmaydi. Bu hol huzur, old grammatik vositalarining o`zaro sinonim bo`lish imkoniyati ular ifodalaydigan grammatik munosabat*

*turlariga bog`liq ekanligini ko`rsatadi: ob`ekt munosabati ifodalashda ishtirok etgan huzur, old so`zlari o`zaro sinonimligi asosida almashib qo`llana oladi. Biroq o`rin munosabati ifodalashga xizmat qiluvchi old so`zi huzur so`zi bilan almashib qo`llanmaydi. Qiyoslang: Tol oldida/huzurida sarhovuz, eshik oldida/huzurida turgan... Keyingi taraqqiyot protsessida o`zbek badiiy adabiy tilida shaxs otlari, o`zlik olmoshi bilan birikib ob`ekt munosabati ifodalashda huzur ko`makchisi kengroq ishlatiladigan bo`ldi. Bu protsess borgan sari kuchayib, normativlik kasb etib bormoqda.*

*Yon ko`makchili birikma. Bu ko`makchi ot ham old ko`makchi oti ifodalaydigan sintaktik ma`nolar ifodalaydi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida jo`nalish formasida bu ot o`rin va ob`ekt munosabatlarini ifodalaydi. Bu ma`nolarni ifodalash jihatidan ilk funksiyasndan farqlanmaydi.*

*«O`tgan kunlar»da yoniga ko`makchisi ustiga ko`makchisi funksiyasida qo`llangani ham kuzatiladi: Azizbek odatdagi qarshilash yoniga bir navozish ham ilova qilib hojiga yuqoridan joy ko`rsatdi. Hozirgi adabiy tilda bu ma`noli konstruktsiyalarda yoniga ko`makchisi emas, ustiga ko`makchisining qo`llanishi norma tusiga kirgan. Bu hol 20—30-yillardan keyingi taraqqiyot davomida yoniga ko`makchisining grammatik funksiyasida aniqlik kasb eta borganidan dalolat beradi. O`rin va chiqish kelishiklari formasida qo`llangan yon ko`makchi oti taraqqiyot ichida jiddiy o`zgarishlarga uchramadi,— uning hozirgi adabiy tilda qo`llanish va sintaktik ma`no ifodalash xususiyatlarida keskin farqlar kuzatilmaydi. Shuning uchun ularni alohida tasvirlamaymiz. Shu bilan birga aniq ko`zga tashlanadigan ba`zi farqli holatlar ham bor. Xususan, yoniga ko`makchisi hozirgi adabiy tilda qo`llanishi normativlik kasb etgan qoshida ko`makchisi funksiyasida qo`llangan: Siz og`aynilar ilgari xon yonida qanday xizmatda bo`lgan bo`lsalaringiz, endi ham o`sha vazifada qola berasizlar.(O`.k) O`nta qizil choyxona yonida choyxona sho`rolari bor, ular hech qanday ish*

*qilmaydilar. Azizbek yonida qanday mavqe tutgan bo`lsa, Normuhammad qushbegi oldida undan ham yuqoriroq va ma`noliroq e`tibor qozondi (O`.k).*

*-dagi affiksi qo`shilishi bilan yasalgan yonidagi so`zi ot bilan , birikadi va qoshidagi so`ziga sinonimik ma`no ifodalaydi. Masalan: Bir qoncho ixtisosiy ta`lim-tarbiya maktablari yonidagi muvaqqat chora o`laroq davom etkan tayyorlash bo`limlari sekin-sekin yo`qolmoqdadur.*

*Orqasidan ko`makchili birikmalar. Bu ko`makchi bir necha xil ma`nolarni ifodalaydi: 1. Harakatning biror predmetning ort tomonida sodir bo`lganini ko`rsatadi: Bola orqasidan Hasanali ko`rindi (O`.k). Uch o`rkachli tog` orqasidan to`lin oy o`z husnini namoyish qilishdan uyalgansimon asta-sekin ko`tarila boshladi. 2. Voqea-hodisalar sodir bo`lishidagi ketma-ketlikni ifodalaydi: Bizda ovqat orqasidan berilgan qovun mehmondorchilik tugadi degani bo`ladi, yoshulli.*

20—30-yillarga oid til materiallarida bu ko`makchi qaratqich formasidagi *shu* ko`rsatish olmoshi bilan birikib, *natijasida* ko`makchisi funksiyasini bajargan: *Shuning orqasidan muallimlarda ham bunga qorshi bir loqaydlik va ahamiyat bermaslik sezilmoqdadir.* Hozirgi adabiy tilda bu tipdagi konstruktsiyalarda sabab munosabati ifodalashda natijasida ko`makchisi ishlatilishi normalashgan, orqasidan ko`makchisining qo`llanilishi butunlay barham topgan.

*Orasida ko`makchili birikmalar. Bu ko`makchi bir necha sintaktik munosabatlar ifodalashga xizmat qiladi. Uning o`rin munosabatini, odamlar orasidagi munosabatni, ikki xil vaqt orasida sodir bo`ladigan harakatni anglatishi ilmiy manbalarda qayd etilgan. Bu ko`makchi o`rin munosabati ifodalashi jihatdan biror o`zgarishni boshidan kechirmadi: Ular orasida Otabek kuyov ko`rindi (O`.k). Tog`u toshlar orasida shuncha yurganing yetar, shaharga qayd, Geologiya institutida ishlaysan.*

Payt ma`nosini ifodalaydi: *Men so`z orasida yana unga qarab oldim* (O`.k). *Maktubni isitma orasida yozganingizga tamoman qanoat hosil qildim.* (O`.k) *O`n kun orasida hozirlikni bitirib to`y qildik* (O`.k)

20—30-yil va undan keyingi yillar materialida ba`zan o`rin kelishigi formasi ellipsisga uchragani kuzatiladi. Bu hodisa (ellipsisga uchrash) hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan baholash bo`lib, aslida XIII— XIV asrlarda bu ko`makchi (*orasinda* formasidan tashqari) bosh kelishik formasida ham qo`llangani qayd etilgan. Demak, 20—30 va undan keyingi yillarda *orasida* funktsiyasida *ora* ko`makchisining qo`llanishi ma`lum darajada oldingi davrlarga xos bo`lgan normaning (qoldiq normaning) namoyon bo`lishi deb baholash mumkin.

Bu ko`makchi abstrakt ma`noli otlar bilan birikkanda tarz ma`nosini ifodalashga xizmat qilgan. Bu hol 20—30-yillar materialida kuzatiladi. Hozirgi adabiy: tilda bu xil munosabat o`rin kelishigi formasini olgan *orasida* ko`makchi vositasida emas, bevosita abstrakt otga qo`shiluvchi o`rin kelishigi formasi vositasida ifodalanadi. Bu fakt bu turdagi munosabat ifodalash doirasida analitik tendentsiyaning kuchsizlanib, sintetik tendentsiyaning normalashganini ko`rsatadi.

Hozirgi adabiy tilda bunday hollarda *orasida* ko`makchisi o`rniga uning sinonimi bo`lgan *ichida* ham qo`llanadi: *qayg`u orasida/qayg`u ichda yozgan* kabi. Har holda *orasida* ko`makchisi harakatning qay tarzda sodir bo`lishini ifodalash uchun qo`llanmaydigan bo`lib qoldi. Bu hodisa ayrim leksik-grammatik vositalar ma`lum turdagi sintaktik munosabat ifodalashdagina iste`moldan chiqishi mumkinligini, boshqa tur munosabat ifodalashda esa avvalgicha amal qilaverishini ko`rsatadi. Bu hol sintaktik munosabat ifodalash vositalarining funktsional evolyutsiyasi ancha murakkab tarzda kechishini ko`rsatadi. Til tarixi materiallari tahlili *orasida* ko`makchisi *orasiga* ko`makchisi funktsiyasida ham qo`llanganini ko`rsatadi: *Anlarniڭ arasыnda xusumat tushti* (Rabg`uziy). *...tushkay aramызda firaq.* Hozir bu xildagi

konstruktsiya *ora* ko`makchisi faqat jo`nalish formasida qo`llanadi. Bu lingvistik hodisa asosida fe`l boshqaruv normasida sodir bo`lgan o`zgarish yotadi, albatta. XIII—XIV asrlarda o`rin kelishigi formasini boshqargan *tushmoq* fe`li uchun hozirgi adabiy tilda jo`nalish formasini boshqarish normativ holat bo`lib qoldi.

### 3.2 Ob`ekt ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan birikmalar taraqqiyoti.

*Ich* ko`makchili birikmalar. Bu ko`makchi jo`nalish formasida qo`llanganda birikmada harakatning predmetning ich tomoniga yo`nalganlik ma`nosi ifodalanadi. Hokim komponent vazifasida odatda harakat anglatuvchi fe`llar, tobe komponent vazifasida esa konkret ma`noli otlar qo`llanadi. Konstruktsiyalarni tashkil qiluvchi leksik to`ldirg`ichlarning yuqoridagi ko`rsatilgan semantik tipdagi otlar va fe`llarda bo`lishi bu tipdagi konstruktsiyalarning o`rin munosabati ifodalashga xoslanishini ta`minlaydi. Til tarixi materiallariga nazar tashlash<sup>1</sup> aytilgan fikrni tasdiqlaydi: *kirdi, keldi* kabi harakat fe`llari XVI— XVII asrlardan *ichiga* ko`makchili konstruktsiyalar hosil qilishda ishtirok etgan.

*Ichida* ko`makchili birikmaning sintaktik munosabat ifodalash doirasi birmuncha keng; u o`rin, tarz, payt, ob`ekt ma`nolari ifodalashga xizmat qiladi. Bu tip kostruktsiyalarda 50-yillardayoq *ichida* ko`makchisi o`rnida o`rin kelishigi qo`llanishi kuzatila boshlagan.<sup>2</sup> Hozirgi davrda analitizmdan sintetizmga o`tish tendentsiyasi birmuncha kuchaygani seziladi. «O`tgan kunlar» romanidan olingan quyidagi materiallar hozirgi adabiy tilda *ichida* ko`makchisi o`rnida o`rin kelishigi formasi qo`llanishi normativ bo`lib qolganini ko`rsatadi. Qiyoslang: *Shu bilan birga, sening sababi vujiding bo`lgan bir kishi o`z hayoti ichida bolasi orqali bir orzu-havas kechirmakchi (O`.k). ...o`z hayotida ..orzu havas kechirmakchi. Men shu soatning ichida toshkent jo`nashga majburman (O`.k)* Qiyoslang: *Shu soatda yoki shu soatdayoq//shu soatning o`zidayoq.*

<sup>1</sup> Abdurahmanov G`, Shukurov Sh. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis. Toshkent 1973.

<sup>2</sup> Kononov A.N. Poslelogi v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike. Tashkent 1951.

*Ichra* ko`makchili birikmalar. Hozirgi poeziya tilida *ichida*, *ichiga* ko`makchilariing stilistik sinonimi bo`lgan *ichra* ko`makchisi uchrab turadi. Qizig`i shundaki, bu ko`makchi *ichida* ko`makchisi kabi harakatning predmetning ichida sodir bo`lishini ham, *ichiga* ko`makchisi kabi harakatning predmet ichiga yo`nalganligini ham anglatadi<sup>1</sup>. *Topilsa keksalar ichra topilur*

*Rekord qo`yib, shuhrat olmagan kishi* (G`. G`ulom).

*yerni titratuvchi kurashlarning*

*O`tlarini ko`ngling ichra solsang* (H. Olimjon)

Birinchi misolda qo`llangan *ichra* ko`makchisi *ichida* ko`makchisiga, ikkinchisida esa *ichiga* ko`makchisiga sinonimdir. Boshqacha aytganda, *ichra* ko`makchisi ikki xil semantik razryadga oid fe`l bilan bemalol birikma hosil qila olgan. Hozirgi adabiy tilda esa fe`lning semantik xususiyatiga bog`liq ravishda birikishda differentsiatsiya sodir bo`lgan: *Topilmoq* fe`li *ichida* ko`makchisi vositasida; *solmoq* esa *ichiga* ko`makchisi vositasida yoki jo`nalish formasidagi so`zni boshqarib birikma hosil qiladi. Qiyoslang: *Keksalar ichra topilur / keksalar ichida topilur: Kurash o`tlarini ko`ngling ichra solgansan / kurasho`tlarini ko`nglingga solgansan. Ichiga* ko`makchisi konkret ma`noli ot bilan qo`llanib, o`rin ma`nosini anglatadi. *Choyni idish ichiga solmoq*. Shunday qilib, hozirgi adabiy tilda *ichra* ko`makchisiga xos bo`lgan ham yo`nalganlik, ham o`rin (lokal) ma`nolar ikki xil ko`makchi vositasida alohida-alohida ifodalanadigan bo`ldi. Traditsion poetik vositalar qo`llanishiga keng maydon ochib beradigan poetik tilda esa *ichra* ko`makchisi yo`nalganlik va o`rin (lokativ) munotabatlarini ifodalash xususiyatini saqlab qoldi.

---

<sup>1</sup> Nazarova X. Osobennosti sintaksicheskogo stroya uzbekskogo literaturnogo yazika kontsa XV-nachala XVI v. Tashkent 1979

*Ost/tag* ko`makchili birikmalar. *Ost/tag* birikmali ko`makchi otlari taraqqiyot ichida funktsional-grammatik jihatdan keskin o`zgarishlarga uchramadi.

*Ostida / tagida* ko`makchisi vositasida o`rin munosabati ifodalanganda, fe`l anglatgan harakat bevosita ko`makchi birikkan ot anglatgan predmetning ostki qismida yoki atrofida sodir bo`lganligi ifodalanadi. *Bu holda tobe ot konkret ma`noli bo`ladi: Shu choqda oyoq ostida yotgan Sodiq ko`tarilib-ko`tarilib o`zini otmoqda edi* (O`. k). *Uning tig`i zulmi bilan qora qoniga belangan o`g`lining, otasining, onasining, og`asining mazlum gavdasi tuproq ostida hali chirib bitmay turib...* (O`.k). *6 nchi iyulda Tajan tagida (yonida) oq g`uvardiyachilar kuchli ravishda munhazm bo`ladilar.* Keyingi misol.da fe`l anglatgan harakatning tobe ot anglatgan predmet (Tajan)ning yon-atrofida sodir bo`lganligi ma`nosi ifodalanadi. Avtorning *tagida* so`zidan so`ng qavsda *yonida* so`zini keltirishi bejiz emas., albatta. Rus tilidan tarjima qilingan bu asarda «Pod Tadjenom» - birikmasi ifodalagan ma`noni *tag* yordamchi so`zi bilan hosil qilingan *Tajan tagida* birikmasi aniq ifodalay olishi mushkulligini sezgan avtor qavsda *yonida* so`zini berishga majbur bo`lgan va shu yo`l bilan harakatning Tajan yon-atrofida sodir bo`lganligi ma`nosini ifodalagan. Hozirgi adabiy tilda bu tipdagi ma`noni ifodalashda *tag* yoki *ost* ko`makchisi qo`llanmaydigan bo`ldi. *Bitva pod Moskvoy, pod Kurskom* birikmalari *Moskva, Kursk ostonalaridagi jang* birikmalari vositasida beriladigan bo`ldi. Shunday qilib, keyingi taraqqiyot davomida *tagida* ko`makchisining ba`zi ma`nolarni ifodalashi iste`moldan chiqdi. Uning o`rniga mustaqil ma`noli ot bilan o`rin kelishigi affiksi qo`llana boshlashi o`rin munosabati ifodalashda ko`makchini ishga solish (analitizm) tendentsiyasidan sintetizm tendentsiyasining ustun kelganligini ko`rsatadi.

*Ostida* ko`makchili birikmada ko`makchi bilan birikuvchi tobe ot abstrakt ma`noli bo`lsa yoki abstrakt ma`no kasb etsa, tarz, sabab, ob`ekt ma`nolari ifodalanadi.

O`zbek tilining keyingi taraqqiyoti etapidagi tobe komponent vazifasidagi otlarning semantik jihatdan tanlab ishlatilishi kuchaydi. Natijada ostida ko`makchisi asosan tashqi ta`sir ma`nosini anglatuvchi himoya, tazyiq, qistov so`zlari, shuningdek, ta`sir kabi so`zlar bilan birikib sabab ma`nosini ifodalash xususiyati turg`unlashadi: *Rad qilib bo`lmaydigan faktlar tazyiqi ostida jinoyatchilar qilmishiga iqror bo`lishdi. Baz`zi ayollar... may ta`siri ostida engiltaklik qilib xushomadgo`yliklar qila boshlaydi* (Nav). *Hozirda zamonlarning asta-omonsiz yemiruvchi ta`sir ostida o`z husn va taravotini yo`qotgan eshikni ohista taqillatdi.* Bu kabi konstruktsiyalarda tashqi sabab ma`nosi ifodalanadi — hokim fe`l ifodalagan harakat-holat biror tashqi ta`sir natijasida ro`yobga chiqadi.

20—30-yillardan so`ng sabab va boshqa grammatik munosabatlarning ifodalanishida *ostida* ko`makchisining qo`llanishi cheklana bordi. Uning o`rnida *bilan, sababli* kabi ko`makchilar yoki boshqa grammatik vositalar (masalan, o`rin kelishigi) ishga solinadigan bo`ldi.

*Ostida* ko`makchisi maqsad ma`nosi ifodalashga xizmat qiladi. Biroq bu hol nihoyatda cheklangan. Bizning materialimizda bir o`rinda — *maqsad* so`zi birikib kelganda shu ma`noni ifodalagani aniqlandi: *Yuqoridog`i mantiqiy mudofaani o`qig`on har bir kishi din va din muzofaachilarining kim ekanligini va qanday maqsad ostida mudofaachi bo`lg`onini sezib oladir.* Hozirgi o`zbek adabiy tilida bu tipdagi konstruktsiyalarda *ostida* ko`makchisi o`rnida o`rin kelishigi yoki *bilan* ko`machisi qo`llanadi. Qiyoslang: *...qanday maqsad ostida/qanday maqsadda/qanday maqsad bilan mudofaachi bo`lg`onini sezib oladi.*

*Uzra* ko`makchili birikmalar. Uz + ra elementlaridan tashkil topgan bu ko`makchining o`ziga xos xususiyatlaridan biri *-ra* affiksi ifodalaydigan ma`no bilan bog`lanadi. U jo`nalish-o`rin kelishigi affiksi bo`lib, o`rni bilan harakatning predmet ustiga yo`nalganlik ma`nosini, o`rni bilan esa uning predmet ustida sodir bo`lish ma`nosini ifodalaydi. Birinchi holda u *ustiga*, ikkinchi holda *ustidan* ko`makchisiga sinonim bo`ladi.

Tadqiqotchilar bu ko`makchi XV asrgacha prozaik va she`riy asarlarda, XV asrdan she`riy asarlarda kelishini,<sup>1</sup> hozirgi o`zbek tilida esa juda kam qo`llanishini, arxaik asarlarga o`xshatilib, shular stiliga moslab yozilgan poetik asarlarda uchrashini<sup>2</sup> aytadilar. Ayrim tilshunsolar yozishicha, «bu ko`makchi eski o`zbek adabiy tili stiliga xos bo`lib, hozirgi o`zbek adabiy tilida faqat poeziyada uchraydi»<sup>3</sup>. Darhaqiqat, bu ko`makchi hozirgi o`zbek adabiy tilida asosan poetik asarlar tilida qo`llanadi. Ayni paytda uning proza nutqida, xususan, gazeta tilida qo`llanishi ancha aktivlashgani kuzatiladi. Bu hol tekstga arxaik poetik bezak berishga intilish oqibati sifatida izohlanishi mumkin. Hozirgi adabiy tilda *uzra* ko`makchisi o`rnida asosan harakatning biror predmetga yo`nalganligi yoki uning sathida sodir bo`lishini ajratib ko`rsatuvchi alohida ko`makchilarning (*ustiga* va *ustida*) qo`llanishi aslida tarixiy taraqqiyot natijasida bu ko`makchi bilan birikuvchi fe`llar birikuvchanligi normasida sodir bo`lgan evolyutsiyadan darak beradi. O`z semantikasiga ko`ra o`rin kelishigi formasidagi so`zni talab qiluvchi fe`l *ustida* ko`makchisi bilan (*samolyot dalalar uzra / ustida uchmoqda*), jo`nalish kelishigidagi so`zni talab qiluvchi fe`llar esa *ustiga* ko`makchisi bilan (*daryo uzra/ ustiga qurilgan ko`prik*) birikadigan bo`lib qoldi. *Taqmoq*, *sochmoq* fe`llari hozirgi adabiy tilda nimani? qayerga? so`roqlariga javob bo`luvchi bo`laklar bilan yeyilishni

<sup>1</sup> Abdurahmanov G., Shukurov Sh. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis. Toshkent 1973.

<sup>2</sup> Kononov A.N. Poslelogi v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike. Tashkent 1951.

<sup>3</sup> Reshetov V.V. Osnovi fonetiki i grammatiki uzbekskogo yazika. Tashkent.1962.

(to`ldirilishni) talab qiladi va zamonaviy leksik-grammatik vosita bo`lgan *ustiga* ko`makchisi bilan birikma hosil qilgan bo`lardir. *Sayrab turgan chaman uzra bulbullar* misolidagi *sayramoq* fe`li ma`lum bir o`rinda, yuzada sodir bo`luvchi harakatni anglatadi. Shuning uchun u *ustida* ko`makchisi yoki o`rin kelishigi formasidagi so`z bilan birikadi: *sayrab turadi (turgan) chaman ustida.chamanda bulbullar kabi*.

Ba`zan uslubda ortiqcha jimjimadorlikka intilish arxaik xarakterdagi *uzra* ko`makchisining semantikasini anglab yetmay noto`g`ri qo`llashga olib keladi.

Shunday qilib, *uzra* ko`makchisining ma`no va stilistik xususiyatlari to`g`ri hisobga olingan taqdirdagina uning ishtirokida tuzilgan konstruktsiyalar mo`ljallangan kommunikativ-stilistik effekt bera oladi.

*To`g`ri/haqida* ko`makchi birikmalar. Bu ko`makchilar o`zlari birikkan ot yoki olmosh anglatgan voqea-hodisa shu konstruktsiya hokim fe`l anglatgan harakat ob`ekti ekanligi ma`nosini ifodalaydi. Bularda ob`ekt ma`nosi ifodalanadi. Ifodalanadigan ob`ekt ma`nosining turi bevosita fe`l semantikasiga bog`liq. Bu fe`llar valentligiga ko`ra *nima to`g`rida? nima haqda?; kimga?; nima haqda? kabi* savollarga javob beruvchi bo`laklarga o`rin ochadi (Bu jihatdan ular rus tilidagi *o kom? o chem? komu? o chem? s kem?* bo`laklariga o`rin ochuvchi fe`llarga semantik. ekvivalent bo`ladi). Bular: 1) tafakkur fe`li bo`ladi: *Qushbegi ham bu to`g`rida o`ylab qoldi (O`.k). Bu to`g`rida ham fikr qiluvchimiz bormi? (O`.k).* 2) nutq fe`llari bo`ladi: *bu to`g`rida ayniqsa sizga so`zlash ortiqchadir (O`.k) Shuning uchun bu to`g`rida so`z ochmadi.* 3) xabar berish fe`lli. *Nega bu to`g`rida xabar bermagan? To`tiqush bu to`g`rida darhol bekasiga shipshitibdi. Birinchi yo`ldosh kosmosda! Bu to`g`rida butun dunyoda e`lon qilsa arziydi.*

Hozirgi o`zbek adabiy tilida *to`g`rida / haqda* ko`makchilari bilan kelgan so`zning mana shu semantik guruhlarga mansub fe`llar

bilan qoʻllanishi normativ hisoblanadi. Bunday qoʻllanish 20—30-yillar uchun ham. norma boʻlganligi misollardan koʻrinib turibdi. Shu bilan birga 20—30-yillarda bu koʻmakchi boshqa semantik doiradagi feʻllar bilan ham birikma hosil qilishda ishtirok etgani kuzatiladi. Oʻsha davr materialini hozirgi norma nuqtai nazaridan oʻrganish bu farqlarni sezib olishga yordam beradi....unga bu toʻgʻrida jasorat bermoqchi edi (Oʻk). Hozirgi davrda *toʻgʻrisida* koʻmakchisi oʻrnida *shida*, *masalada* soʻzlarining qoʻllanishi adabiy norma talabiga mos keladi. Bu misollardagi feʻllar hozirgi adabiy tilda *toʻgʻrida* koʻmakchisi bilan bogʻlanmaydi. Bunga sabab shuki, yuqoridagi feʻllar semantikasi toʻla reallashuvi uchun *toʻgʻrida* soʻziga xos boʻlgan mavhumlik, abstraktilik monelik qilib qoldi. Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida, tabiiy, bu nuqsandan qutulish tendentsiyasi yengib chiqdi, natijada *toʻgʻrida* koʻmakchisi oʻrniga *ishda*, *masalada* kabi soʻzlar qoʻllanadigan boʻldi.

Bu tipdagi konstruktsiyalarda baʼzan *toʻgʻrida* formasi oʻrnida dialektal hodisa sifatida toʻgʻrigʻo formasi qoʻllangani uchrab qoladi: *Ijtimoiy muhofaza (sotsstrax) bu yil tu toʻgʻrigʻo juda xamyonini ochibqoʻydi. Qiyoslang: bu toʻgʻrigʻo /bu ishda/bu sohada xamyonini ochib qoʻydi.* Oʻzbek tilining keyingi taraqqiyoti davomida feʻlning leksik-grammatik birikuvchanligi, grammatik vositalarning tanlanishi masalasi bilan bogʻliq boʻlgan bu kabi kamchiliklar bartaraf qilib borildi.

20—30-yillar materialida *toʻgʻrida* koʻmakchisining «boshqa koʻmakchilarga funktsiyadosh boʻlib qoʻllanish faktlari uchraydi. Bu hol uning funktsional-semantik doirasi hozirgi adabiy tildagiga qaraganda ancha keng boʻlganidan dalolat beradi. Masalan, uning *boʻyicha* koʻmakchisi bilan funktsiyadosh boʻlganligi aniqlandi: *Jurnallar har bir ixtisos toʻgʻrilarido bor boʻlib.* Qiyoslang: *jurnallar har bir ixtisos*

*bo'yicha bor bo'lib. Ba'zan tobe so'zlarga qo'shib ishlatilishi kerak bo'lgan ko'plik formasi -lar bevosita to'g'ri so'ziga qo'shib ishlatiladi: Nima va qaysi to'g'rilarda so'zlashdilar? (O.k). Hozirgi norma bo'yicha -lar formasi ob'ekt funksiyasini bajaradigan tobe holatdagi so'zga qo'shiladi, to'g'rilarda esa to'g'risida formasida bo'ladi. Nimalar va qaysilar to'g'risida so'zlashdilar kabi.*

*To'g'ri so'zi va arabcha haq, xusus so'zlaridan yasalgan to'g'rida, haqida, xususida ko'makchilari (29, 325) ma'no talabi bilan turli shaxs va sonlarni ko'rsatuvchi egalik affikslarini olib kelishi mumkin: to'g'ringda, to'g'risida, to'g'ringizda kabi. Bu holda hozirgi adabiy tilda ko'makchi bilan birikuvchi olmoshlar bosh kelishikda bo'lishi norma hisoblanadi. Lekin ba'zan olmoshlarning qaratqich kelishigi formasida ko'makchi bilan birikuvchi qo'llanishi ham uchrab turadi: Qalandarov...yo'lda uning haqida Saidaga gapirib berdi.(Sin). 20—30-yillar yozma manbalarida esa birinchi shaxs ko'plik anglatuvchi biz kishilik olmoshi bilan birikkan haq so'zi olmosh bilan shaxs-sonda moslashmay qo'llanish hollari kuzatiladi. Hozirgi norma bo'yicha ko'makchi biz olmoshi bosh kelishik formasida 2-shaxs ko'plikni ko'rsatuvchi affiksni olgan haqingizda formali ko'makchi bilan qo'llanishi kerak edi (biz haqimizda) kabi. 20—30-yillarda olmosh bilan ko'makchining bundan boshqacha formalarda birikish faktlari uchrar ekan, bunday birikish normalari amalga kiringuncha o'sha formalarni tanlash protsessi davom etganligini ko'rsatadi. Pirovard natijada kishilik olmoshlarining ko'makchi bilan birikuvining hozirgi formalari turg'unlik, normativlik kasb etdi.*

*Shuni ham aytib o'tish o'rinli bo'ladiki, to'plangan katta faktik material bu ko'makchilarning qo'llanish chastotasida ham farq kattaligini, to'g'risida ko'makchisi haqida ko'makchisidan ancha ko'p ishlatilishini ko'rsatdi. Bu holni, ehtimol, to'g'risida*

ko`makchisining asl turkiy so`z — «to`g`ri»dan, *haqida* ko`makchisining esa arabcha *haq* so`zidan yasalgani. bilan izohlash mumkin bo`lar. Grammatik sistemada bo`ladigan o`zgarishlarga konservatizm xos ekanligini eslasak, bu ko`makchilar vositasida ob`ekt ma`nosi ifodalanishida o`zbek tili uchun «o`z» elementi bo`lgan *to`g`risida* ko`makchisining ko`proq qo`llanishi tabiiy bir hol bo`lishi haqiqatdan uzoq bo`lmaydi.

O`rganilayotgan davrda hokim fe`lning boshqaruv normasiga amal qilmaslik faktlari ham uchraydi: *O`qitish to`g`risido diqqat etish kerak bo`lg`on asoslarning birinchisi. Endi bu to`g`ridog`i muvaffaqiyatlarni ko`rsatib ketsak, dehqon xo`jalig`imizning qotorida hozirgi vaqtda katta ahamiyatga molik bo`lg`on sanoat to`g`risida ham qisqacha ko`rsatib ketaylik. Agarda o`rtoqlar dokladda ba`zi bir narsalar to`g`risida his qilganlar ekan, uni seksiyalarda aytish mumkin. ...savdo to`g`risida biror xato qildimi (O`.k).* Hozirgi adabiy til normasi bo`yicha birinchi misoldagi *diqqat etmoq* fe`lining valentligi *kimga? nimaga?* savollariga javob beruvchi jo`nalish formasida ob`ekt ma`nosini ifodalovchi bo`lakka (*o`qitishga bo`lagiga*) o`rin ochadi. Shu nuqtai nazardan bu fe`l yordamida *to`g`risida ko`makchili o`qitish to`g`risida diqqat etish* kabi konstruktsiya yasash uning grammatik birikuvchanlik normasiga amal qilmaslikdan boshqa narsa emas. Ikkinchi misoldagi ikki o`rinda qo`llangan *ko`rsatmoq* fe`li valentligi ham birinchi holda to`g`ri reallashgan — tobe so`z tushum formasida qo`llangan (*bu to`g`ridog`i muvaffaqiyatlarni ko`rsatib ketsak*), lekin ikkinchi holda grammatik birikuvchanlik normasi buzilgan. Bunda hokim fe`l —*ko`rsatib ketmoq* tobe so`zni tushum kelishigi formasida boshqarishi kerak edi, chunki fe`l semantikasi shuni talab qiladi, holbuki tobe so`z fe`l bilan *to`g`risida ko`makchisi* vositasida birikkan. Xuddi shuningdek *his qilmoq* («sezmoq» ma`nosida) fe`li bilan birikuvchi so`zlar ham birinchi holda

ko`makchi vositasida (*ba`zi bir narsalar to`g`risida his qilganlar ekan* tarzida) emas, tushum kelishigi formasida (*ba`zi narsalarni his qilgan ekanlar* tarzida) shakllanishi kerak edi. *Xato qilmoq* fe`li hozirgi norma bo`yicha *nimada?* so`rog`iga javob bo`luvchi bo`lakka o`rin ochadi.

Shunday qilib, 20—30-yillarda *to`g`risida* ko`makchisi ba`zan unga xos bo`lmagan grammatik ma`nolarni ifodalashga jalb qilingan. Tilning keyingi taraqqiyoti jarayonida bunday nuqsonlarga barham berildi. Buning asosida boshqaruvchi fe`lning semantik xususiyatini to`g`ri anglash, shunga mos ravishda tobe holatda qo`llanadigan so`zni va uning formasini to`g`ri tanlab ishlatish yotadi. Leksik-grammatik birikuvchanlik normasi bilan bog`lanuvchi bu masalalar hozirgi o`zbek adabiy tilida muvaffaqiyatli ravishda hal qilingan. Bunga amaldagi o`zbek tilining nisbatan qat`iy normalari belgilangani va shunga amal qilinayotgani dalil bo`la oladi.

*Haqidagi, to`g`risidagi, haqidagi, to`g`risidagi* ko`makchili birikmalar. Bunday birikmalar adabiyotlarda shu kungacha tasvirlanmagan. *-gi* sifat yasovchi affiks vositasida yasalgan bu ko`makchilarning grammatik ma`nosi shu affiksiz qo`llanuvchi ko`makchilarnikidan farq qilmaydi — ikkala holda ham ular bilan birikkan so`zlar (ot, olmosh va b.) anglatgan tushuncha nima haqda ekanlik ma`nosi ifodalanadi. Bular o`rtasidagi farq shundaki, ko`makchining affikssiz varianti fe`l bilan, affiksli varianti esa ot bilan birikadi va birinchi holda ob`ektli, ikkinchi holda atributiv birikma hosil qilinadi. Qiyoslang: *Men bu to`g`rida bir qarorga ham kelib qo`ydim (O`k). Xurniso uning o`ziga ma`lum bo`lmagan kamchiliklari, hammaga ma`lum xatolari to`g`risida so`zlab, gapni ko`pirtira boshlagan edi (Sin). Kolxoz to`g`risida kitob yozganman (Sin).*

20—30-yillar materialida *haqidagi/to`g`risidagi* ko`makchilarining ot bilan birikishi norma sifatida asosan shakllanib bo`lgan edi. Biroq bu ko`makchi o`rnida ba`zan *-gi* affiksi bilan shakllanmagan ko`makchining qo`llanishi ham uchrab qoladi: *Kerakli tafsiloti esa aql malakalarining xususiy ravishda tarbiya etilishi to`g`risida keraksingan ma`lumotlar qatorida bildirilgusidir.* Bu hol *to`g`risida, to`g`risidagi* ko`makchilarning muayyan so`z turkumlari bilan qo`llanishida ba`zan ikkilanishlar bo`lganligidan dalolat beradi. Albatta, bunday kam uchraydigan hodisalarni umum til hodisasi sifatida baholash to`g`ri bo`lavermaydi. Ularni sub`ektiv faktor — o`sha davr avtorining til madaniyati saviyasi past bo`lganligi bilan ham izohlash mumkin.

*Xususida* ko`makchili birikmalar. Bular *haqida, to`g`rida* ko`makchili birikmalarning sinonimidir. Bu ko`makchining kam ishlatilishi, shunda ham rasmiy stilda qo`llanishi 60-yillarda qayd qilingan. Bizning materialimiz bu fikrning bir jihatdan — rasmiy stilda qo`llanishi jihatidan to`g`ri ekanligini tasdiqlaydi: o`zbek tilining taraqqiyoti davomida, shuningdek, 60-yillardan keyin uning qo`llanishi chastotasi ortganligi, hozirgi davr tilida ko`proq qo`llana boshlagani kuzatiladi.

20—30-yillarda *xusus* so`zi soha, ish, masala kabi so`zlarga sinonim tarzida mustaqil ma`noda ham qo`llanganini kuzatiladi. Hozirgi o`zbek adabiy tilida *xususda* (*xususida*) so`zi to`lig`icha ko`makchi razryadiga o`tgan yordamchi so`zlardan hisoblanadi.

### 3.3 Holat ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan birikmalar taraqqiyoti masalalari.

*Holda* ko`makchili birikmalar. *Hol* so`zi leksik ma`nosidan chetlashib, grammatik ma`no ifodalashga xizmat qiladi. Shunday paytlarda u ko`makchi bo`lib qo`llanadi. *Holda* ko`makchisi sub`ekt harakatining qay tarzda sodir bo`lish ma`nosini anglatadi. Bu ma`no asosan *holda* ko`makchisi *-gan* formali sifatdosh bilan birikkanda ifodalanadi. *Holda* ko`makchisining bu funktsiyasi o`zbek tilining taraqqiyoti ichida deyarli o`zgarmadi: *Usta yig`lagan holda, Otabekni quchoqlab o`pdi-da ayvonga ko`rpacha sola boshladi (O`.k). Otabek bo`shashgan g`olda qaytib o`rniga o`tirdi (O`.k). Mog`ira oyim allanechuklangani holda javob berar edi (O`.k). Shoir... yostiqa suyangan holda tarix mutolaa qilardi (Oybek). Holda ko`makchisining *-gan* formali sifatdosh bilan qo`llanishi normativlik kasb etgani 20—30-yillarda sodir bo`lgan. Biroq bu davrda uning *-dik* formali sifatdosh bilan birikib kelishi uchrab qoladi: *Har holda uyida yotdiga g`olda ham bu masalani tekshirmakda va muhokama qilmoqda edi.**

*Yo`sinda* ko`makchili birikmalar. Bularda ham *holda* ko`makchisi kabi sub`ekt harakatining qay tarzda sodir bo`lganlik ma`nosi ifodalanadi.

*Yo`sinda* ko`makchisi *-gan* formali sifatdosh bilan birikadi. Bunday paytda u *holda* ko`makchisiga sinonim bo`ladi. *Mahmud dovdiragan yo`sinda Anvar bilan ichkariga kirdi.* Lekin ko`makchining *-gan* formasi bilan qo`llanishi nihoyatda cheklangan, hozirgi davrda deyarli uchramaydi. Shuni alohida ta`kidlash o`rinli bo`ladiki, 20—30-yillarda, ayniqsa, A. Qodiriyning «O`tgan kunlar» romanidan bu ko`makchi *yo`sini* formasida ham ko`p qo`llangan Hozirgi adabiy tilda esa asosan *yo`sinda* formasi qo`llanadi. Har ikki formaning qo`llanishiga misollar keltiramiz: *...xo`rlangan tahqir etilgan qizini ne yo`sinda yupatishga bu*

*qora kunlarni qandog` qilib o`tkarishga bilmas edi (O`.k) ...haytovur siz shu yo`sinda yura bersangiz erta-indin o`g`ildan ajralasiz (O`.k). ...shu yo`sinda makkor Homidning iblisona dasisasi bir oilani tamom ishdan chiqarayozgankim, bu to`g`rida ayniqsa sizga so`zlash ortiqchadir. Bu favqulodda sevinch xabarni bekning qaysi yo`sinda qarshilashini o`ylar edi (O`.k). ..qaysi yo`sinda o`tirib olganini ham payqamas edi. Shu yo`sin qizlar o`zlarining bir o`rtoqlarini xotinlik dunyosiga uzatib, majlisda tarqalishdilar. Oftob oyimning shu yo`sin chaqirishi uch-to`rt qaytalab bo`lsa-da, Kumush eshitmaganga solib, arzimagan narsalar bilan shug`ullangan bo`lib chiqa bermadi. ...bir bechoraga bu yo`sin azob berib yurmangiz, - (O`.k).*

Bunday birikmalarda yo`sin(da) ko`makchisi holda ko`makchisiga sinonim bo`lmaydi. Uning funktsiyasida chiqish kelishigi formasidagi tarz, ahvol so`zlari, shunday qilib birikmasi qo`llanishi mumkin. Qiyoslang: *shu yo`sin qizlar bir o`rtoqlarini xotinlik dunyosiga uzatib/shu tarzda qizlar bir o`rtoqlarini xotinlik dunyosiga uzatib..; siz shu yo`sinda yuraversangiz/siz shu ahvolda yuraversangiz/shunday qilib yuraversangiz kabi.*

*Yo`sin ko`makchisi ot bilan biriksa, kabi, shunday so`zlariga sinonim bo`ladi, birikmada relyativ emas, atributiv munosabat ifodalanadi: Yuqorida Otabek tomonidan olingan maktubning haqiqati mana shu yo`sin xiyonatning natijasi ediki, biz endi xiyonat qahramonlari bilan o`quvchilarni tanishtiramiz (O`.k). Qiyoslang: mana shu yo`sin xiyonat/mana shu kabi xiyonat/mana shunday xiyonat. Bu tipdagi birikmalarda tarz ma`nosini ifodalashda bu ko`makchilardan ko`ra yuqorida ko`rsatilgan so`zarni qo`llash odat tusiga kira boshladi. Bu holni yozma adabiy tilga so`zlashuv tilining ta`siri va o`zaro yaqinlashuvi natijasi deb baholash mumkin.*

## Umumiy xulosalar

XX asr o`zbek tilining taraqqiyotida tushum kelishikli birikmalarning uzoq tarixiy davrlardan beri mavjud bo`lgan asosiy struktur-semantik modellari saqlanib qoldi. Shu bilan birga ba`zi konstruktsiyalar formal-semantik jihatdan ma`lum o`zgarishlarga uchradi.

Ob`ekli birikmalarni hosil qiluvchi o`timli fe`llariing semantik va grammatik xususiyatlari yanada aniqlashdi. Uning tushum formasidagi so`zni boshqa normativlik kasb etdi. Kuchli boshqaruvli o`timli fe`llarning so`zni tushum kelishigi formasisiz boshqaruviga chek qo`yildi. Bu forma o`rnida bosh, qaratqich, jo`nalish, chiqish kelishiklari, shuningdek, ba`zi ko`makchilarning qo`llanishi barham topdi.

Grammatik aloqaga kiruvchi so`zlarning leksik va grammatik birikuvchanlik xususiyati bu davrda silliqqlanib, takomillashib bordi. Bu hol, birinchi navbatda konstruktsiyani hosil qiluvchi boshqaruvchi fe`l boshqariluvchi ot (keng ma`noda) semantikasining konkretlik kasb etishda, semantik arxaizmdan qutulib borishda ko`rinadi. Ikkinchidan, polesemantik fe`llar ba`zi ma`nolarda birikma hosil qilishi barham topdi. Buning natijasida semantik jihatdan g`aliz bo`lgan konstruktsiyalar iste`moldan chiqqa bordi.

O`zbek tilining taraqqiyoti davrida jo`nalish kelishikli birikmalari ham ma`lum rivojlanish jarayonini bosib o`tdi. Jo`nalish formasidagi birikmaning ifodalaydigan sintaktik munosabat turlari konkretlashdi. Bunga, birinchi navbatda, til taraqqiyotining o`z ichki, lingvistik qonunlari asosida jo`nalish formasini boshqaruvchi fe`lning semantik jihatdan aniqlik kasb eta borishi sabab bo`ldi. Buning natijasida jo`nalish kelishigining boshqa kelishiklar funksiyasida qo`llanishi barham topib bordi. Bu hol o`z navbatida umuman o`zbek tili boshqaruv sistemasining normallashuviga olib keldi.

20—30-yillarda qoʻllangan joʻnalish kelishikli birikmalarning koʻpgina tiplari qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarida ham qoʻllangan. Ular faqat taraqqiyotning keyingi etaplaridagina isteʼmoldan chiqib ketdi.

Joʻnalish kelishikli birikmalar taraqqiyoti dialektal va stilistik hodisalarning konkret chegaralanishiga olib keldi. Adabiy til normalarining kodifikatsiya qilinishi bilan bogʻliq boʻlgan bu hodisa oʻzbek adabiy tilining sezilarli taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtganidan dalolat beradi.

Joʻnalish kelishikli birikmalar taraqqiyoti oʻzbek tili sintaktik sistemasining uzviy bir qismi sifatida bu sistema taraqqiyotiga xos boʻlgan leksik-semantik, sintaktik-morfologik oʻzgarishlarni oʻzida aks ettiradi.

20—30-yillarda chiqish kelishigining oʻrin kelishigi funktsiyasida qoʻllanishi feʼl boshqaruv sistemasida hali normativlik qaror topmaganini koʻrsatadi.

Baʼzi feʼllarning hozirgi adabiy tildagidan boshqa maʼnoda qoʻllanishi hozirgi norma nuqtai nazaridan nomaqbul boʻlgan chiqish kelishikli birikmalar yasalishiga sabab boʻlgan.

Chiqish kelishikli birikmalarning shakllanishi leksik, morfologik va sintaktik jihatlardan normativlik kasb eta bordi. Leksik-grammatik sohalarda kuzatilgan oʻgʻiz elementlaridan, tojik tili taʼsiridan qutulib borildi.

20—30-yillar ichida rus tilining barakali taʼsirida gazeta tilida sarlavha funktsiyasida qoʻllanuvchi yangi struktura tipidagi konstruktsiyalar paydo boʻldi. Bularga xos boʻlgan muhim xususiyat hokim komponent vazifasida qoʻllanuvchi feʼlning tushirilib qoldirinishi, ularning kontekst vositasida osonlikcha tiklakinishidir. Bu

tipdagi birikmalarning asosan gazeta tilida uchrashi ularning publitsistik stilda qo`llanishga xoslanganidan dalolat beradi.

XX asr kelishikli boshqaruvli so`z birikmalar taraqqiyotning dastlabki yillarida o`rin kelishigining funktsional doirasi ancha keng bo`lgan. Buning natijasida bu formadagi so`z o`z semantikasiga ko`ra boshqa kelishik formasini talab qiladigan fe`llar bilan birikma hosil qilavergan. Keyingi taraqqiyot etapida o`rin kelishigining funktsiyasi konkretlashishi natijasida u faqat ma`lum bir semantik gruppaga oid fe`llar bilangina birikma yasaydigan bo`ldi.

Ba`zi fe`llar orttirma daraja formasida ham boshqaruv normasini o`zgartirdi. Bunday hol orttirma daraja formasi semantikasi to`g`ri idrok etila boshlanganini ko`rsatadi. Shunga mos ravishda boshqaruv modeli ham turg`unlashdi.

O`rin kelishikli birikma leksik qiyofasi jihatdan o`zgardi. Ma`nosi eskirgan so`zlar tobe komponent vazifasida qo`llanmaydigan bo`ldi. Bu xol o`rin kelishikli birikmalar modelining leksik jihatdan tuldirilishi, ya`ni ularni tarkiblantiruvchi so`zlarning leksik birikuvchanligi ham takomillashib borganini ko`rsatdi.

O`rin kelishikli birikmalarda kuzatiladigan grammatik vositalarning ortiqcha qo`llanishi yoki noo`rin ellipsisga tushishi ham normallasib bordi. Sintaktik soddalashish va birikmalarning leksikalizatsiyalashishi protsessida o`rin kelishigi formasidagi yangi leksik birliklar paydo bo`ldi.

O`rin kelishikli birikmalar vositasida ifodalangan sintaktik ma`no turlari jiddiy sifat o`zgarishlariga uchramadi. Asosan bu ma`nolarning ifodalanishidagi leksik, grammatik vositalarning qo`llanishi normalashdi.

Sintaktik ma`no ifodalanishining ba`zi usullari nutq stillariga ko`ra differentsiatsiyaga uchradi. Bu hol grammatik stilistika normalarining ham aniqlik kasb etitishiga olib keldi.

O`zbek tili sintaktik sistemasida salmoqli o`rin tutuvchi kelishikli birikmalar taraqqiyot jarayonida ancha sezilarli o`zgarishlarga uchradi. Bulardan muhimlari sifatida kelishiklarning funksional almashinib qo`llanishidagi har xillik, chalkashliklar barham topganini ko`rsatish mumkin. Bu hol har bir kelishikning grammatik ma`no ifodalash xususiyati aniqlik kasb etganidan, grammatik normada barqarorlik xukmron bo`lganidan dalolat beradi.

Birikma hosil qilinishi va uning evolyutsiyasida bir qator ichki va tashqi omillar birgalikda, kompleks holda amal qildi. Ekstralingvistik omil sifatida rus, tatar qisman turk tili ta`sirini, ichki lingvistik omil sifatida so`z semantik strukturasiidagi, uning morfologik shakllanishidagi o`zgarishlarni, stilistik chegaralanish kabilarni ko`rsatish mumkin.

Fe`l semantik xususiyatiga ko`ra sodda va murakkab tiplardan tashkil topgan ob`ektli birikmalar rivojlanish davrida turli xil omillar ta`sirida leksik-grammatik jihatdan turli o`zgarishlarga uchrab, hozirgi adabiy til normasi talabiga javob beruvchi stabil modeli va shunga mos ravishda stabil grammatik ma`no ifodalaydigan bo`lib qoldi. Lokal kelishiklar vositasida hosil qilinuvchi birikmalar ham ancha sezilarli taraqqiyot yo`lini bosib o`tdi. Adabiy til normasi shakllana borishi natijasida o`rinsiz funksional almashinuvlarga chek qo`yildi. Bu sohada grammatik sinonimiya normalari yo`l qo`yuvchi almashishlargina maqbul variantlar sifatida yashab qoldi.

Hozirgi adabiy til normasi nuqtai nazaridan nomaqbul bo`lgan ba`zi birikmalar formasi qoldiq normalarning namoyon bo`lishi sifatida izohlanadi. Bu normalarga mutlaqo zid bo`lgan ba`zi hodisalar lingvistik ongda davom etayotgan inertsiya oqibati sifatida rad etilishi, ularning hozirgi norma talabi doirasida qo`llanishi qonunlashtirilishi kerak.

Gazeta sarlavhalari vazifasida qoʻllanuvchi birikmalarning grammatik qurilishi oʻzbek tili sintaktak qurilishida sodir boʻlgan eng soʻnggi hodisalardir. Rus tili publitsistik stili taʼsirida yuzaga kelgan bu hodisa ixchamlashtirilgan konstruktiv modellar vositasida keng mazmun ifodalashga xizmat qiladi. Bunda kontekst tayanch nuqtasi sifatida xizmat qiladi, qanday mazmun ifodalanayotganini aniqlashda asosiy rol oʻynaydi.

Oʻzbek tilining sovet davridagi taraqqiyotida koʻmakchili boshqaruv asosida hosil qilinuvchi birikmalar turli jihatlaridan rivojlanib, takomillashib bordi. Ammo bu oʻzgarishlar koʻlami va turlari barcha koʻmakchili birikmalarga nisbatan birday sodir boʻlgan emas. Baʼzi oʻzgarishlar birikma komponentlarining leksik biriktiruvchanligiga, baʼzilari koʻmakchi bilan tobe holatdagi otning leksik birikuvchanligiga, baʼzilari koʻmakchilarning sintaktik munosabat ifodalashdagi funktsional doirasining chegaralanishi kabi hodisalarga oiddir. Sintaktik munosabat baʼzi turlarining ifodalanishida umumiy tendentsiya shundan iborat boʻldiki, birikma hosil qilishning analitik usulidan sintetik usuliga oʻtildi. *Bilan* koʻmakchisi maqsad, tarz, obʼekt munosabatlarini, *tagida* koʻmakchisining oʻrin munosabatini, *ostida* koʻmakchisi maqsad munosabatini ifodalashda isteʼmoldan chiqib, ular oʻrnida oʻrin, chiqish kelishiklarining qoʻllanishi bu fikrning dalilidir. Sintetik formali konstruktsiyalarning analitik turlari bilan almashishi esa juda cheklangan. Bu faktlar taraqqiyot jarayonida kelishiklar va koʻmakchilarning semantik jihatdan chegaralanib, normativlik kasb etganini, buning natijasida maʼlum turdagi sintaktik munosabat ifodalashga xoslanganini koʻrsatadi.

Koʻmakchili konstruktsiyalarning taraqqiyot koʻlami, ularning semaitik-stilistik jihatdan oʻzgarishlari har bir konkret koʻmakchining funktsional-grammatik xususiyatlari bilan chambarchas bogliq ravishda sodir boʻladi. Polifunksional koʻmakchilar taraqqiyotida grammatik,

stilistik jihatdan differentsiatsiyalashish kengroq ko`lamda sodir bo`ldi. Bu mutlaqo tabiiy hol edi, albatta. Chunki ko`makchi qanchalik ko`p funktsiya bajarsa, bu funktsiyalarning biror jihatdan o`zgarishi, takomillashuv ehtimoli shuncha ko`p bo`ladi. Masalan, *bilan* ko`makchisining semantik-stilistik jihatdan ancha chuqur differentsiatsiyaga xuddi mana shu omil bilan izohlanadi.

Qator ko`makchilarning semantik ma`nosi aniqlik kasb etdi— ularning funktsional doirasi toraydi, natijada ular muayyan bir tip sintaktik munosabat ifodalashga xoslandilar. Bu hol ko`makchilarning noo`rin ravishda sinonimlar sifatida qo`llanishga chek qo`ydi. Hozirgi davrda 20-30-yillardagi kabi oldida, yonida ko`makchilarining qoshida ko`makchisi funktsiyasida, qaraganda orqasidan ko`makchilarining bo`yicha, natijasida ko`makchilari funktsiyasida qo`llanmasligi va shu faktlar bu fikrning dalili bo`la oladi.

Hozirgi davrda ko`makchili birikmalarning hosil qilinishi va ma`nosi amaldagi o`zbek adabiy tilining normalariga javob beradigan darajada yuksak mukammalilik kasb etdi.

## Foydalangan adabiyotlar ro'yhati

1. Karimov. I.A. «O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida» Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O`zbekiston, 1997 141- bet.
2. Karimov. I.A. «Istiqlol va ma`naviyat» – T.: O`zbekiston, 1994, 69-bet.
3. Karimov. I.A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008. -176 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat – engilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, 2008. -176 b.
5. Abduraxmanov G`. «Qo`shma gap sintaksisi asoslari» –T.: 1958.
6. Abdullaev A. Hozirgi o`zbek adabiy tilida ko`chirma gapli konstruktsiyalar. Toshkent. Fan. 1978.
7. Abdurahmanov G`., Shukurov Sh. O`zbek tilining tarixiy grammatikasi. Morfologiya va sintaksis. Universitetlarning filologiya fakul`etlari hamda pedagogika institutlarining til va adabiyot fakul`etlari uchun qo`llanma. Toshkent 1973.
8. Abduraxmanov G` Tarixiy sintaksisi// “O`zbek tili tarixiy grammatikasi” kursi bo`yicha materiallar. Toshkent. 1974.
9. Abduraxmanov G` Qo`shma gaplarning tarixiy taraqqiyotiga doir// O`zbek tili va adabiyoti masalalari. Toshkent 1974.
10. Abduraxmanov G`Qo`shma gap sintaksis asoslari. Toshkent 1964.
11. Abdullaev F., Ibrohimov F. So`z birikmasi sintaksisining rivojlanish masalalari //O`zbek tili va adabiyoti 1972 №2.
12. Amirova A. Obstoyatel`stva prichini i tseli v sovremennom uzbekskom literaturnom yazike Samakand. 1967.
13. Balakaev M. Sovremennyy kazaxskiy yazik. Sintaksis. Alma-ata 1959.
14. Baskakov A.N. Slovosochetaniya v sovremennom turetskom yazike. M. Nauka 1974.

15. Baskakov A.N. Slovosochetaniya v karakalpakskom yazike. Issledovaniya po sravnitel'noy grammatike tyurksix yazkov. Sintaksis. M., An. SSSR. 1961.
16. Baskakov A.N. Slovosochetaniya v sovremennom turetstskom yazike. M. 1974.
17. Gadjieva N.G. Osnovnye puti razvitiya sintaksicheskoy struktury tyurkskix yazikov. M., Nauka 1973.
18. Golubeva N.P. Sintaksicheskie svyazi perexodnogo turetskogo glagola. AKD. M., 1974.
19. Grammatika russkogo yazika T. 2 M. 1960
20. Dmitriev N.K. Stroy tyurkskix yazikov. M. «Vostochnoy literaturi» 1962.
21. Dmitriev N.K. Detali prostogo predlozheniya. Issledovaniya po sravnitel'noy grammatike tyurkskix yazikov. Sintaksis. M., 1961.
22. Zakiev M.Z. Sintaksicheskii stroy tatarskogo yazika. ADD, Kazan`. 1963.
23. Zakiev M.Z. Sovremenniy tatarskiy yazik. Sintaksis. Kazan` 1958.
24. Karimov G`. Sovet davri o`zbek adabiy tili taraqqiyoti Toshkent. Fan 1985.
25. Karimov Q. "Qutadg`u bilig" tilida kelishik kategoriyasi. KD. Toshkent Fan. 1962.
26. Kononov A.N. Grammatika sovremennogo uzbekskogo literaturnogo yazika. M., 1960.
27. Kononov A.N. Poslelogi v sovremennogo uzbekskom literaturnom yazike Tashkent. 1951.
28. Nurmonov A.N. Problemi sistemnogo issledovaniya sintaksisa uzbekskogo yazika Tashkent. 1982.
29. Rustamov T. Hozirgi o`zbek adabiy tilida ko`makchilar. Toshkent 1965.
30. Safaev A. Issledovaniya po sintaksisu uzbekskogo yazika. Tashkent., 1966.

31. Sovremenniy tatarskiy literaturniy yazik. Sintaksis. M.. 1971.
32. Tursunov M., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o`zbek adabiy tili Toshkent. 1975.
33. O`zbek tili grammatikasi. I. Toshkent. 1974.
34. O`zbek tili grammatikasi. II. Tashkent. 1976.
35. O`zbek tili izohli lug`ati. t. I. M. 1981.
36. O`zbek tili izohli lug`ati. t. II. M.. 1981.
37. O`zbek tili leksikologiyasi. Toshkent. 1981.
38. G`ulomov A.G`. Asqarova M.A. Hozirgi zamon o`zbek tili. Sintaksis. Toshkent. 1961.
39. G`ulomov A.G`. Asqarova M.A. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. 1965.
40. Hozirgi zamon o`zbek tili. Toshkent. 1957.
41. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Sintaksis. Toshkent. 1960.

## O`zbek tili so`z birikmalarining XX asrdagi taraqqiyoti masalalari.

**Kirish.**\_\_\_\_\_

**I. Bob. XX asrda boshqaruv asosida tuzilgan so`z birikmalar taraqqiyoti  
masalalari. Kelishikli boshqaruvli so`z birikmalari.**

**1.1 Tushim kelishikli birikmalar.**\_\_\_\_\_

**1.2. Jo`nalish kelishikli birikmalar.**\_\_\_\_\_

**1.3. Chiqish kelishikli birikmalar.**\_\_\_\_\_

**1.4. O`rin kelishikli birikmalar.**\_\_\_\_\_

**II. Bob. Ko`makchili boshqaruvli so`z birikmalari.**

**2.1 Bosh kelishikni boshqaruvchi ko`makchilar vositasida hosil  
bo`ladigan birikmalar.**\_\_\_\_\_

**2.2. Jo`nalish kelishigini boshqaruvchi ko`makchilar bilan hosil  
bo`ladigan birikmalar.**\_\_\_\_\_

**2.3. Chiqish kelishikgini boshqaruvchi ko`makchilar vositasida hosil  
bo`ladigan birikmalar**\_\_\_\_\_

**III Bob. Ko`makchi otlar vositasida hosil bo`ladigan birikmalar  
taraqqiyoti masalalari.**

**3.1. O`rin ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan boshqaruvli  
birikmalar**\_\_\_\_\_

**3.2. Ob`ekt ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan birikmalar  
taraqqiyoti.**\_\_\_\_\_

**3.3. Holat ma`noli ko`makchi otlar vositasida tuzilgan birikmalar  
taraqqiyoti masalalari.**\_\_\_\_\_

**Foydalangan adabiyotlar ro`yxati.**\_\_\_\_\_





